

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

MAMAJANOV AZIZBEK ALISHER O‘G‘LI

ROSSIYA TARIXI

O‘quv qo‘llanma

Andijon-2025

Mamajanov Azizbek Alisher o'g'li.

Rossiya tarixi.

O'quv-qo'llanma: Andijon "Omadbek print number one" MCHJ nashriyoti – 2025 yil / 142 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida belgilangan 3-bosqich talabalari uchun "Rossiya tarixi" fanidagi Rossiya tarixiga kirish, Rus davlatining vujudga kelishi, Feodal tarqoqlik davrida Rus davlati, Markazlashgan Rus davlatining tashkil topishi, XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Moskva atrofiga rus yerlarining birlashtirilishini tugallanishi, Rossiya davlatining XVII asrdagi taraqqiyoti, XVIII asrning I-yarmida Rossiya davlati, XVIII- asrning II-yarmidagi Rossiyaning taraqqiyoti, XIX-asrning I-yarmida Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi, XIX-asrning 1-yarmidagi tashqi siyosat va madaniy taraqqiyot, XIX-asrning II-yarmidagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, XX -asr boshlarida Rossiyaning iqtisodiy-siyosiy ahvoli mavzulari bo'yicha tayyorlangan o'quv adabiyoti bo'lib, Rus davlati tarixi to'g'risida talabalarda muayyan bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir, Rossiya tarixi fanining rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan yondoshish, tarix fanining asosiy muammolarining mohiyatini ochib berishga yordam beradi.

Mas'ul muharrir:

O.K.Komilov,

tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

S.A.Xoshimov

tarix fanlari doktori, professor

D.A.Iymanova

tarix fanlari nomzodi, dotsent

O'quv qo'llanma Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrda 429-sonli buyrug'iga asosan nashr qilingan.

8214



ISBN 978-9910-799-77-8

© A.A.Mamajanov

© «Omadbek print number one» MCHJ nashriyoti, 2025

KIRISH.

Taklif etilayotgan o'quv qo'llanma tarix ta'lim yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan. Qo'llanma talabalarning Rossiya tarixida antik davrdan to hozirgi kungacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar haqidagi voqeliklarni rivojlantirishga qaratilgan.

Ushbu o'quv material tarix fanining kontseptual yondashuvlarini va Rossiya tarixining murakkab masalalarini batafsilroq taqdim etish foydasiga imkon qadar faktik qismni (sanalar, voqealar, shaxslar) qisqartirilgan. Shu bilan birgalikda talabalarga Rossiya tarixidan faktlar sohasida puxta tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Jamiyat va davlatda sodir bo'layotgan jarayonlarga urg'u berish bizga Rossiya tarixini - hukmdorlar tomonidan taqdim etishning an'anaviy shaklidan uzoqlashishga imkon berdi. Qo'llanma bo'limlari sarlavhalarida shaxsga tegishli bo'lgan hollarda ham, matn ko'proq uzoq muddatli tendentsiyalarni kuzatadi va siyosiy hokimiyatning islohotchi yoki reaksion choralari jamiyatning turli sohalaridagi tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda ko'rsatiladi. Qo'llanmada tarixiy manbalar muammosi va ularning talqini ko'pligiga ham e'tibor qaratilgan.

Qo'llanmadagi materiallar mavzu bo'yicha taqdim etilgan. Ko'pgina hollarda, mavzu ikki soatlik akademik ma'ruzaga to'g'ri keladi. Qo'llanmaning uslubiy qismida har bir mavzu bo'yicha muhokama qilish uchun savollar mavjud. Barcha mavzular uchun rus tarixining turli davrlari va muammolari bo'yicha tadqiqotlarning hozirgi holatini aks ettiruvchi adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi, ulardan test va imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish mumkin. Qo'llanma matnida asosiy tushunchalar kursiv bilan ajratib ko'rsatilgan.

Ushbu "Rossiya tarixi" nomli o'quv qo'llanma faqat tarix fanining zamonaviy yondashuvlarini hisobga olgan holda Rossiya tarixining kontseptual sxemasini taqdim etgan holda, oliy ta'limning o'quv-uslubiy jihozlaridagi mavjud bo'shliqni to'ldirish uchun mo'ljallangan.

I BO‘LIM. QADIMGI RUS DAVLATINING SHAKLLANISHI. O‘RTA ASRLARDA FEODAL RUS KNYAZLIKLARI.

1.1. QADIMGI RUS DAVLATINING VUJUDGA KELISHI.

Tayanch so‘z va iboralar: Manbalar; skif; sharqiy slavyan; Buyuk suv yuli; posad; sloboda; veche; drujina; voevoda; norman nazariyasi;

Ma‘lumki, tarixiy manbalar - moddiy, yozma, tasviriy va fonik manbalardan iborat bo‘ladi. Rossiya tarixining boshlanishiga oid dastlabki ma‘lumotlarni yilnomachi Nestorning asarlaridan olamiz.

Mixail Vasilevich Lomonosov (1711-1765) va V.N.Tatishyev (1686-1750)lar rus tarixi fanining asoschilari xisoblanishadi. N.M.Karamzin (1766-1826) O‘zining «История государства Российского» (Rossiya davlati tarixi) asarida Rossiya davlati uchun dono hukmdor zarur ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari XIX asrdagi yirik rus tarixchisi S.M.Solovyev (1820-1870)ning «История России с древнейших времен» asarini, uning shog‘irdi V.O. Klyuchevskiy (1841-1911)ni esa «Курс русской истории» asarini, S.F.Platonov (1850-1933)ning «Лекции по русской истории» kabi Rossiya tarixiga bagishlab yozilgan ko‘p jildli asarlarini ta’kidlab o‘tish mumkin.

Sovetlar tuzumi davrida Rossiya tarixiga bagishlangan ilmiy asarlarni yaratishda tarixchi olimlarning ijodkorligiga yul kuyilmay faqat markscha-lenincha nazariya nuqtai nazaridan qaralgan. Aslida esa Rossiya tarixi – bu jahon tarixiy jarayonining bir bulagidir.

Rossiyaning qadimgi davri ham kishilik tarixining bir bulagi sifatida tosh, bronza va temir davrlariga bo‘linadi. Bronza davri miloddan avvalgi 3-ming-yillikning oxiridan milodiy 1-ming-yillikgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi Rossiyaning Shimoliy Qora dengiz hududlarida dastlabki quldorlik davlatlari yuzaga kelgan bo‘lib, ulardan Skiflar davlatini ta’kidlab o‘tish mumkin. Miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot o‘zining «Tarix»

asarida Qora va Azov dengizlaridan shimoliy hududlarda yashagan ko'chmanchi aholini skiflar deb atagan.

Dnestrning O'rta qismida va Dneprni atroflarida - eng qadimgi nomi Borisfen deb atalgan slavyanlar yashaganlar. Miloddan avvalgi III asrda skif qabilalarining poytaxti skiflar Neapoli (hozirgi Simferopol) bo'lgan kuchli Skif davlatiga birlashdilar. Skiflar yetishtirgan g'alla Gretsiyaga jo'natilgan. Qora dengiz qirg'oqlaridagi quldorlik davlatlari, ya'ni grek shaharlari g'allani sotishda vositachilik qilishgan. Olviya (Nikolayev yaqinida), Xersones (Sevastopol hududi), Pitius (Pitsunda), Gorgippiya (Anapa), Pantikapey (Kerch) dan olib borilgan g'alla Afina aholisini yarmini ta'minlagan. Mil.avv. V asrda Pantikapey yirik quldorlik davlati - Bospor podsholigini yirik markazi (Miloddan avvalgi V asr- milodiy IV asr) bo'lgan. Milodiy IV-V asrlarda got va xunn qabilalarining hujumlari oqibatida yuqorida ko'rsatib o'tilgan quldorlik davlatlari quladi.

Sharqiy slavyanlar haqida so'z borganda avvalo shuni ta'kidlash lozimki, ilk slavyanlar – praslavyanlar arxeologik manbalarga ko'ra miloddan avvalgi II-ming-yillik o'rtalarida Oder daryosidan sharqdagi Karpat tog'larigacha bo'lgan hududlarda yashashgan. Slavyanlar haqida ilk ma'lumotlarni qadimgi grek, rim, arab, vizantiya manbalaridan olamiz. Antik avtorlar slavyanlarni venedlar yoki antlar deb ataganlar.

Vizantiya tarixchisi Prokopiy Kesariyskiy «Gotlar bilan urush» asarida slavyanlar va antlar to'g'risida ma'lumot beradi. Sharqiy slavyanlar g'arbda Karpat tog'lari, sharqda Oka daryosini o'rtasigacha va Don daryosining yuqori oqimigacha, shimolda Neva daryosi va Ladoga ko'ligacha, janubda o'rta Dneprgacha bo'lgan joylarda yashaganlar. «Varyaglardan greklarga» yo'li-buyuk suv yo'li IX asr oxirida vujudga kelgan. Boltiq (Varyag) dengizidan Qora dengizning g'arbiy qirg'og'i orqali Konstantinopol (Sargrad)ga borilgan. Bu daryolar orqali boriladigan yo'lda Novgorod va Kiyev asosiy rol o'ynagan.

Sharqiy slavyanlar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanishib, g'alla, meva hamda poliz ekinlari o'stirishgan. Chorvachilikda cho'chqa, qoramol, kichik shoxli

hayvonlar yetishtirishgan. Otda yer ham haydashgan. Bundan tashqari baliqchilik, ovchilik, asalarichilik bilan ham shug'ullanishgan.

Dastlab jamoa xo'jaligi mavjud bo'lib, mulkning shaxsiy va jamoa shakli bo'lgan. Xususiy mulk vujudga kelgach knyazlar tomonidan yirik yer egalari-feodallarga merosga qoldirish huquqi bilan yer-mulklar berilgan. Asta-sekin jamoa yer-mulklarini feodallar va knyazlar egallay boshlashdi. Dehqon va feodal xo'jaligi natural harakterga ega bo'lgan.

Shaharlar asosan ikki daryo oqimini qo'shilish joylariga qurilgan. Atroflari esa xandaq va qal'a devorlari bilan o'rab olingan. Posad - shaharning hunarmandchilik qismi bo'lib, ma'lum kasbga ixtisoslashgan hunarmandlar yashovchi hudud esa sloboda deb atalgan. Shaharlar tobora rivojlanib va kengayib, hunarmandchilik va savdo markazlariga aylangan.-yilnomalarda qayd qilinishiga ko'ra, IX asrda Rusda 24 ta shaharlar bo'lgan.

Ijtimoiy tuzum masalasiga kelsak, Rusda qabilalar ittifoqini knyazlar boshqarishgan. Xalq yig'ini - vecheda muhim masalalar xal etilgan. Lashkar-polk deb nomlanib, minglik (to'syacha) va yuzlik (sotni)larga bulingan. Drujina alohida harbiy tashqilot bo'lib, bo'ysundirilgan qabilalardan o'lpon yig'ishgan. Soliqlar asosan noyabr-aprel oralig'ida yig'ilgan. Qadimgi slavyanlarda ko'pxudolik ya'ni majusiylik dini bo'lgan.

Qadimgi rus davlati V asr oxirida Kiy boshchiligidagi qabilalar ittifoqi negizida tashqil topgan. Vizantiya va arab manbalaridan olingan ma'lumotlarga ko'ra VI asr oxiri-VII asrda volinliklar davlati bo'lgan. Qadimgi rus davlati vujudga kelishi arafasida slavyan qabilalarini uchta yirik birlashmasi bo'lgan. Ular yashagan hududlar Kuyaba-Kiyev atrofida; Slaviya-Ilmen qo'li atrofida, markazi Novgorod; va Artani - Ryazan, Chernigov hududiga to'g'ri keladi.

Norman nazariyasi. XII asr rus-yilnomasida yozilishicha aka-uka varyaglar - Ryurik, Sineus va Truvorlar Kiyev Rusi davlatiga asos solishgan. Bu afsonaga ko'ra 859-yilda novgorodliklar varyaglarni dengiz ortiga haydab yuborishadi va keyinchalik ularni davlatni boshqarishga chakirishgan. Ryurikning vafotidan keyin

Novgorod knyazi Oleg 882-yilda Novgorod va Kievni birlashtirgan. Shunday qilib Rus davlati - Kiyev Rusi vujudga kelgan.

Yilnomadagi bu hikoyadan XVIII asrda Rossiyada ishlash uchun taklif etilgan nemis olimlari G.F.Miller va G.Z.Bayer foydalanishib, rus xalqi o'z davlatini tashqil etmagan va boshqara olmagan, ular tomonidan shimoldan taklif qilingan varyaglar ya'ni normanlar rus davlatiga asos solib boshqarishgan deb rus xalqini kamsitib, norman nazariyasini yaratishgan. Rus olimlaridan M.V.Lomonosov bu nazariyaga qizg'in qarshi chikkan, bu nazariyaning asossizligini boshqa rus tarixchilari ham isbotlashgan.

Nazorat uchun savollar

1. Rossiya tarixining boshlanishiga oid dastlabki ma'lumotlarni qaysi manbadan olamiz?
2. Antik davr mualliflari slavyanlarni nqanday atashgan?
3. Rusda qabilalar ittifoqini kimlar boshqarishgan?
4. Rus davlati - Kiyev Rusi qachon tashqil topdi?
5. rus xalqi o'z davlatini tashqil etilishi haqidagi norman nazariyasi?

1.2. FEODAL TARQOQLIK DAVRIDA RUS DAVLATI.

Tayanch soʻz va iboralar: *Knyaz; boyar; drujina; votchina; smerd; rus haqiqati; udel davri; natural xoʻjalik; separatizm; Novgorod vechesi; xristianlik;*

Qadimgi rus davlati - ilk feodal monarxiyasi xisoblanadi. Buyuk Kiyev knyazi boshqaruv, sud, soliq va boj yigʻish ishlarini amalga oshirgan. IX-XII asr boshlaridagi ilk feodal monarxiyasi yaʼni Buyuk Kiyev knyazining katta va kichik drujinalari boʻlgan. Mahalliy (udel) knyazlar ham mahalliy drujinalar yordamida volostlarni boshqarishgan. 882-yilda Novgorod va Kievni knyaz Oleg birlashtiradi va poytaxt etib Kievni tanlaydi. 907 va 911-yillarda knyaz Oleg Konstantinopol (Sargrad)ga harbiy yurishlarni amalga oshiradi. Greklar bilan shartnoma tuzilib, ular slavyanlarga xiroj toʻlash majburiyatini olishadi. Knyaz Igor hukmronligi 912-945-yillarni oʻz ichiga olib, soliq toʻplash paytida drevlyanlar tomonidan Igor oʻldiriladi. Knyagina Olga erining oʻlimdan soʻng 945-957-yillarda hukmronlik qiladi. Igor va Olgani oʻgli Svyatoslav 957-yilda knyazlik taxtiga chiqib, u 972-yilda pecheneglarning pistirmasiga uchrab xalok boʻladi. Uning katta oʻgʻli Yaropolk 972-980-yillarda hukmronlik qilgach, Svyatoslavni uchinchi oʻgʻli Vladimir I (980-1015) knyazlik taxtiga chiqadi. U 988-yilda xristianlikni pravoslav maxzabini davlat dini sifatida qabul qiladi. Krimdagi Vizantiya mulklari markazi Xersones (Hozirgi Korsun)da Vladimir va uning drujinasi choʻqintiriladi (kreshenie). Yaroslav Mudriy (1019-1054) davrida Kiyev yuksaladi. Bu shaharda 400 ta cherkov va 8 ta bozor boʻlgan. Sofiya cherkovi qurilgan.

Yer-qishloq xoʻjaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi boʻlgan. Votchina - asosiy feodal yer egaligi turi boʻlib, ularga knyaz va boyarlar egalik qilib, otadan oʻgʻilga meros boʻlib oʻtgan. Dehqonlar dastlab smerd, zakup, xolop yoki chelyad deb atalgan. Shu bilan birga jamoachi dehqonlar knyazgaga oʻlpon toʻlashgan, turli majburiyatlarni bajarishgan, keyinchalik knyazlar tomonidan jamoa yerlari va oʻrmonlar egallanib olingach, smerdlar oʻz siyosiy huquqlarini yoʻqotishgan, smerdni oʻldirganlik yoki unga nisbatan zoʻrlik ishlatilganlik uchun toʻlanadigan

jarimani knyazlar, ya'ni smerdlarni xo'jayinlari olishgan, knyazlar xoxlashsa smerdlarni yerlari bilan boshqalarga hadya qilib yuborgan, shu tariqa qaram dehqonlarga aylantirilganlar. «Russkaya pravda» (Rus haqiqati)-yilnomasi - Yaroslav Mudriy (Donishmand) (1015-1054) davrining yuridik yodgorligi xisoblanib, aynan smerdlar haqida ham so'z yuritilib, agar smerdni o'g'li bo'lmasa u vafot etgach uni yer-mulki knyaz ixtiyoriga o'tishi ko'rsatilgan. Rus haqiqati – knyazlar va ularga qarashli shaxslarning mulkini qonuniy jihatdan himoya qilishga qaratilgan xujjat bo'lgan. Yaroslav Mudriy vafoti oldidan o'z davlati hududini 5 ta o'gli va jiyaniga bo'lib berishi bilan XI asrning II yarmi – XII asr boshlarida feodal tarqoqlikka o'tiladi. XII asr boshlaridan XV asr oxiriga qadar Rossiya tarixida udel davri ya'ni siyosiy tarqoqlik davri xisoblanadi. Vladimir Monomax (1113-1125) hukmronligi-yillari Kiyev knyazligi rus yerlarini birligini ushlab tura oldi. XII asrning o'rtalariga kelib Kiyev Rusi negizida 15 ta knyazlik tashqil topdi, XIII asr boshlarida esa 50 ta knyazlik, XIV asrda taxminan 250 ta knyazlik bo'lgan. Siyosiy tarqoqlik – rus davlatchiligini tashqil topishining yangi shakli bo'lgan. Knyazlar va boyarlar votchinalari dehqon jamoalari kabi davlatga soliq to'lashgan va ular natural harakterda bo'lgan. Natural xo'jalikning hukmronligi har bir regionga markazdan ajralib chiqib, alohida knyazlik sifatida faoliyat ko'rsatish imkonini bergan.

Mahalliy boyarlarning o'z knyazining kuchiga tayanib Kievdagi markaziy hokimyatga bo'ysunishni istamasligi feodal tarqoqlik jarayonida asosiy kuch boyarlar bo'lganligidan dalolat beradi. Knyazlarning hokimiyati zaif bo'lgan Novgorod va Pskovda boyar respublikalari o'rnatildi, boyarlar tayinlagan knyaz ularning roziligisiz biror xal qiluvchi qaror qabul qila olmagan. Boyarlarning separatchiligi yengilgan knyazliklarda monarxiya shaklidagi, ya'ni knyazning mutloq hokimiyati o'rnatilgan. Rus yerlarining shimoli-sharqiy hududlarida tashqil topgan Rostov-Suzdal knyazligi, keyinchalik Vladimir—Suzdal knyazligi deb nomlanib, Vladimir Monomaxning o'g'li Yuriy Dolgorukiy (1125-1157) hukmronligi davrida o'z mulklarini mustaxkamladi, uning davrida 1147-yilgi-yilnomada birinchi marta Moskva - aholi punkti sifatida tilga olingan. Uning o'g'li Andrey Bogolyubskiy (1157-1174) (u ko'p vaqtini Bogolyubovo qishlog'ida

qurilgan saroy-qarorgoxida o'tkazgan) va uning ukasi Vsevolod Bolshoe Gnezdo (Katta uya deb laqab berilishiga sabab uning farzandlari ko'p edi) (1176-1212) hukmronligi davrida Vladimiro-Suzdal knyazligi Rusdagi kuchli davlatga aylandi. Bu knyazlikning shimoli-g'arbiy tomonida Novgorod Boyarlar respublikasi hukmron edi. 1136-yilda boyarlar hokimyat uchun kurashda knyazni yengishadi. Umumshahar vechesida 300 nafar boyarlar muhim o'rin tutgan. Ular knyaz, posadnik (knyaz noibi), arxiepiskop, tisyatskiy (mingboshi ya'ni lashkarboshi) ni tayinlashgan. Rus yerlarining knyazlari Kievni o'z markaziga aylantirish, Buyuk Novgorodni bo'ysundirish uchun o'zaro kurash olib borganlar. 1236-yilda Suzdal knyazi Yaroslav Vsevolodovich Kiyev knyazi ham bo'ldi, uning o'g'li Aleksandr esa (keyinroq Nevskiy) Buyuk Novgorod knyazi bo'lib qoldi. Vladimir-Suzdal knyazligi erishgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi muvaffaqiyatlari uni Rus yerlarini birlashtiruvchi kuch sifatida ilgari surdi.

Rus tarixiga oid ko'plab moddiy va ayniqsa yozma yodgorliklar yong'inlar, bosqinlar, urushlar paytida yo'q qilingan. 1382-yilda To'xtamishxon Moskvada Kremlga o't qo'yishi natijasida u joyda saqlanayotgan-yilnomalar to'plamlari va boshqa yodgorliklar yo'q qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, xristianlikni qabul qilingunga qadar ham Rusda o'z alfavitiga ega bo'lishgan. Salonikilik aka-uka grek-missionerlar - Kirill va Mefodiylar slavyan harfida yozilgan Yevangelieni ko'rishganliklarini yozib qoldirishgan. Ular rus alfaviti (kirillika)ni yaratishgan. Cherkov va monastirlarda diniy bilimlar berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yozuv va o'qish, grammatika, ritorika ham kiritilgan. 1056-1057-yillarda Novgorod posadnigi Ostromir uchun «Ostromirovo Yevangelie»-yilnomasi pergament (teri)ga yozilgan. «O'tmish-yillar qissasi» XII asr boshlarida Kiev-Pechora monastiri monaxi Nestor tomonidan yozilgan.

XIII asr boshlarida 300 ta Rus shaharlarida 60 ixtisosdagi hunarmandlar bo'lgan, XII- XIII asrlarda arbalet va ularni yoylari yuzaga keldi. Hozirga qadar 150 ga yaqin arxitektura yodgorliklari saqlanib qolgan. Ibodatxonalarni -qurish prinsipi Vizantiyadan olingan, pishgan g'ishtdan qurilganlari Kievda, Smolensk, Chernigov, Novgorod, Ryazanda bo'lgan. Vladimir-Suzdal va Galitso-Volinda esa 50 kub sm

hajmdagi toshdan qurilgan ibodatxonalarni ichki qismi ikonalar bilan bezatilgan bo'lgan.

XIII asr boshlarida Baykal ko'li atrofida Mo'g'ul davlati tashqil topdi. 1206-yilda mo'g'ul qabilalarini doxiysi etib noyonlardan biri Temuchin Chingizxon (Buyuk xon) etib saylandi (1206-1227). Harbiy qo'shinni tuzilishi o'nlik, yuzlik, minglik, tuman (o'nminglik)lardan iborat bo'lgan. Qo'shinning asosini otliqlar tashqil etgan. Mo'g'ullar 1211-yilda qo'shni xalqlarni, 1215-yilda Pekinni, 1279-yilda Xitoyni batamom egallashdi. 1219-yildan O'rta Osiyoni egallashni boshladi, Xorazmshox qo'shinini tashlab Eronga qochdi, so'ngra Eron va Kavkaz orti egallandi, 1223-yil 31-mayda Kalka daryosi yonida mo'g'ullar ruslar va dashti qipchoq (polovets)larning birlashgan qo'shiniga zarba berdi.

Chingizxon Mo'g'ulistonga qaytgach, 1227-yilda vafot etganidan so'ng, uning nevarasi Botuxon (1227-1255) Rusga qarshi yurishga tayyorlandi. 1235-yilda yurish e'lon qilindi, 1236-yilda Volga bo'yi Bulg'orlari, 1237-yilda qipchoqlar yerlari, 1237-yil kuz oyida Ryazan knyazligi, 1238-yilda Vladimir-Suzdal knyazligi, 1239-yilda Pereyaslavl va Chernigov knyazligi, 1240-yilda Kiyev knyazligi, 1241-yilda Galitso-Volo'n knyazligi egallanib, mo'g'ullar Adriatika dengizigacha borishdi. 1242-yilda Qoraqurumdan Chingizxonni katta o'gli Ugideyni vafoti haqida xabar kelgach Botu ortga qaytdi.

Salibchilar asosan nemis ritsarlari bo'lib, shimoliy-g'arbiy rus yerlariga taxdid qilishadi. 1202-yilda qilichbardorlar ordeni tuziladi. 1237-yilda qilichbardorlar va Tevton ordenlari birlashib Livoniya ordeni tuziladi.

1240-yil 15-iyulda shvedlar qo'shini Novgorod knyazi Aleksandrning qo'shini tomonidan Neva daryosining irmog'i bo'lgan Ijora daryosi quyilishida tormor etildi, bu g'alaba sharafiga xalq uni «Nevskiy» deb atay boshladi. 1242-yil 05-aprelda Aleksandr Nevskiy Chud ko'li ustidagi Muz jangida nemis ritsarlarini tormor qildi.

Chingizxonni nevarasi Botuxon Oltin O'rda davlatiga asos soldi. Zodagonlar kengashi-devon deb atalgan. Mo'g'ullar turk tilini qabul qilishdi. Mahalliy aholi bilan aralashib tatar xalqi tashqil topdi. Bu davlat Ayniqsa O'zbek Xon (1312-1342)

davrida yuksaldi. 1312-yilda Oltin O'rda davlatida islom dini qabul qilindi. XIV asrda Oltin O'rdani O'rta Osiyodagi mulklari, 1438-yilda Qozon, 1443-yilda Qrim, XV asr o'rtalarida Astraxon, XV asr oxirida Sibir xonliklari ajralib chiqdi. Rus yerlari Oltin O'rdaga vassal bo'lib soliq to'lashgan. Oltin O'rda xonlarining knyazliklardagi vakillari bo'lgan noib-bosqoqlar knyazlarni faoliyatini nazorat qilishgan. 1257-yilda mo'g'ul-tatarlar rusda aholini ro'yxatga olishni o'tkazishdi. Mo'g'ullar bosqini va Oltin O'rda zulmining rus xalqi uchun oqibatlariga nazar solsak, mo'g'ullar bosqini rusning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini bir necha yuz yillarga ortga surib yubordi.

Shimoli-sharqiy Rusni ya'ni Zalese o'lkasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bu joylarga 13 asr oxirlaridan ko'plab dehqonlar va hunarmandlarning oilalari bilan ko'chib kelishlari, dehqonlarga 5-15 yil muddatga soliq tulaslik sharti bilan sharoitlarni yaratib berilishi, uch dalali g'alla ekishni joriy etilishi, yerni chuqur qilib shudgorlashni qo'llanishi, shuningdek, chorvachilik, bog'dorchilik, polizchilik, asalarichilik, baliqchilikni keng yo'lga qo'yilishi qishloq xo'jaligini o'sishiga olib keldi. Hunarmandchilik rivojlanib borgani sari shaharlar ham kengayib bordi, shaharlar aholisining asosiy qismini hunarmandlar tashqil etgan. Shaharlar hunarmandchilik va savdo-sotiq markazlari bo'lib qoldi.

XIII-XV asrlardagi Rus xalqining bosh vazifasi - Oltin O'rda zulmidan ozod bo'lish edi. Rus knyazliklari orasida Moskva knyazligini o'rni yuksala bordi. XIV asr boshlarida Moskva va Tver knyazliklari o'rtasida buyuk knyaz taxtiga egalik uchun kurash bordi. Ivan 1 Danilovich (Kalita) (1325-1340) davrida Moskva knyazlining hududlari kengayib bordi.

Moskva knyazi Dmitriy Donskoy (1359-1389) 1380-yil 08-sentabrda Nepryadva daryosini Donga quyilish joyidagi qo'likovo maydonida Oltin O'rda xoni Mamayning qo'shinini tor-mor qildi, xalq uni «Donskoy» deb atay boshladi. Oq O'rda xoni To'xtamish Oltin O'rda taxtini qulga kiritdi, uning qo'shini 1382-yilda Moskvani egalladi. 1395-yilda Amir Temur To'xtamish qo'shinini tor-mor qilib, Oltin O'rdani egallab, Moskva tomon yuradi, lekin Yeletsqacha borib, Moskva tomonga yurish qilmasdan ortga qaytadi.

1453-yilda Konstantinopol turklar tomonidan egallangach, Rus cherkovi Konstantinopol patriarxidan ajralib Rus pravoslav cherkoviga aylanib mustaqil boʻlib oldi.

Nazorat uchun savollar

1. Kiyev knyazi boshqaruv bilan birgalikda qanday ishlarini amalga oshirgan?
2. Kiyev knyazligida qishloq xoʻjaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi nima xisoblangan?
3. Rus haqiqati yilnomasining muallifi kim?
4. Rus alfavitining asochisi kim?
5. Shimoliy-gʻarbiy rus yerlariga taxdid qilishgan salbchilar kimlar edi?

1.3. MARKAZLASHGAN ROSSIYA DAVLATINING TASHQIL TOPISHI.

Tayanch so‘z va iboralar: Boyarlar dumas; Yuryev kuni; avtokefal; dyak; gub; pomeste; Peresvetov; dvoryan; Zemskiy sobor; strelets; oprichnina; zemhina; Ljedmitriy; Germogen; Minin; Pojarskiy; Filaret; Stolbovo; Deulino;

Rossiya davlatini tashqil topishini o‘ziga xos xususiyatlariga nazar solib, mo‘g‘ul-tatar bosqini va Oltin O‘rdaga vassallik rus yerlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini sekinlashtirganini ta’kidlash lozim. Rus yerlarini Moskva atrofiga birlashtirilishi va markazlashgan davlatni tashqil topishi jarayonini tugallanishi Ivan III Vasilevich (1462-1505) va Vasiliy III Ivanovich (1505-1533) davriga keladi. Ivan III davrida shimoliy –sharqiy rus yerlari, 1478-yilda Buyuk Novgorod -qo‘shib olindi. 1480-yildan Moskva knyazlari Oltin O‘rdaga o‘lpon to‘lashni to‘xtatdi. Vasiliy III 1510-yilda Pskovni, 1514-yilda Smolenskni, 1521-yilda Ryazanni Moskva atrofiga qo‘shib oldi. Qo‘shib olingan rus yerlarini knyazlari Moskva knyazini boyariga aylanishdi. Markaziy boshqaruv apparati yuzaga kela boshladi. Boyarlar dumas 5-12 kishidan iborat bo‘lgan, ular saroy (Dvorets) hududlarni boshqargan, xazina, moliya, davlat muxrlari (pechat)ni olib borgan. 1497-yilda Ivan III sudebnigi Rossiya davlati qonunlarini yangi to‘plami qabul qilindi. To‘plam 68 ta moddadan iborat bo‘lib, markaziy hokimiyatni o‘rnini kuchayishi davlat tuzulishi va mamlakatda sud ishlarini olib borilishida 57 chi modda dehqonni bir feodaldan boshqa feodalga o‘tishidagi huquqini cheklagan. Bu o‘tish har yili faqat Yuryev kuni (26 noyabr)dan bir hafta oldin va bir hafta keyin muddatda amalga oshirilgan, dehqon yashagan-yillari uchun ma’lum mikdordagi to‘lovni topshirgan. Rus yerlarini birlashtirilishida rus cherkovi muhim rol o‘ynadi. 1448-yilda Ryazan yepiskopi Ioann Mitropolit etib saylanishi bilan rus cherkovi mustaqil (avtokefal) bo‘lib qoldi. Cherkovni yer va dehqonlarga egalik huquqini Ivan III 1502-yildagi cherkov Soborida qo‘llagan.

Rossiya davlatining XVI asrda Ivan III ning nevarasi Ivan IV Grozniy (1533-1584) davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, territoriyasining kengayib borgan va aholisi sonini o'sib borganligini kuzatamiz. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida ham ijobiy siljishlar yuz berdi, shaharlar kengaydi, ichki va tashqi savdo rivojlandi. Ichki siyosatda Ivan IV davlatni markazlashtirish jarayonini kuchaytirish maqsadida birmuncha islohotlar o'tkazdi. 1535-yilda butun mamlakat uchun yagona pul tizimi yarim tangadan uch rublgacha zarb etila boshladi. Xazina prikazi mamlakatni butun moliya ishlarini olib bordi. Prikazlarda xizmat qiluvchilar ko'pincha kelib chiqishi dvoryanlardan bo'lgan prikaz kishilari – dyaklar ya'ni mirzalar deb atalgan. Dvoryanlar knyaz kishisidan davlat kishisiga aylanishdi. Ma'muriy hududlarni-okrug (gub)larni boshqarish uchun gub muassasalari tashqil etilib ularga podsho hokimiyati tomonidan dvoryanlar boshliq etib tayinlangan. Dvoryanlar va boyar bolalari olingan yer mulki (pomeste) uchun ulug' knyazga xizmat qilishlari lozim bo'lgan. Boyarlar boshqaruvi-yillari masalasiga kelsak, otasi vafot etgach Ivan IV uch yoshida taxt vorisi bo'ldi. Uni voyaga yetkuniga qadar mamlakatni podsho saroyida katta mavqega ega bo'lgan boyarlar guruhlar-Belskiy va Shuyskiylarning guruhlar o'zaro hokimyat talashib boshqarishdi. Boyarlardan norozi bo'lgan dvoryanlar, shaharliklar va cherkovga tayanib, 1547-yilda Ivan IV cherkov udumi bo'yicha podsholik unvonini oldi. 1547-yil iyun oyida Moskvada katta yong'in yuz berib ko'plab uy-joylar yonib ketdi, o'n minglab odamlar xalok bo'ldi, hokimyatni boshqarib turgan Glinskiylar guruhidan o'ch olish maqsadida boyar Shuyskiylar guruhi xalqni noroziligidan foydalanib qo'zgolon ko'tardi, lekin yosh podsho Ivan IV xalqni poytaxtga qaytardi, qo'zgolon bostirildi. Mamlakat ichida bo'lib o'tayotgan voqealar mamlakatni markazlashtirilgan boshqaruv tizimini takomillashtirilishini taqozo etardi. Shunday takliflardan biri, kuchli markazlashtirilgan davlat tarafdori bo'lgan Ivan Peresvetovning 1549-yildagi qayta qurishlar dasturi edi. Uning fikricha, podsho Rossiyaning dvoryanlarga tayanib boshqarishi lozim edi. Dvoryanlar esa doimiy qo'shnlarni tashqil etishi lozim edi. Podsho dvoryanlarga tayanib boyarlarni itoatda ushlashi, mamlakatni boshqarish ishlariga nasl-nasabiga qarab emas, balki qobiliyati, ko'rsatgan xizmati,

sodiqligiga qarab jalb etishi lozim edi. Bu g'oyalar keyinchalik Ivan IV ning XVI asrning ikkinchi yarimidagi hokimiyat va boshqaruv organlari tizimida o'tkazgan islohotlari uchun asos bo'ldi. Davlat tuzumi to'grisida so'z yuritilganda shuni ta'kidlash lozimki, 1547-1549-yillarda 32 kishilik Boyarlar Dumasining yarim tarkibi yangilandi. 1549-yilda toifalar kengashi bo'lgan Zemskiy sobor tashqil etildi. Uning tarkibida dvoryanlar va shaharliklarning yuqori tabaqa vakillari ko'p edi. Markaziy boshqarmaning elchilik, o'qchilik, ariza-shikoyat (taftish) kabi prikazlar tizimi tashqil etildi. Harbiy sohadagi qayta qurishlarda 1550-yilda erkin tarzda yollab olingan 3000 ta otliq bo'lmagan kishilardan pilta miltiqchilarni to'plab, ularga streletslar (o'q otuvchilar) deb nom berildi, ular podsho shaxsiy qo'riqchi qo'shinini tashqil etdi. Xazinadan ularga o'q otar miktiqlar va nayzalar berildi. Ular doimiy maosh bilan ta'minlandi.

Xazinani doimiy to'ldirib turish uchun ko'proq mablag' topish maqsadida soliq tizimida ham islohotlar o'tkazildi. Yer solig'ini birligi omoch solig'i deb belgilanib, yerning sifati va soliq to'lovchining qaysi toifadanligiga e'tibor berilgan. Asosan dehqonlar va shahar aholisining quyi tabaqasi zimmasiga omoch pulidan tashqari, pilta miltiq puli, asirlar puli soliqlari tushgan. 50-yillar boshlarida butun mamlakat uchun yagona o'lchov tizimi belgilandi.

Ivan IV 1564-yildan oprichnina tashqil etishini bildirdi. Bu so'z boshqa, alohida degan so'zidan olingan bo'lib, alohida meros mulk degan ma'noni anglatardi. Davlat oprichnina va zemhinadan iborat ikki qismga bo'lindi. Oprichninaga asosan boyarlar votchinalarining ko'p qismi joylashgan markazdagi va mamlakat janubidagi yerlar kiritildi. Markazlashtirishning dushmani bo'lgan knyazlar va boyarlar bu yerlardan haydaldi, mulklari esa Pomeshiklar ga, oprichninadagi harbiy xizmat egalariga bo'lib berildi. Haydalgan boyarlarga zemhinadan yer berildi. Xoinlikda ayblanganlarning mulki tortib olindi. Moskvaning orqa viloyatidagi pomeshik mulklari safiga Moskva yaqinidan pomeste olgan minglab harbiy xizmat egalari qo'shildi.

1584-yil 18-mart kuni Ivan Grozniy shaxmat o'ynayotib to'satdan vafot etdi. Ivan IV Grozniy o'zini tutqanog'i tutgan paytida, 1581-yilda katta o'g'li Ivanni

xassasi bilan qo'rqisdan urib o'ldirgan edi. Kenja o'g'li Dmitriy 2 yoshda bo'lib, u o'z onasi, Grozniyning yettinchi xotini Mariya bilan Uglich knyazligida yashayotgan edi. Shu sababdan Grozniyni o'rniga 27 yoshli o'g'li Fedor Ioanovich (1584-1598) taxtga o'tirdi. Amalda davlatni Boris Godunov boshchiligidagi regentlar kengashi boshqardi. 1591-yilda Uglichda noma'lum sabablarga ko'ra taxt vorisi shaxzoda Dmitriy xalok bo'ladi, xalq orasida uning o'limida Godunovni qo'li borligida gumonlashadi, lekin hozirgacha biror dalil aniqlangan emas. 1598-yilda Fyodor Ioanovich vafot etdi, uni farzandi bo'lmagani tufayli eski sulola barham topadi. Zemskiy soborda Boris Godunov yangi podsho etib saylandi (1598-1605). Uning davrida mamlakat xo'jaligi vayrona holatga kelib, 1601-1602-yillarda qatorasiga ikki yil mobaynida mamlakatda yuz bergan ob-havo o'zgarishlari tufayli kelib chiqqan xosilsizliklar oqibatida ocharchilik kelib chiqib, bug'doyning narxi yuz baravargacha ko'tarildi, odamlar itlarni, mushuklarni, daraxtlarni ildizlarigacha yeb tugatishdi, ommaviy epidemiya boshlandi. Bularni barchasiga Godunovni aybdor deb xisoblashdi. Mamlakat markazida Xlopka Kosolap boshchiligidagi xoloplarning qo'zg'oloni (1603-1604) bo'lib o'tdi, qo'zg'olon bostirildi, Xlopka esa Moskvada qatl qilindi.

Xalq orasida shaxzoda Dmitriy xalok bo'lmagan, balki uni almashtirib qo'yishgan degan mish-mish tarqaladi. Bundan foydalangan Ljedmitriy I 1602-yilda polyak va litva magnatlariga o'zini shaxzoda Dmitriy deb tanishtiradi, agar Moskva knyazligi taxtini egallasa ularga Rusning Chernigov, Smolensk, Novgorod va Pskov yerlarini berishga va'da berib, harbiy kuchlar bilan yordam so'raydi. 1604-yilda u Moskva tomon yuradi. Godunov siyosatidan norozi bo'lgan qochoq dehqonlar va kazaklar Ljedmitriy 1 ni qullashadi. 1605-yil 13-aprel kuni Godunov to'satdan vafot etdi. Bundan foydalangan Ljedmitriy 1 1605-yil 20-iyunda Moskvaga kiradi va podsho deb e'lon qilindi. Boyar Vasiliy Shuyskiy boshchiligidagi Moskva xalqi Ljedmitriy 1 ga qarshi qo'zg'olon ko'tiradi va 1606-yil may oyida Ljedmitriy 1 o'ldirildi.

Shundan so'ng boyarlardan Vasiliy Shuyskiy (1606-1610) podsho etib saylandi. U boyarlarni imtiyozlarini saqlab qolishga, ulardan votchinalarni tortib

olmaslikka va Boyarlar Dumasining ishtirokisiz boyarlarni sud qilmaslikka yozma tarzda majburiyat oldi.

Ivan Isaevich Bolotnikov boshchiligida 1606-yilda bo'lib o'tgan qo'zg'olonda dehqonlar, xoloplar, posad aholisi, kazaklar, dvoryanlar ishtirok etdi. Kazaklar va dehqonlar, dehqon jamoalari tartiblarini qayta tiklashni talab kilganlar. Bolotnikov qo'shini 1606-yil oktabr-noyabr oylarida ikki oy davomida Moskvani qamal qilishdi, faqat dvoryan otryadlarini xoinlik qilib Vasiliy Shuyskiy tomonga o'tib ketishi Bolotnikov armiyasini tor-mor etilishiga olib keldi. V.Shuyskiy boyar va dvoryanlarning qo'llab-quvvatlashlariga erishish maqsadida 1607-yil martida qochoq dehqonlarni qidiruv muddatini 15 yil etib qonun chiqardi. Shuyskiy qo'shinlari Bolotnikov boshchiligidagi qo'zg'olonchilarni Tulada uch oy qamal qilib, ularni hayotini saqlashga so'z berib shahar eshigini ochirib, qo'zg'olon qatnashchilaridan shafqatsiz o'ch oldi, Bolotnikovni ko'zi avval ko'r qilinib, so'ngra suvga cho'ktirildi. 1607-yilda Bryansk hududlarida polyak shlyaxtichlarini qo'llab-quvvatlashi bilan Ljedmitriy II (1607-1610) o'zini rus taxtini da'vogari deb e'lon qildi. U 1608-yil yanvarda Moskva tomonga yurish qilib, yozda uning o'rinishi muvaffakiyatsiz tugadi. U Kremldan 17 km uzoqdagi Tushino degan joyda turib, 21 oy mobaynida Moskvani qamal qilib turdi, V.Shuyskiyga qarshi bo'lgan boyarlar guruhi Ljedmitriy 11 ni qo'llashdi. Polyak shlyaxtichlari tomonidan Ljedmitriy 11 Kalugada o'ldirildi. Tushino guruhidagi boyarlar 1610-yilning boshlarida Moskva taxtiga polyak qirolini o'g'li Vladislavni taklif etishdi. 1610-yil aprelida noma'lum holatlarda rus qo'shinining iste'dodli qumondoni M.V.Skopin-Shuyskiy to'satdan vafot etdi, mish-mishlarga ko'ra u zaharlab o'ldirilgan. 1610-yil iyunida polyak qo'shinlari podshoning no'noq ukasi Dmitriy Shuyskiy boshchiligidagi rus qushinlarini tor-mor etib, Moskva tomonga yurdi.

1610-yil yozida Moskvada to'ntarish bo'lib o'tdi, P.Lyapunov boshchiligidagi boyarlar Vasiliy Shuyskiyni taxtdan ag'darib, sochini qirdirib monaxlikka monastirga jo'natishdi. V.F. Mstislavskiy boshchiligidagi bir guruh boyarlar hokimyatni qo'lga olishdi. Yetti boyardan iborat hukumat yetti boyar boshqaruvi deb nom oldi.

1610-yil avgustida bu hukumat patriarx Germogenning noroziligiga qaramasdan polyak qiroli Sigizmundning o'g'li Vladislavni qo'shini bilan Moskvaga kiritdi va uni rus taxtiga o'tqazdi. 1610-yil 27-avgustda Moskva Vladislavga qasamyod qildi. Bu esa ochiqdan-ochiq milliy manfaatlarni sotish edi. Mamlakat mustaqilligini yo'qotish xavfi ostida qolgan edi.

1610-yilda patriarx Germogen bosqinchilarga qarshi kurashga chaqirgani uchun qamoqqa olindi. 1611-yil boshlarida Ryazan yerlarida dvoryan P.Lyapunov boshchiligidagi birinchi xalq lashkari tuzildi. Lashkarga 1611-yil baxorida qo'zg'olon ko'tarilgan Moskvaga yo'l oldi. Interventlar sotqin-boyarlarning maslaxati bilan shaharga o't qo'yishdi. Moskva ostonalarida knyaz D.M.Pojarskiy og'ir yarador bo'ldi.

Lekin lashkarning rahbarlari qochoq dehqonlarga o'z egalarini mulklariga qaytib borishni buyurishdi. Lashkarni harbiy tashqilotini tartibga solishga intilgan P.Lyapunovning dushmanlari, u guyo kazaklarni qirib yubormokchi ekanligi haqida mish-mish tarqatishib, kazaklarni unga qarshi gij-gijlashdi, natijada 1611-yil iyulida kazaklar uni o'ldirishdi. Birinchi xalq lashkari tarqab ketdi. Bu paytga kelib shvedlar Novgorodni bosib olishdi, polyaklar esa Smolenskni egallashdi. Polyak qiroli Sigizmund 111 o'zi rus podshosi bo'lishini, Rossiya esa Rech Pospolitiy tarkibiga qo'shib olinishini e'lon qildi.

1611-yil kuzida Nijniy Novgoroda posad starostasi Kozma Minin rus xalqiga ikkinchi xalq lashkarini tuzish haqida murojaat qildi. Bu lashkarga Kozma Minin va knyaz Dmitriy Pojarskiylar boshchilik qildi. 1612-yil baxorida xalq lashkari Yaroslavl tomondan Moskvaga yaqinlashdi va birinchi lashkarning qolgan qismi bilan birlashdi. 1612-yil oktabr oyini oxirlarida xalq lashkari tomonidan Moskva Kremli egallandi, polyak interventlari rus yerlaridan quvib chiqarildi. Keyinchalik, 1818-yilda haykaltarosh I.P.Martos tomonidan Kreml maydonida Minin va Pojarskiyga haykal o'rnatildi.

1613-yil boshlarida Moskvada Zemskiy Soborning yig'ilishi bo'lib o'tib, unda yangi rus podshosini saylash masalasi ko'rildi. 21-fevral kuni sobor Ivan Grozniyning birinchi xotini Anastasiya Romanovanning 16-yoshli nevara jiyani

Mixail Fyodorovich Romanovni nomzodini ma'kulladi va 11-iyul kuni unga podsholik toji kiydirildi. Uning otasi patriarx Filaret tez orada mamlakatni boshqarishda muhim o'rin egalladi. Hokimyat mutlaq monarxiya shaklida tiklandi.

Shvedlar xavfini bartaraf etish uchun bir necha to'qnashuvlardan keyin muzokaralar olib borildi va 1617-yildagi Tixvin yaqinidagi Stolbovo qishlog'ida tuzilgan Stolbovo sulxiga ko'ra shvedlar Novgorod yerlarini ruslarga qaytarib berdi, lekin Boltiq dengizi sohillari shvedlar qulida qoldi.

Polsha shaxzodasi Vladislav rus taxtini egallamokchi bo'lib 1617-1618-yillarda Moskvaga yurish qildi, lekin uloqtirib tashlandi. Troitse-Sergiyev monastiri yaqinidagi Deulino qishlog'ida Rech Pospolitiya bilan sulx tuzildi, unga ko'ra Smolensk va Chernigov yerlari polyaklar qo'lida qoldi. Shu bilan g'alayonlar davri yakunlandi.

Nazorat uchun savollar

1. Rus yerlarini Moskva atrofiga birlashtirilishi va markazlashgan davlatni tashqil topishi jarayonini tugallanishi kimning hukumronligi davriga to'g'ri keladi?
2. Kimning hukumronligi davrida yagona pul tizimi joriy qilinadi?
3. XVI asrda Rus davlati boshqaruvi qanday tartibda edi?
4. Polyak va litva magnatlariga o'zini shaxzoda Dmitriy deb tanishtirgan kim?
5. XVII asrning birinchi choragida g'alayonlar davrining o'z nixoyasiga yetishiga sabab bo'lgan voqelik qaysi?

II BO'LIM. YANGI DAVRDA BUYK RUS DAVLATI

2.1. ROSSIYA DAVLATINING XVII ASRDAGI TARAQQIYOTI

Tayanch so'z va iboralar: Uezd; volost; stanitsa; manufaktura; Irbit; Makarevsk; «Tuz qo'zg'oloni»; Sobor qonunlari; Zaporozhe sechesi; Bogdan Xmelnitskiy; Rech Pospolitiya; Kadis; Andrusov; Mis qo'zg'oloni; Vasiliy Us; Stepan Razin; Patriarx Nikon; staroobryad; xronograf; azbuka;

Rossiyaning g'alayonlar davridan keyingi XVII asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga nazar solib, uning territoriyasi Sibir, Janubiy Ural bo'yi va So'lqanot Ukrainani qo'shib olinishi xisobiga kengaydi. 1648-yilda S.Dejnyov Alyaska va Chukotka o'rtasidagi bo'g'ozni ochdi. XVII asrda Yeniseysk (1618), Krasnoyarsk (1628), Bratsk (1631), Yakutsk (1632), Irkutsk (1652) kabi Sibir shaharlariga asos solindi. Mamlakatda 250 ta uezdlar mavjud bo'lgan, ular esa o'z navbatida volost va stanitsalarga bo'linib, ularning markazlari esa qishloqlar bo'lgan.

XVII asr oxirlarida Rossiyaning aholisi 10,5 mln kishini tashqil qilgan. Rossiyaning Sibir qismida aholi ancha kam bo'lib, 150 ming tub aholisi va 350 ming ko'chib kelgan aholisi bo'lgan.

Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining ilg'or sohasi bo'lib qolaverdi. Asosiy mehnat qurollari plug, borona, chalg'i, soha bo'lib, uch dalali ekin ekish ustunlik qilgan. Bug'doy, arpa, tariq, suli, nuxat ekilgan. Xo'jalik hamon natural karakterda bo'lgan. Bunday sharoitlarda yangi yer maydonlarini jalb etish xisobiga ishlab chiqarish hajmining o'sishiga erishilgan.

Krepostnoylik munosabatlarining mustaxkamlanishida dvoryan yer egaligining kengayib borishi muhim rol o'ynadi. Davlat dehqonlarni ularning egalariga yanada bog'lab qo'yish yulidan bordi. Qochoq dehqonlarni qidirib topish muddati 15-yilgacha uzaytirildi. 1649-yildagi Sobor qonunlari krepostnoy huquqni yuridik jihatdan rasmiylashtirilishini yakunladi. Ilgarigi vaqtga nisbatan yangi holat-bu xo'jalikni bozor bilan aloqasini kuchayib borishi bo'ldi. Dvoryanlar, boyarlar va

ayniqsa monastirlar savdo operatsiyalariga faol kirisha boshladi. Bug‘doy, tuz, baliq bilan savdo qilish, sotish uchun vino, teri, oxak, smola, hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarish bir qator votchinalarda oddiy xolga aylandi.

Hunarmandchilikda ayrim buyurtmachi uchun maxsulot ishlab chiqarishdan mayda tovar ishlab chiqarishga o‘tilishi kuzatildi. Tabiiy-geografik sharoitlardan kelib chiqib, hunarmandchilik ishlab chiqarishi rayonlari yuzaga keldi. Nijniy Novgorod yogochdan buyumlar ishlab chiqarishga, Velikiy Ustyug, Moskva, Novgorod, Tixvinda zargarlik buyumlari, Novgorod-Pskov yerlari, Moskva, Yaroslavl tuqimachilik buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashdi.

Mayda tovar ishlab chiqarishining rivojlanishi manufakturalarning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘ldi. Manufaktura – mehnat taqsimotiga va qo‘l mehnatiga asoslangan yirik korxona bo‘lgan. Metallurgiya zavodlari Uralda va Tula rayonida qurilgan. 1631-yilda Uralda qurilgan Nitsin mis quyish zavodi birinchi xususiy manufaktura xisoblanadi.

Savdo va butunrossiya bozorining shakllana boshlashi masalasiga kelsak, mamlakat hayotida savdogarlarning roli va ahamiyati o‘sib bordi. Muntazam faoliyat kvrsatadigan yarmarkalar katta ahamiyatga ega bo‘ldi: Nijniy Novgorod yaqinidagi Makarevsk, Bryansk rayonida Svensk, Sibirda Irbit, Arxangelskdagi yarmarkalarda savdogarlar o‘sha davr uchun yirik bo‘lgan ulgurji va ko‘tarasiga (optoviy i roznichniy) savdolari olib borishgan.

Rossiya jamiyatining ijtimoiy tuzilishi masalasiga kelsak, bunda boyarlar oliy toifani, dvoryanlar yuqori toifani, quyi toifani krepostnoy dehqonlar tashqil etgan. Shuningdek o‘rta toifaga shahar aholisini tashqil etgan savdogarlar va hunarmandlar kirgan. Ruxoniylar va erkin kazaklar ham alohida toifani tashqil etgan.

Rossiyaning ichki va tashqi siyosati haqida so‘z borganda shuni ta’kidlash lozimki, podsho Mixail Fyodorovich (1613-1645)ni 1632-1634-yillarda Smolensk uchun Polsha bilan olib borgan urusht natijasiz tugadi. Aleksey Mihaylovich (1645-1676) taxtga chiqqach, 1646-yilda tuzning narxi 4 baravarga oshdi, tuz bilan savdodan olinadigan soliqni oshirilishi ahvolni yaxshilamadi va xazinani to‘ldirmadi. 1648-yilda Moskvada «Tuz qo‘zg‘oloni» bo‘lib o‘tib xalq podsho

ma'muriyatini ayrim poraxo'r vakillarini jazolashni talab qildi, talab qanoatlantirilmagach, savdogar va boyarlarni uylarini vayron qilishdi. Podsho Moskva hukumati boshlig'i boyar B.I.Morozovni Moskvadan chiqarib yubordi, streletlar kuchi bilan qo'zg'olon bostirildi.

1648-1649-yillarda Zemskiy soborning yig'ilishlari bo'lib o'tib, podsho Aleksey Mihaylovichni Sobor qonunlari qabul qilindi. Zemskiy Soborda 340 kishi qatnashgan. Sobornoe Ulojenie 25 bob va 1000 ga yaqin moddalardan iborat bo'lgan. Qonunlar to'plami 2000 nusxada chop etilgan. 1832-yilgacha amal qilgan. Dastlabki uchta bo'limda cherkov va podsho hokimiyatiga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari yoritilgan. Qonunda shuningdek turli xizmatlarni o'tash tartibi, asirlarni sotib olish, bojxona siyosati masalalari batafsil bayon qilingan. Davlatda aholining turli tabaqalarining tutgan o'rni, dehqonlarni sud qilish tartiblari ham alohida bo'limlarda yoritilgan.

Tashqi siyosatdagi vazifalariga kelsak, Rossiya XVII asr o'rtalariga kelib iqtisodini tiklab, o'z e'tiborini tashqi siyosat masalalarini xalq etishga qaratdi. Shimoli-g'arbdagi birinchi galdagi vazifa Boltiq dengiziga chiqish joylarini qaytarib olish edi. G'arbda esa g'alayonlar davrida qo'ldan boy berilgan Smolensk, Chernigov va Novgorod-Seversk yerlarini qaytarib olish zarur edi. Janubda qudratli Turkiyaning vassali bo'lgan Qrim xonining doimiy hujumlarini qaytarishga to'g'ri kelgan. Qrimliklar faqat XVII asrning birinchi yarmi davomida 150-200 ming kishini asir olib, qul qilib sotib yuborishgan.

Ukraina va Rossiyani 1648-1654-yillardagi ukrain xalqining ozodlik kurashi arafasida masalasiga kelsak, 1569-yilgi Lyublin uniyasiga binoan Polsha bilan Litva yagona davlat – Rech Pospolitiyaga birlashdi, uning tarkibiga shuningdek Belorussiya va Ukrainaning katta qismi kiritildi. Ukraina va Belorussiyaning aholisi uch tomonlama: krepostnoy, milliy va diniy zulmni boshidan kechirardi.

Zaporoje sechesi XVII asrning 40-50-yillarida chet el bosqinchilariga qarshi kurashi markaziga aylandi. Uning yadrosi Xortitsa oroli (hozirgi paytda Zaporoje shahrini bir qismi) bo'ldi. Rech Pospolitiya kazaklarni o'z tomoniga jalb qilmoqchi bo'lib, ularni polsha qiroli xizmatida turgan deb xisoblab maosh ajratdi, belgilangan

tartibga ko'ra Zaporozhe qo'shiniga getman boshchilik qilgan. 1648-yilda Bogdan Xmelnitskiy Zaporozhe Sechesiga getman etib saylandi. Bogdan Xmelnitskiy (1595-1657) polyak, lotin va turk tillarini bilgan. Boshqa ukrain aholisi singari B.Xmelnitskiy polyak shlyaxtichlarini zulmini boshidan kechirdi. Polyak shlyaxtichi Chaplinskiy uning qishlog'iga hujum qilib, uyini yoqib, 10 yoshli o'g'lini qattiq kaltaklab, xotinini olib ketadi. 1647-yilda B.Xmelnitskiy polsha hukumatiga qarshi chiqadi.

U Rech Pospolitiyaga qarshi kurash katta kuchni talab qilishini tushunib Rossiyaga tayanmokchi bo'ldi, biroq bu paytda Rossiya kuchli Rech Pospolitiyaga qarshi urushgani xali yetarli darajada kuchli emasdi, shuningdek, Rossiyada shahar g'alayonlari davom etardi, shuning uchun Rossiya Ukrainaga iqtisodiy va diplomatik ko'mak berish bilan cheklandi. B.Xmelnitskiy janubdan bo'lgan xavfni oldini olish maqsadida Qrim xoni Mengli-Gireyni o'ziga ittifoqchi qildi.

1648-yilning baxor-yozida B.Xmelnitskiyning qo'shinlari polyaklarga ikki marta qattiq zarba berib, dekabrda Kievga tantanali kirib borishdi. Rech Pospolitiya o'z shlyaxtasi (dvoryanlari)ni umumiy safarbarligini e'lon qilib qo'shin to'plab, B.Xmelnitskiy qo'shiniga qarshi bordi. Karpat tog'lari yaqinidagi Zborovo degan joyda ukrainlar polyak qo'shinini tor-mor qildi, faqat Qrim xonining xoinligi tufayligini polyaklar to'la xaloqatdan qutulib qolishdi. Zborovo sulxini tuzishga majbur bo'lgan Rech Pospolitiya B.Xmelnitskiyni Ukraina getmani deb tan oldi. Kiyev, Chernigov va Bratslav voevodaliklarida uning muxtoriyat boshqaruvini tan olishdi. Getmanning polyak hukumatidan maosh oladigan reestr qo'shini 40 ming kishini tashqil etdi. Uchala voevodadagi yuqori lavozimlarga faqat pravoslav maxzabidagi shaxslar tayinlangan. Kiyev mitropoliti Rech Pospolitiya seymi yig'ilishida qatnashadigan bo'ldi. Biroq polshalik pomeshiklar o'z yerlariga qaytib kelish huquqini olishdi.

Zborovo sulxi vaktinchalik kelishuv bo'lib, 1650-yilda harbiy harakatlar yana boshlandi. 1651-yil yozida polyak magnatlarini katta qo'shini Volindagi Stir daryosi bo'yidagi Berestechka degan joyda B.Xmelnitskiy qo'shini bilan yana to'qnashdi. Polyaklar yana Qrim xonini sotib olishdi, shu tufayli u o'z qo'shinini olib ketdi va

xonni ko'ndirishga o'ringan B.Xmelnitskiyni ushlab turdi, bundan foydalangan polyaklar qumondonsiz qldgan ukrain qo'shinini tor-tor etishdi. B.Xmelnitskiy Belotserkov degan joyda sulx tuzishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra B.Xmelnitskiyning qo'lida faqat Kiyev voevodaligi qoldi. Qo'shinlar reestri 20 mingtaga kamaydi. Bu sulxdan ukrain xalqini noroziligi kuchayib bordi. Urush yana boshlandi. 1652-yil baxorida Janubiy Bug daryosi bo'yidagi Batog yonida B.Xmelnitskiy qo'shini polyak armiyasini tor-mor qildi. Biroq Ukrainani polyaklar zulmi ostidan to'la ozod bo'lishi uchun Rossiyaning yordami zarur edi. 1653-yilda Zemskiy sobor getmanga yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qildi.

1653-yil 1-oktabrda Polshaga qarshi urush e'lon qilindi. Ukrainaga boyar Buturlin boshchiligida elchilar jo'natildi. 1654-yil 8-yanvarda Pereyaslavl shaharida Rada ya'ni Kengash bo'lib o'tdi. Ukraina Rossiya davlati tarkibiga qabul qilindi. Ozodlik kurashi davomida yuzaga kelgan mahalliy hokimyat idoralari tan olindi. Podsho hukumati ukrain dvoryanlarining toifaviy huquqlarini tan oldi. Ukraina kelgusida Polsha va Turkiyadan tashqari boshqa barcha mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish huquqiga ega bo'ldi. Reestr qo'shinlarining soni 60 ming kishiga yetkazildi. Soliqlar endilikda podsho xazinasiga to'lanadigan bo'ldi.

Rech Pospolitiya Ukrainani Rossiyaga qo'shib olinishini tan olmadi. 1654-yilda polsha bilan yana urush harakatlari boshlandi. Urushda rus va ukrain qo'shinlari g'alaba qozondi. Rus qo'shinlari Smolensk, Belorussiya, Litvani; B.Xmelnitskiy qo'shinlari esa – Lyublin, Galitsiya va Volindagi bir qator shaharlarni egalladi. Polshaning muvaffaqiyatsizliklaridan foydalanib, Shvetsiya Varshava va Krakovni bosib oldi. Podsho hukumati Polsha bilan sulx tuzib, 1656-yilda Shvetsiyaga urush e'lon qildi. Rus qo'shinlari Dinaburg (Daugavpils), Derpt (Tartu)ni egallab, Rigani qamal qildi. 1657-yilda Glov yonida shvedlarni mag'lubiyatga uchratishdi. 1657-yilda vafot etgan B.Xmelnitskiyni o'rnini egallagan ukrain getmani I.Vigovskiyni xoinlik qilib Polsha bilan yashirin ittifoq tuzishi Rossiyaning barcha muvaffaqiyatlarini chippakka chiqardi.

1658-yilda uch-yil muddatga rus-shved kelishuviga erishildi, 1661-yilda Tartu yaqinida Kadis sulxi tuzildi. Rossiya urush paytida egallagan hududlarini shvedlarga qaytarib berdi, Boltiq dengizi Shvetsiya qo‘lida qoldi. Boltiq dengiziga chiqish muammosi hamon tashqi siyosatdagi muhim vazifa bo‘lib qoldi.

1659-yilda Konotop yonida getman I.Vigovskiy Polsha va Qrim bilan ittifoqchilikda rus qo‘shinlarini yengdi. Uzoq davom etgan rus-polsha urushi 1667-yilda Smolensk yaqinidagi Andrusov degan joyda sulx tuzilishi bilan yakunlandi. Rossiya Belorussiyadan voz kechdi, lekin Smolensk va so‘lqanot Ukrainani o‘zida qoldirdi. Dneprni o‘ng qirg‘og‘idagi Kiyev Rossiyaga ikki-yil muddatga berildi, lekin keyinchalik Rossiyani qo‘lida qolib ketdi. Zaporozhe esa Polsha bilan Ukrainani birgalikdagi nazoratiga o‘tdi.

Xonavayron etuvchi urushlar xazinani bo‘shatib qo‘ygandi. 1654-1655-yillarda mamlakatda tarqalgan yuqumli kasallik o‘n minglab odamlarni hayotdan olib ketib mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Rus hukumati og‘ir moliyaviy ahvoldan chiqish uchun 1654-yildan kumush tanga o‘rniga mis tangalarni muomalaga chiqardi. Sakkiz-yil mobaynida mis pullar shunchalik ko‘p chiqarildiki (qalbakilari ham ko‘paygandi) natijada pul o‘ta qadrsizlandi. 1662-yil yozida bir kumush rublga sakkiz mis rubl berilgan. Hukumat soliqni kumush orqali yig‘ardi, aholi esa maxsulotlarni mis pulga sotib olardi va sotardi. Maoshni ham mis pul bilan to‘lashardi. Bunday sharoitda yuzaga kelgan qiymatchilik oqibatda ocharchilikka olib keldi. Noiloj ahvolda qolgan Moskva aholisi qo‘zg‘olon ko‘tardi. 1662-yil yozida qo‘zg‘olonchilar podsho Aleksey Mihaylovichning Kolomensk qishlog‘idagi qarorgoxi-rezidensiyasiga borishib, o‘ta ochko‘z, xalq nafratlanadigan boyarlarni o‘ch olish uchun berilishini talab qilishdi. Podsho muzokaralar paytida yashirin tarzda boyar I.N.Xovanskiyni hukumatga sodiq strelets polklarini chaqirib kelishga yubordi. Polk askarlari rezidensiyani orqa tomonidagi xo‘jalik darvozalari orqali yashirin ravishda qarorgoxga kirishib, qo‘zg‘olonchilarni 7000 dan ko‘pini qirib tashlashdi. Lekin hukumat aholini tinchlantirish uchun choralar ko‘rib, mis pullarni o‘rniga yana kumush pullarni muomalaga chiqara boshladi.

Qochoq dehqonlarning boradigan joyi Rossiyaning janubi, Don atroflari bo'lgan. Rossiyaning janubini himoya qilish bilan birga Don kazaklari Qrim va Turkiyaga qarshi hujumlar uyushtirib boy o'ljalar bilan qaytardilar. Kaspiy bo'yilariga ham hujumlar uyushtirganlar.

1666-yilda ataman Vasiliy Us boshchiligidagi 500 kishilik otryad Dondan Voronej orqali Tula tomonga yurish qildi. Kazaklar harbiy xizmati evaziga maosh olishga erishish va Rossiyani Polsha bilan urushida hukumatga o'z xizmatlarini taklif etish uchun Moskva tomonga yurishdi. Yo'lda ularga aholini bir qismi qo'shib ularni soni 3000 kishiga yetgan. Hukumat muntazam qo'shinlar ko'magida V.Usni Donga qaytarishga erishdi. Bu yurish ishtirokchilarining ko'plari keyinchalik Stepan Razin armiyasiga qo'shilishgan.

Stepan Timofeyevich Razin boshchiligidagi qo'zg'olon 1667-yil baxorida Volga tomonga yurishdan boshlangan. Bu yurish hukumatga qarshi harakterda bo'lib, unda krepostnoy dehqonlar, kazaklar, burlaklar (daryo bo'yida kemalarni sudrovchilar), ruslar, ukrainlar, chuvashlar, mariylar, tatarlar, mordvalar va boshqalar ishtirok etgan. S.Razin xalqni boyarlar va dvoryanlar zulmidan ozod qilishga va'da bergan. Qo'zg'olonchilarning ko'pchiligi adolatli podshoga ishonardi. Saratov va Samara jangsiz qo'zg'olonchilarga taslim bo'ldi, qo'zg'olonchilar qarshilik ko'rsatganlarni shafqatsiz jazolaganlar. Simbirsk qamali uzoqqa chuzildi.

1670-yil kuzida podsho Aleksey Mihaylovich 30 ming kishilik armiyani qo'zg'olonni bostirishga jo'natdi. Oktabr oyida Simbirsk qamali olindi, S.Razinning 20 ming kishilik armiyasi tor-mor etildi. Boy kazaklar og'ir yarador S.Razinni hukumatga tutib berishdi. 1671-yil yozida S.Razin Moskvada Kreml maydonida qatl qilindi. Shundan so'ng Don kazaklari ham podshoga sodiqlikka qasamyod qildirildi. Kazaklar ko'proq bug'doy yetishtirishga e'tibor qarata boshladilar.

Pravoslav ruxoniylar o'rtasida tartib-intizomni va axloqiy negizni mustaxkamlash maqsadida cherkov islohotlari o'tkazish zarurati tug'ildi. Bu ishni 1652-yilda Moskva patriarxi etib saylangan Nikon amalga oshirishga o'rindi. Grek qoidalari va udumlariga asoslangan cherkov xizmatini yagona tartibda amalga

oshirilishi belgilandi. Natijada rus pravoslav cherkovida ajralish yuz berdi. Eski udum tarafdorlari-starobryadniki deb atalib ular islohotlarni tan olishmadi. Ularga protopop Avvakum boshchilik qildi. Bu kelishmovchiliklar shuningdek, diniy kitoblarni grek yoki rus alfavitida yozilishi xususida ham bo'ldi. Bular o'rtasida shuningdek, ikki yoki uch barmoq bilan cho'qinish va cho'qinishni quyosh aylanasi bo'yicha yoki quyosh aylanasi qarshi amalga oshirish masalasida ham tortishuvlar bo'ldi.

Cherkovdagi bo'linish- o'z ahvolini yomonlashishini cherkov islohoti bilan bog'lagan xalq ommasining noroziligini shakllaridan biri bo'ldi. Minglab dehqonlar va posad aholisi shimoldagi dengiz bo'yilariga, Volga daryosi ortiga, Ural, Sibir tomonlarga qochib ketishib, o'zlarining, starobryadlarning qishloqlarini tashqil etishdi. Protopop Avvakum va uning yaqin safdoshlari Pechora daryosi quyilishidagi Pustozerskga badarg'a qilindi va 14 yil yer qamoqxonasida ushlanib tiriklayin yoqib yuborildi. Shundan buyon starobryadchilar Nikon-Antixristni dunyoga kelishiga norozilik belgisi sifatida o'zlariga o't qo'yishgan xollari yuz bergan.

O'ziga ortiqcha baxo bergan patriarx Nikonni taqdiri ayanchli tugadi. 1658-yilda u Moskvani emas, endi butun Rusni patriarxi bo'lishni xoxlashini bildirdi. Aleksandriya va Antioxiya patriarxlari, yana boshqa Konstantinopol va Quddusdagi pravoslav patriarxlarini ham vakolatlariga ega bo'lgan xolda qatnashgan 1666-yildagi cherkov yig'ilishi Nikonni patriarx vazifasidan chetlatdi. U surgun qilinib, Aleksey Mihaylovichni vafotidan so'ng surgundan qaytib, 1681-yilda Yaroslavl yaqinida vafot etdi. U hayotligi chog'ida Quddusdagi ibodatxonaga o'xshatib qurilgan, Moskva yaqinidagi Voskresenskda barpo etilgan (hozirgi Iskra shaharidagi) Novo-Ierusalim monastiri (Yangi Quddus ibodatxonasiga) dafn qilingan.

XII-XIV asrlardagi rus madaniyati to'g'risida so'z borganda avvalo shuni ta'kidlash lozimiki, 1380-yildan so'ng mahalliy badiiy maktablarni umummoskva, umumrus madaniyatiga qo'shib borishi jarayoni kuzatildi. Og'zaki xalq ijodiyotida ko'plab asarlar yaratildi.-yilnomalarni 1325-yildan Moskvada yozib borilishi

kuzatilib, 1408-yilda umumrus-yilnomalar to‘plami bo‘lgan Troitskaya letopis tuzildi. Bu-yilnomani bir qismi 1812-yilda yonib ketgan. Jahon tarixi bo‘yicha asarlar-xronograflar yuzaga keldi. Birinchi rus xronografi 1442-yilda Paxomiy Logofet tomonidan tuzilgan.

Tarixiy mavzudagi asarlar - povest (qissa)lar yaratila boshlandi. “Kalka yonidagi jang haqida”, “Ryazanni Botu tomonidan vayron etilgani haqida” kabi qissalar shular jumlasiga kiradi. Tverlik savdogar Afanasiy Nikitinning (1466-1472) “Xojdenie za tri Morya” (Uch dengiz osha sayoxat) asarida – yevropa adabiyotida birinchi marta Xindiston to‘g‘risida to‘la ma’lumotlar yoritilgan. A.Nikitin Xindistonga portugaliyalik Vasko da Gama tomonidan kashf etilishidan 30-yil ilgari sayoxat qilgan edi.

Arxitekturada avvalo Moskva knyazligidagi dastlabki toshdan qurilgan binolar XIV-XV asrlarga oid bo‘lib, bizgacha ulardan Uspenskiy sobor (1400) va Zvenigoroddagi Savvin –storoyev monastiri sobori (1405), Troitse-Sergiyev monastirini Troitsa sobori (1422), Moskvadagi Andronnikov monastiri sobori (1427) saqlanib qolganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Moskva Kremlini birinchi oqtoshli devorlari 1367-yilda Dmitriy Donskiy davridayoq qurilgan. 1382-yilda To‘xtamish bosqini paytida devorlarga jiddiy zarar yetgan. Keyinchalik XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Italiyalik ustalar tomonidan Moskva Kremli ansambli barpo etildi va hozirgacha saqlanib qolgan. Kreml hududi 27,5 gektar bo‘lib, qizil g‘ishtli devor bilan himoyalangan, devorni uzunligi 2,25 km, devorni qalinligi 3,5-6,5 metr, balandligi 5-19 metrgacha. Hozirda mavjud 20 ta minoradan 18 tasi XV asrdayoq qurilgan. Kreml Neglinnaya daryosini (hozirda kollektorga aylantirilgan) Moskva daryosiga quyilish joyidagi burunda joylashgan. Qizil maydon tomonidan ikkala daryoni qo‘shib turgan xandaq qazilgan, Kreml xuddi orolda joylashgandek bo‘lgan.

XVI asr rus madaniyati haqida so‘z yuritilganda avvalo, XVI asr boshlarida adabiy va tarixiy mavzudagi «Skazanie o velikix knyazyax Vladimirsix» asari yaratilganini ta’kidlash kerak. Cherkovlar doirasida Moskva guyo «uchinchi Rim» degan g‘oya ilgari surildi. Moskva-yilnomachilari ulkan-yilnoma to‘plami, o‘ziga

xos tarixiy ensiklopediya- Nikon-yilnomasini yaratishdi, bunda 16 ming rangli rasmlar –illyustratsiyalar bor edi.

Rusda kitob nashr etish 1564-yilda «Apostol» kitobini bosib chiqarish bilan boshlandi. Dastlabki tipografiyani tashqil etgan Ivan Fedorov bo‘lib, u va shog‘irdi Petr Mstislavets 1574-yilda Lvovda birinchi rus bukvari (alifbosi)-Azbukani chiqarishdi.

Arxitekturada inshootlarni qurishda barokka usulidan foydalanilib, qizil va oq ranglar qo‘llanilgan, binolarni ko‘p qavatlilikiga e‘tibor berilgan. Rus arxitekturasida shatrli ibodatxonalar qurilib, ularning ichki qismida ustunlari bo‘lmasdan, binoni butun og‘irligi poydevorga tushardi. Uncha katta bo‘lmagan tosh yoki yog‘och posad ibodatxonalari qurildi. Yana tosh Kremllar qurilishi olib borildi.

XVII asrdagi rus madaniyati haqida so‘z borganda ushbu asrning II-yarmida bir necha davlat maktablari tashqil etilganini ta’kidlash mumkin. Maktabda markaziy maxkamalar uchun xizmatchilar tayyorlangan. Bosma dastgoxni kashf qilinishi o‘qish va arifmetikaga o‘rgatish uchun ommaviy ravishda qo‘llanmalar chiqarish imkonini berdi. 1687-yilda Moskvada birinchi oliy o‘quv yurti –Slavyan –Yunon-lotin akademiyasiga asos solindi. Bu akademiyada M.V.Lomonosov ham o‘qigan. Adabiyot sohasida esa ilk satirik qissalar yuzaga keldi.

Teatr Moskvada 1667-yilda podsho saroyida tashqil etilib, u 4-yil faoliyat ko‘rsatib asosan nemis aktyorlari va faqat erkaklar rol uynagan. Hukumat va cherkov hokimiyati ko‘chma (brodyachiy) teatrlarni taqiqlab, ta’qib etgan.

Nazorat uchun savollar

1. Rossiyaning g‘alayonlar davridan keyingi XVII asrdagi hudularini chegaralang?
2. Sobor qonunlari va uning asosiy mazmuni haqida gapiring?
3. XVII asrda hunarmandchilik ishlab chiqarishi rayonlari yuzaga kelishiga nima sabab bo‘lgan?
4. Zborovo sulxi va uning tarixiy ahamiyati?
5. Cherkovdagi bo‘linish va uning oqibatlari?

2.2. XVIII ASRNING I YARMIDA ROSSIYA DAVLATI

Tayanch soʻz va iboralar: *Absolyutizm; monarx; regent; Buyuk elchilik; abordaj; Poltava jangi; Grengam; Gangut; Nishtadt; konditsiya; testament; bironchilik; shlyaxet; staroobryad; juz; Gross-Egersdorf; Sorndorf; Kunersdorf;*

Pyotr I Buyuk islohotlariga, 1917-yilgacha boʻlgan Rossiya tarixshunosligida ikki xil qarash mavjud boʻlib, birinchi qarash tarafdorlarining fikricha, Pyotr I mamlakatni tabiiy taraqqiyotini buzib, iqtisod, siyosat, madaniyat, anʼanalar, udumlarga oʻzgarishlar kiritib, «u Rossiyani Gollaniyaga aylantirmokchi» boʻlgan. Boshqa tadqiqotchilar esa, xalq boʻlib oʻtadigan oʻzgarishlarni kutgandi va u xalq kutgan doxiy boʻldi deb taʼkidlashdi (yirik tarixchi olim S.M.Solovyev shunday xisoblagan).

Absolyutizmga oʻtilishi masalasi shundan iboratki, bunda davlatdagi oliy hokimiyat toʻla va ajralmas tarzda yakka hokim, yaʼni monarxni qoʻliga oʻtadi. Hokimiyat markazlashishning eng yuqori darajasiga yetadi. Mamlakatdagi davlat hokimiyati toʻla xolda monarxga boʻysunadi. Podsho Aleksey Mihaylovichning vafotidan keyin uning 14 yoshli oʻgʻli Fyodor Alekseyevich taxtga chiqadi, u 1676-1682-yillarda hukmronlik qilib, uning davrida mahalliychilik bekor qilinib, mamlakat boshqaruviga dvoryan va xizmatdagi odamlar jalb qilinadi. Fyodor davrida 1677-1682-yillarda Turkiya bilan Rossiya oʻrtasida urush boʻlib oʻtib, 1681-yilda Rossiya, Qrim va Turkiya oʻrtasida Qrim xonligini poytaxti Bogʻchasaroyda tinchlik bitimi imzolandi. Bitimga koʻra Soʻlsohil Ukrainani Rossiya tarkibiga qoʻshib olinganligini Turkiya tan oldi. Dnepr esa Rossiya bilan Qrim xonligi oʻrtasida chegara daryosi boʻlib qoldi. Dnestr bilan Bug oʻrtasidagi yerlar neytral xisoblanib, u yerlarga aholini joylashtirish mumkin emasdi. Turkiya bilan Qrim zaporoje kazaklarini rus podshosini tobelari deb tan olib va 20 yil mobaynida Rossiyaning dushmanlariga yordam bermaslik majburiyatini olishdi.

1682-yilda podsho Fyodor Alekseyevich vafot etgach, uni oʻrniga ukasi 15 yoshli Ivan Alekseyevich taxtga chiqishi lozim edi, ammo uning kasalligi tufayli

o'rniga Aleksey Mihaylovichning ikkinchi xotini N.K. Narishkinaning 10 yoshli o'g'li Pyotr Alekseyevichni taxtga o'tkazmokchi bo'lishdi. Lekin Ivanning opasi Sofya Alekseyevna taxtga da'vogarlik qilib streletslardan yordam so'radi. Moskvada Ivanni bo'g'ib o'ldirilgani to'g'risida mish-mish tarqatilib, streletslar qo'zg'olon ko'tarishadi. Har ikkala shaxzoda Ivan va Pyotrni tirikligi ma'lum bo'lgach, streletslar Ivanni birinchi podsho, Pyotrni esa ikkinchi podsho etib taxtga o'tkazishni, ularga esa Sofya Alekseyevnani regentlik qilishini talab qilishdi. Har ikkala shaxzoda uchun ikki o'rinli taxt tayyorlandi. Taxtni suyanchik qismida ikkita kichik darcha bo'lib, taxtni orqasida turgan Sofya Alekseyevna va boshqalar shaxzodalarga saroy marosimlari paytida o'zlarini qanday tutishlarini va nimani gapirishlarini o'rgatib turishgan. Bu taxt hozirda Kremldagi Orujeynaya palatada saqlanib turibdi.

Streletslarning boshliqlari aholining ommaviy noroziliklardan foydalanib, Streletslar prikazining boshlig'i knyaz I.A.Xovanskiyni Rossiya davlati boshlig'i etib qo'ymoqchi bo'lishdi. 1682-yilda Sofiya streletslarning niyatini payqab qolib, Xovanskiyni aldov yo'li bilan chaqirib, ushlab, uni va ko'plab streletslarni qatl ettirdi. Hokimyat malika Sofyaning qo'liga o'tdi. Sofyaning tarafdori bo'lgan Fyodor Shaklovitiy Streletslar prikaziga boshliq etib tayinlandi.

Sofyaning hukmronligi (1682-1689)-yillarida mamlakatni amalda uning favoriti xisoblangan Vasiliy Golitsin boshqardi. V.Golitsin qo'mondonligidagi rus qo'shinlari 1687- va 1689--yillarda ikki marta Qrim tomonga amalga oshirgan harbiy yurishlari muvaffaqiyatsiz yakunlandi.

Shaxzoda Pyotr Alekseyevich bolalik va o'smirlik-yillarida onasi bilan Moskva yaqinidagi Preobrajensk, Kolomensk va Semenovsk qishloqlarida yashab, harbiy sohaga qiziqib, o'z tengqurlaridan «bolalar qo'shinlari» tuzib o'ynagan. Keyinchalik aynan shulardan Preobrejensk va Semenovsk muntazam birinchi gvardiyachi polklar tashqil etildi. U faqatgina 204 sm bo'lgan bo'yi bilan emas, balki intellekti va bilimlari bilan ham zamondoshlarini lol qoldirgan.

Pyotr 1689-yilda onasining maslaxati bilan boyar qizi Yevdokiya Lopuxinaga uylandi. Uylangandan so'ng Pyotr voyaga yetgan xisoblanardi va taxtga tegishli

barcha huquqlarga ega edi. Bu esa uni Sofya bilan taxt uchun to'qnashuvini muqarrar qilib qo'ydi. Moskvada streletslarni va Pyotr tarafdorlarini kelgusidagi to'qnashuvi haqida mish-mishlar tarqaldi. 1689-yil avgust oyini kechalaridan birida Pyotr yashab turgan Preobrejensk qishlog'iga uning tarafdorlaridan biri kelib, Moskvada streletslar polklari trevoga bilan ko'tarilgani va Pyotrni ushlamokchi ekanliklari to'g'risida ma'lum qildi. Pyotr darhol Troitse-Sergiyev monastiriga bordi. Unga sodiq bo'lgan Preobrejensk va Semenovsk polklari ham yetib kelishdi. Pyotrni ko'plab boyarlar va dvoryanlar, Moskva patriarxi, xatto bir nechta streletslar polklari qo'llashdi. Sofyani Moskvadagi Novodevichiy monastiriga qamashdi. Streletslarning boshlig'i F.Shaklovitiy qatl etildi. V.V.Golitsin surgunga jo'natildi. Taxt Petrni qo'liga o'tdi, 1696-yilda Ivan vafot etgach, Pyotr I Buyukning yakka hokimiyati o'rnatildi.

Pyotr I oldida turgan muhim vazifalardan biri Qrim bilan urushni davom ettirish edi. 1695-yilda rus qo'shinlari Donni quyilishidagi Azov turk qal'asini qamal qilishdi. Qurollarni yetarli emasligi, kunikma va malakani kamligi, qamal texnikasini yomon tayyorlangani va flotni yo'qligi sababli Azovni egallab bo'lmadi. Bu muvaffaqiyatsizlikdan keyin Pyotr flot qurishga kirishdi. Flot Voronej daryosini Donga quyilish joyida qurildi. Bir yil mobaynida ikkita yirik kema, 23 ta galera va mingtadan ziyod mayda kemalar qurilib, Don bo'ylab dengizga tushirildi. Quruqlikdagi armiyaning soni ikki baravarga ko'paytirildi. 1696-yilda Azovni dengizdan qamal qilib rus qo'shinlari shaharni egallashdi. Rus qo'shinlarini Azov dengizidagi mavqeini mustaxkamlash maqsadida Taganrog qal'asi barpo qilindi.

Azovni olingani bilan xali urush tugamaganligini tushungan Pyotr, kuchlar nisbatini yaxshiroq bilish, Rossiyani ahvolini va yevropa davlatlarini Turkiyaga qarshi ittifoqini mustaxkamlash maqsadida, Yevropaga «Buyuk elchilik»ni uyushtirdi. Bundan tashqari Pyotr rivojlangan yevropa davlatlari bilan savdo, texnikaviy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishga, ularning turmush tarzi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga intildi.

1697-yil baxorida 250 kishilik elchixona g'arbga jo'nadi. Uning tarkibida Preobrajensk polkining uryadnigi Pyotr Mihaylov nomi ostida Pyotrning o'zi ham

bor edi. Shuningdek, ularning tarkibida harbiy ish va kemasozlikni o'rganishi lozim bo'lgan bir nechta yosh dvoryanlar ham bor edi. Elchilik vakillari Gollandiya va Angliyada bo'lib, Venaga qaytishgan. 1698-yilda Venada turib, Pyotr Moskvada streletlar qo'zg'oloni boshlangani to'g'risida xabar olib, darhol Moskvaga qaytdi. U kelguncha hukumat qo'shinlari tomonidan streletlar qo'zg'oloni bostirildi. Uning ishtirokchilarining 1000 ortig'i qatl qilindi. Bular bilan Sofyaning ham aloqadorligi aniqlanib, uni sochi olinib, monaxinya Susanna nomi ostida umrining oxirigacha (1704) Novodevichiy monastirida ushlab turildi.

Rossiyaning Boltiq dengiziga chiqishi uchun Shvetsiya bilan 1700-1721-yillarda bo'lib o'tgan Shimoliy urush, 1700-yilda boshlandi. 1709-yil 27-iyunda Pyotr I va Karl XII qo'shinlari o'rtasida Poltava jangi bo'lib o'tdi, 30 ming shved soldatidan 9000 tasi o'ldirildi va 3000 tasi asir olindi. Karl XII esa Turkiyaga qochdi.

Shimoliy urushda 1714-yil 27-iyul kuni Boltiq dengizidagi Gangut burnidagi jangda Pyotr I galera kemalarini parusli kemalardan ustunligini namoyish etdi va g'alaba qozondi. 1720-yilda Grengam oroli yaqinidagi jangda rus harbiy-dengiz floti kemalari shvedlarni kemalariga abordaj qilib, turtta yirik shved kemalarini a'zolari bilan asirga olishdi. 1721-yil 30-avgustda fin shahri Nishtadtda tuzilgan Rossiya va Shvetsiya o'rtasidagi sulxga ko'ra, Boltiq dengizini Viborgdan Rigagacha bo'lgan sohillari, Kareliyani bir qismi, Estlandiya (Estoniya), Liflandiya (Latviya)ni bir qismi Rossiya tarkibiga o'tdi. Bu egallangan yerlar uchun Rossiya 1,5 mln rubl to'ladi. Finlandiya Shvetsiya tarkibida qoldi.

Pyotr I hukumatining tashqi siyosatdagi muhim tadbirlaridan yana biri 1722-1723-yillardagi Kaspiy yurishlari bo'ldi. Natijada Kaspiyning g'arbiy kirg'og'i Boku, Resht, Astraobod bilan birga egallandi. 1724-yil 30-avgustdagi Turkiya va Eron bilan tuzilgan Konstantinopol tinchlik sulxiga ko'ra Kaspiy yurishida egallangan yerlar Rossiya qo'lida qoldi.

Pyotr I tomonidan XVIII asrning birinchi choragida amalga oshirilgan islohotlar haqida so'z borganda, avvalo, zavodlar qurilishini, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga e'tibor berilganini, ichki va tashqi savdoni o'sib borganligini ta'kidlash lozim. Davlat tuzumida 1721-yilda Pyotr I imperator deb e'lon qilindi.

Armiya va flotda ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. 1722-yilda Pyotr I farmoniga ko'ra imperator taxtini merosga qoldirish mumkin edi. Petr I islohotlari Rossiya tarixi uchun muhim ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

XVIII asrning II-choragi va o'rtalarida Rossiya dvoryanlar imperiyasiga aylandi. Pyotr I o'zidan keyingi taxt vorisi to'g'risida biror ko'rsatma qoldirmasdan 1725-yil 28-yanvar kuni vafot etdi. Imperatorning o'g'il farzandi yo'q edi. Taxtga Pyotr I ning keyingi xotini Yekaterina va ilgari qatl qilingan shaxzoda Alekseyning o'g'li ya'ni Pyotr I ning nevarasi da'vogar bo'lishdi. Senat va oliy amaldorlar kimni taxtga chiqarishni maslaxat qilgunlaricha Preobrejensk va Semyonovsk polklari ochiqdan-ochiq Yekaterina tarfiga o'tdilar va shunday qilib Yekaterina I (1725-1727) taxtga chiqdi. Uning davrida hukumatga A.D.Menshikov boshchilik qildi.

Davlatni yaxshiroq boshqarish uchun Oliy maxfiy kengash tuzilib, bu tashqilot – yuqori davlat organi xisoblangan Senat hokimyatini cheklardi. Uning tarkibiga A.D.Menshikov, F.M.Apraksin, G.I.Golovkin, P.A.Tolstoy, A.I.Osterman, D.M.Golitsin va Pyotr I ning katta qizi Annaning eri – golshtin gersogi Karl Fridrix kirdi. Bu tashqilotning a'zolarining ko'pchiligi Pyotr I ning yaqinlaridan iborat edi.

Vafotidan oldin 43 yoshli Yekaterina I «testament» ya'ni taxtga vorislikni galma-gal egallash to'g'risidagi vasiyatnomani imzoladi. Undan keyingi voris shaxzoda Alekseyning o'g'li – Pyotr II , undan so'ng Anna va uning vorislari, so'ngra Yelizaveta va uning vorislari navbat bilan taxtni egallashlari lozim bo'lgan. Taxtni 12 yoshli Pyotr II (1727-1730) egalladi, uni davrida davlatni Oliy maxfiy kengash boshqardi. 15 yoshli Pyotr II kasallanib qolib to'yi kuni vafot etdi. Oliy maxfiy kengash a'zolari taxt vorisi masalasida Pyotr I ning akasi Ivan U Alekseyevichning qizi Annaning nomzodiga to'xtalishdi. Anna Kurlyandiya gersogining xotini bo'lib, tul qolgach, boltiqbo'yidagi Mitava (hozirgi Yelgava) shahrida yashayotgan edi. Kengash a'zolari maxsus shartlar- konditsiya ishlab chiqib, unga ko'ra Anna turmushga chiqmasligi, taxt vorisini tayinlamasligi, muhim davlat ishlarini faqat kengash bilan maslaxatlashib xal etishi lozim edi. Anna Ioannovna (1730-1740) Moskvaga kelgach unga 20 dan ortiq dvoryan loyixalari takdim etilib, ularga ko'ra mamlakatda yakka, mutloq hokimyat o'rnatilishini talab

qilganlar. Anna Moskvaga kelgach ikki xafta o'tib, konditsiyani kengash a'zolarini ko'z o'ngida yirtib yubordi va mutloq hokimyatini o'rnatilganini ma'lum qildi. U Oliy maxfiy kengashni ko'p a'zolaridan o'ch oldi. 1731-yilda kengash A.I.Osterman boshchiligidagi uch kishidan iborat ministrlar kabineti bilan almashtirildi. To'rt yil o'tgach ularning uchta imzolari imperatritsaning birgina imzosi bilan tenglashtirildi.

Anna Ioannovna 37 yoshida taxtga chiqdi. U davlat ishlari bilan kam qiziqardi, barcha boshqaruvni o'zining favoriti Ernst Iogann Bironga topshirib qo'ydi. Tarixda Anna Ioannovnaning davri bironchilik deb ataladi. Davlatdagi muhim o'rinlar nemislarning qo'lga o'tdi. Tashqi ishlarni A.I.Osterman, armiyani B.K.Minix, gvardiyani F.K.Levenvolde, akademiyani I.D.Shumaxer boshqarganlar. Rossiya iqtisodiyotiga ham avantyurachilar suqulib kirib, mamlakat boyligini taladilar. Biroq, Anna Ioannovna mamlakatdagi dvoryanlarga ayrim imtiyozlar berdi, ularga yerlar ulashdi. Dvoryanlarni o'qitib-o'rgatish uchun 1732-yilda Quruqlikdagi shlyaxet kadet korpusi ochildi, so'ngra esa birin-ketin Dengiz, Artilleriya, Pajes korpuslariga asos solindi. 1736-yildan dvoryanlar uchun xizmat muddati 25 yil qilib belgilandi. Dehqonlar ham o'z egalariga yana maxkamroq bog'lab qo'yildi.

Anna Ioannovna o'zidan keyin voris etib jiyani Anna Leopoldovnaning 1740-yilda tug'ilgan o'g'li Ivan IV Antonovichni qoldirishini vasiyat qildi. Ikki oylik chaqaloqqa Z.I.Bironni regent etib tayinladi. Bir oy o'tmay Biron, feldmarshal B.K.Minixning buyrug'iga ko'ra gvardiyachilar tomonidan qamoqqa olinib Pelim (Tobol guberniyasi)ga surgun qilindi. Besh xafta o'tgach Yaroslavlga qaytib keldi. (22-yillik surgundan qaytgach Biron Yekaterina II dan Kurlyandiyadan mulk oldi va umrining oxirigacha,1772, sodiq xizmat qildi) Regent deb Anna Leopoldovna e'lon qilinib, unda A.I.Osterman muhim rol o'ynadi.

Rus dvoryanlari o'z umidlarini Pyotr I ning qizi – Yelizaveta bilan bog'ladilar. Rus tashqi siyosatida yo'nalishlarni o'zgarishidan manfaatdor bo'lgan fransuz va shved diplomatlarining ko'magida, 1741-yilda navbatdagi saroy to'ntarishi bo'lib o'tdi. Preobrajensk polkining grenader rotasining yordamida Yelizaveta Petrovna (1741-1761) taxtga chiqdi. 32 yoshli imperatritsa davlat ishlaridan chet ellikliklarni

chetlatdi. Osterman va Bironlarni surgunga jo‘natdi. U o‘z hukmronligi davrida otasi Pyotr Buyuk davridagi tartiblarni tiklashini bildirdi. Senat, Berg- va Manufaktur kollegiyalar, Bosh magistrat qayta tiklandi. Yelizaveta davrida 1755-yil 25-yanvarda Rossiyadagi birinchi universitet Moskvada ochildi (Hozirgi Moskva Davlat Universiteti).

Ijtimoiy siyosatda hamon dvoryanlarning huquq va imtiyozlari kengaytirildi, bunga esa dehqonlarning huquqlarini cheklash evaziga erishildi. 1746-yilda faqat dvoryanlarga yerlar va dehqonlarga egalik huquqi berildi. Dehqonlarga pomeshevikning ruxsatisiz pul muomalalari olib borish taqiqlandi. Dehqonlarni pomeshevikning o‘zi jazolardi. Dvoryan va savdogarlarni qullab-quvvatlash uchun banklar ochildi. 1754-yilda ichki bojxona soliqlari bekor qilindi, bu esa qishloq xo‘jalik va sanoat maxsulotlari bilan savdo qilish uchun keng imkoniyatlar berdi.

Yelizaveta Petrovnaning vafotidan so‘ng 33 yoshida taxtga o‘tirgan jiyani Pyotr III (1761-1762) fakat olti oy hukmronlik qildi. U 14 yoshigacha Golshtiniyada yashagan, asli ismi Karl Pyotr Ulrix bo‘lib, pravoslav maxzabiga o‘tgach Pyotr nomini olgan. U ota tomonidan Karl XII ning nevara jiyani va ona tomonidan esa Pyotr I ning nevarasi bo‘lgan. Pyotr III voyaga yetgach, Pruss qiroli Fridrix II unga mayda nemis knyazlaridan birining qizi Sofya Avgust Fredrika Angalt-Serbstskayaga (keyinchalik u Rossiyada Yekaterina Alekseyevna deb nom olgan) uylanishni tavsiya etgan. Ular 1747-yilda Pavel ismli o‘g‘il farzand ko‘rishadi.

Pyotr III ruslarni yomon ko‘rgan, aksincha pruss qiroli Fridrix II ga sig‘ingan, prusscha tartib-intizomni xushtori bo‘lgan. U Rossiya imperatori bo‘lishdan ko‘ra, pruss armiyasi polkovnigi bo‘lishni afzal ko‘raman deb aytgan.

Petr III 1762-yil 18-fevralda rossiya dvoryanlariga erkinliklar berish haqida Manifest chiqarib, unga ko‘ra dvoryanlar majburiy davlat va harbiy xizmatidan ozod qilindi. Cherkov yerlarini davlat foydasiga sekulyarizatsiyasi e‘lon qilindi, bu esa davlat xazinasini mustaxkamlardi. Staroobryadchilarni ta‘qib etilishini to‘xtatdi va barcha dinlarni huquqlarini tenglashtirishga o‘rindi, lyuteranlarga taqlid qilib, ruxoniylarni dunyoviy kiyimda yurishlariga majbur etmokchi bo‘ldi. U gvardiyachilarni xaqoratlab yanicharlar deb atagan. Petr III bir tomondan,

o'tmishdoshlarining yo'lini davom ettirib, farmonlar chiqargan, boshqa tomondan esa, xotiniga, oila a'zolari va yaqinlariga nisbatan uning harakatlari xurmatsizlikdan iborat bo'lib, qo'polligi, spirtli ichimlikka o'ch bo'lgani, siyosatda o'ylamasdan qarorlar qabul qilgani, uning harakat va qiliqlarini xaqqoniy hukmdorga xos emasligi - bularning barchasi rus jamiyatida norozilik keltirib chiqardi.

Rossiya –Polsha munosabatlari haqida so'z borganda aytish mumkinki, 1733-yilda Polsha qiroli Avgust II vafot etgach, shlyaxet (dvoryan)lar guruhlarini o'rtasida hokimiyat uchun kurash boshlandi. Polsha taxtiga Fransiya tomonidan qo'llab-quvvatlangan, fransuz qirolining kuyovi Stanislav Lehinskiy da'vogarlik qildi. Rossiya esa Avstriyaning quvvatlashi bilan o'lgan qirolning o'g'li Avgust III ni hukmdor bo'lishini xoxlayotgan edi. Taxtga Stanislav Lehinskiy saylandi, bu esa 1733-1735-yillardagi rus-polsha urushini boshlanishi uchun baxona bo'ldi. Urushning muhim voqeasi B.K.Minix qo'shinlari tomonidan Gdansk (Dansig)ni egallanishi bo'ldi. Leshinskiy fransuz kemasida qochib ketdi. Avgust III esa Polsha qiroli bo'lib qoldi.

Qrim tatarlari tomonidan Rossiya chegaralarini buzilishi 1735-1739-yillarda bo'lib o'tgan rus-turk urushini boshlanishiga baxona bo'ldi. Urushda Avstriya Rossiyaning ittifoqchisi bo'ldi. 1736-yilda rus armiyasi Bog'chasaroy va Azovni, 1737-yilda Ochakovni egalladi. Biroq B.K.Minix asosiy jangdan qo'shinni chetga tortgani tufayli qrimliklar o'z armiyasini saqlab qolishdi. Faqat 1739-yildagina usmoniylar Stavuchan (Dnestr daryosi yonidagi Xotindan uzoq bo'lmagan joyda, hozirgi Chernovits oblasti) ostonasida yakson etildi. Rus armiyasi Dunaydan kechib o'tishga tayyor edi. Ammo Rossiyaning ittifoqchisi Avstriya bir qator mag'lubiyatlarga uchrab, Turkiya bilan separat sulxi tuzdi. Turkiya va Rossiya 1739-yilda Belgrad sulxini tuzishdi. Azov qalasi istexkomlarisiz va Bug daryosi yonidagi uncha katta bo'lmagan hududlar Rossiya tarkibiga kirdi. Qora dengizga chiqiladigan hududlar Turkiya qo'lida qoldi.

Shvetsiya Shimoliy urushdagi mag'lubiyati uchun o'ch olishga intilib, Rossiyaga urush e'lon qildi. 1741-1743-yillardagi rus-shved urushi Finlandiya hududlarida olib borildi va Abos (Turku shahari) sulxi bilan yakunlandi. Shvetsiya

Shimoliy urush natijalarini tan oldi. Finlandiyadagi uncha katta bo'lmagan hududlar Kyumen daryosiga qadar Rossiyaga o'tdi.

Kozog'istonni Rossiya tarkibiga qo'shilishi masalada shuni aytish lozimki, XVIII asrning boshlarida Kozog'istonning sharqiy va markaziy rayonlari o'zaro ichki urushlar maydoniga aylangandi. Qozoqlar uchta: Kichik, O'rta va Katta juzlar-urug'larga birlashgan edilar. 1731-yilda Anna Ioannovna Kichik Qozoq juzini Rossiya tarkibiga qabul qilingani haqidagi xujjatni imzoladi. Sulton Abulhayr va uning oqsoqollari podshoga qasamyod qilishdi. Tuqqiz-yil o'tgach, 1740-1743-yillarda O'rta juz ham ko'ngilli tarzda Rossiya tarkibiga kirdi. Orenburg (1742) va Yoyiq daryosidagi boshqa qalalar barpo qilindi.

Yetti-yillik urush masalasiga kelsak, 1756-1763-yillarda Angliya va Fransiya o'rtasida mustamlakalar uchun urush kelib chiqdi. Urushda davlatlarning ikkita koalitsiyasi qatnashishdi. Ularning birini Prussiya, Angliya va Portugaliya tashqil etdi. Ularning raqiblari esa Fransiya, Ispaniya, Avstriya, Shvetsiya, Saksoniya va Rossiyadan iborat bo'ldi. Prussiya Polshani va Boltiqbo'yini bir qismini bosib olishga intilishini, bu esa regionda ruslar ta'sirini tugaganligini anglatishini, Rossiyada yaxshi tushunishardi.

1757-yilda rus armiyasi Sharqiy Prussiya tomonga siljidi. Tez orada Gross-Egersdorf qishlog'ida rus qushinlari prussaklarni birinchi maglubiyatga uchratishdi. 1758-yilda Kenigsberg (hozirgi Kaliningrad) egallandi.

Yengilmas xisoblangan pruss qiroli Fridrix II Rossiyaga qarshi o'zining asosiy kuchlarini yubordi. Sorndorf qishlog'idagi (1758) to'qnashuvda va Kunersdorf qishlog'i yonidagi (1759) asosiy xal qiluvchi jangda Fridrix II ning armiyasi yakson qilindi. 1760-yilda rus qo'shinlari Berlinga kirishdi. Berlin shaharining kaliti Peterburgdagi Qozon soboriga umrbod saqlash uchun topshirildi. Keyinchalik rus harbiy san'atini mashxur qilishgan P.A.Rumyansyev va A.V.Suvorovlar yetti-yillik urushda o'zlarining dastlabki g'alabalariga erishishdi.

Biroq, rus askarlarining g'alabalari xaqqoniy natijalarga olib kelmadi. Ittifoqchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar va ayniqsa, Petr III ning podsholik qilishi Rossiyaning urushdagi nuqtai nazarini keskin o'zgartirdi. 1762-yilda Rossiya

Prussiya bilan sulx tuzdi va barcha egallangan territoriyalarni unga qaytarib berdi. Ammo bu urush davomida Prussiya kuchsizlandi, Rossiyaning xalqaro obro'si esa oshdi. Yetti-yillik urushning asosiy yakuni - Angliyaning mustamlakalar va savdoda oldingi o'rinni egallash uchun kurashda Fransiya ustidan g'alaba qozonishi bo'ldi. Petr III ning rus xalqiga qarshi tashqi siyosati, shuningdek ijtimoiy norozilik uchqunlari, gvardiyachilarni Yekaterina II foydasiga yangi to'ntarishni amalga oshirishga undadi.

Nazorat uchun savollar

1. Pyotr I Buyuk islohotlariga rus tarixchiligida necha xil qarashlar bor va ular qaysilar?
2. Shaxzoda Pyotr Alekseyevich o'z zamondoshlari orasida qanday shaxsiz xislatlari bilan ajralib turgan?
3. Rossiyaning Boltiq dengiziga chiqishi qanday amalga oshirilgan?
4. G'arbga yuborilgan 250 kishidan iborat elchixonaning asosiy vazifalarini sanab bering?
5. Rossiyadagi birinchi universitet qachon va kimning davrida ochilgan?

2.3. ROSSIYANING XVIII ASRNING II YARMIDAGI RIVOJLANISHI

Tayanch soʻz va iboralar: Kolonist; sex; manufaktura; ichki savdo; tashqi savdo; assignatsiya; sekulyarizatsiya; gubernator; Yassi; Verel; Radihev; Vedomosti; Kunstkamera; Rastrelli;

1762-yil 28-iyun kuni imperatorni poytaxtda yoʻkligidan foydalanib, aka-uka Orlovlar boshchiligidagi gvardiyachi ofitserlar va imperatorning xotini Yekaterina saroy toʻntarishini amalga oshirdilar. Izmaylov va Semyonov polklari yangi hukmdorni qoʻllashdi, uni Peterburgdagi Kozon soborida imperatritsa deb eʼlon qilishdi. Qishki saroyda Yekaterina II ni taxtga chiqqani haqidagi Manifest oʻqildi. Senat va Sinod unga qasamyod qilishdi. 29-iyun kuni Pyotr III taxtdan voz kechgani haqidagi xujjatni imzoladi, bir necha kun oʻtgach u vafot etdi (aftidan, u Aleksey Orlov va soqchilar tomonidan oʻldirilgan).

Yekaterina II Buyuk (1762-1796) imperatorlik taxtiga 33 yoshida taxtga oʻtirdi. XVIII asrning ikkinchi yarimida Rossiyaning territoriyasi ayniqsa janubiy va gʻarbiy yoʻnalishlarda ancha kengaydi. Bu asrning oxiriga borib, Qora dengizning shimoliy sohillari, Azov boʻylari, Qrim, Oʻngsohil Ukraina, Dnestr va Bug oʻrtasidagi yerlar, Belorussiya, Kurlyandiya va Litva mamlakat tarkibiga kirdi.

XVIII asrning oʻrtalarida mamlakat aholisi 18 million kishi boʻlgan, asr oxiriga borib esa 36 millionga yetgan. Aholining asosiy ommasi qishloq joylarda yashagan. Dehqonlarni 54 foizi pomeshiklarga, 40 foizi esa davlatga qarashli, qolgan 6 foizi saroy muassasalariga qarashli boʻlgan. Asr oxiriga borib mamlakat aholisining 10 foizga yaqini shaharlarda yashagan. 19 asrning boshlarida Rossiyada 634 ta shaharlar boʻlib, ularning koʻpchiligi qishloq okruglarining maʼmuriy va hokimyat markazlari boʻlib qolavergan.

Qishloq xoʻjaligi Rossiya iqtisodiyotining oldingi sohasi boʻlib qolaverdi. Ukrainaning janubi va Qora dengiz boʻyi Novorossiya'dagi unumdor, lekin aholi kam yerlarda pomeshik davlatdan 1,5 dan 12 ming desyatinagacha yer olib oʻz

dehqonlarini joylashtirishi mumkin bo'lgan. Xususiyl krepostnoylardan tashqari, har qanday xoxlagan kishi 60 desyatnadan yer olishi mumkin bo'lgan. Yekaterina II 1762-yilgi Manifesti bilan chet ellik kolonistlar ham yangi yerlarni uzlashtirishga jalb etilishi tufayli ularning yirik aholi markazlari vujudga keldi: saratovdagi qora tuproqli joylarda – nemislar, Novorossiyyada-greklar, armanlar kelib urnashdilar. Markazdagi unumdor yerlarni va mamlakatdagi yangi ochilgan yerlarini uzlashtirilishi Rossiyadan gallani chet elga Xerson, Nikolayev, Odessa kabi qora dengiz portlari orqali eksport qilinishini ochib berdi.

Mamlakatning qora tuproqli rayonlarida barhina usuli xaftasiga olti kungacha yetdi. Nokoratuproq hududlarda esa Pomesniklar dehqonlarni pul obrogiga o'tkazdilar. Bu yerlarda dehqonlarni ishlab pul topish uchun ketishlari keng yoyilgan. Asr o'rtasiga nisbatan asr so'nggida pul obrogining hajmi besh baravarga ko'paydi. Bir qator pomehik xo'jaliklarida krepostnoy dehqonlarning mehnatidan foydalaniladigan manufakturalar kurila boshladi. 1765-yildagi farmonga ko'ra Pomesniklar o'z krepostnoylarini hech bir sud va suroksiz Sibirga surgun qilishi mumkin bo'lgan. Dehqonlarni sotish kuchaydi. Ularni xatto karta uyiniga ham yutkazish, hech bir aybisiz ham jazolash mumkin bo'lgan. Pomesniklar kupincha «birinchi kecha huquqi»dan foydalanganlar. 1767-yildagi farmonga kura, dehqonlarni o'z Pomesniklari ustidan imperatritsaga shikoyat qilishlari taqiqlandi.

Sanoat taraqqiyoti masalasida avvalo shuni ta'kidlash lozimki, 1785-yilda shaharlar to'g'risidagi yorliqni bir qismi bo'lgan maxsus hunarmandchilik nizomi nashr etilib, unga ko'ra ma'lum bir ixtisosdagi besh kishidan kam bo'lmagan hunarmandlar sex tashqil etib, o'z oksokollarini saylashlari lozim edi.

Shaharlar bilan bir qatorda qishloqlarda ham hunarmandchilik rivojlandi. Ivanova rayonidagi manufaktura, graf Sheremetovning dehqonlari yuritgan tukimachilik sohasidan usib chikdi; Oka bo'yidagi Pavlovo esa metall buyumlar tayyorlash; Xoxloma rayoni (hozirgi Nijegorod oblasti) yogochni qayta ishlash; Gjel (Podmoskoveda) – keramika buyumlari; Kimro' (Tver oblasti)- teriga ishlov berish bilan shuxrat qozongan.

Boy dehqonlarning ko'pchiligi krepostnoylar bo'lib, ularning ayrimlari o'z korxonalarini ochib, o'z hamqishloqlarini yollab ishlatganlar. Biroq bunday dehqonlar o'z pomehigini krepostnoyi bo'lib kolavergan va unga kup ming rubl obrok tulagan. Lekin bunday dehqonlarning juda ozchiligi o'z Pomesheviklar idan o'z shaxsiy ozodligini sotib olganlar.

XVIII asrning II-yarmida mamlakatda manufaktura ishlab chiqarishining yanada usishi ruy berdi. Asr o'rtalarida 600 dan ortiq manufaktura mavjud bulsa, asr so'nggiga kelib bunday korxonalarning soni 2000 dan ortib ketdi. o'z krepostnoylarining mehnatidan foydalanadigan korxonalar ko'pchilikni tashqil qilib, bulardagi krepostnoy – ishchilar o'z mehnati natijasidan manfaatdor bo'lmagani tufayli korxonada mehnat unumdorligi past bo'lgan.

O'z pomesheviklari uchun obrokni pul xisobida to'lashi lozim bo'lgan krepostnoylar ishlab pul topish uchun boshqa joyga borib korxonalarga yollanma ishchi kuchi sifatida joylashib, qancha kup maxsulot tayyorlasa shunga yarasha ish haqi olgani tufayli, ular o'z mehnatlari samarasidan manfaatdor bo'lib sifatli va kup mikdorda maxsulot ishlab chiqargan, ishlab topgan pulidan ham o'z pomehigiga pul obrogi sifatida tulagan, ham o'z oilasini ta'minlagan. Bu esa kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini vujudga kelayotganidan nishona edi. 1762-yilda krepostnoy dehqonlarni zavodlarda ishlatish uchun sotib olishni taqiqlash haqida farmon chikdi. Natijada yollanma ishchilar bozori yuzaga keldi. XVIII asrda Rossiyada 400 mingdan ortiq yollanma ishchilar mavjud bo'lgan.

Ichki va tashqi savdo haqida so'z borganda aytish lozimki, xo'jalik faoliyatining turli sohalaridagi ixtisoslashish yanada aniq ko'zga tashlana boshladi. Qora tuproqli Markaz va Ukrainaning bug'doyi, Volgabo'yini sherst, teri va baligi, Sibir va Shimolning muynalari kup sonli savdolar va yarmarkalarda muntazam almashtirilgan. Ular xo'jalik regionlari va savdo yo'llari tutashgan Nijno'y Novgorod, Orenburg, Irbit, Nejin (Ukraina), Kursk, Arxangelsk va boshqalarda joylashgan edi. 1754-yildan ichki bojxona soliklarini bekor qilinishi butunrossiya bozorini rivojlanishiga imkon berdi.

Rossiya o'zining Boltiqbo'yi va Qoradengizbo'yi portlari orqali faol tashqi savdoni olib borgan. Rossiya metall, yogoch, parus uchun matolar, terilarni eksport qilgan. XVIII asrning oxiridan Qoradengiz portlari orqali bug'doyni tashkariga chiqarishni boshladi. Chet eldan shakar, movut, metallardan yasalgan buyumlar, ipak, buyok maxsulotlari, kofe, vino, mevalar, choy keltirilgan. XVIII asrning II-yarmida mamlakatning asosiy savdo hamkori Angliya bo'lgan. Moliya sohasida shuni ta'kidlash kerakki, hokimyat apparatini mustaxkamlash, urush harajatlari, saroyini ta'minoti va boshqa davlat ehtiyojlari katta pul mablaglarni talab etardi. XVIII asrning II-yarmida mamlakat xazinasining daromadlari 4 martaga oshdi. Biroq harajatlar yanada, 5 baravarga ko'paydi. Yekaterina byudjet tankisligini an'anaviy usullar bilan yengib o'tmoqchi bo'lib, bulardan biri qog'oz assignatsiyalarni chiqarish bo'ldi. 1769-yildan birinchi marta qog'oz pullar paydo bo'ldi (asr so'nggiga borib qog'oz rubl qadrsizlandi va kumush xisobida 68 kopeek turgan). Shuningdek, aynan Yekaterina vaktida Rossiya birinchi marta tashqi qarzlariga murojaat qildi. Birinchi marta 1769-yilda Gollandiyadan, kelasi, 1770-yilda esa Italiyadan qarz oldi.

Rossiyaning byudjeti boshqa yakka hokimlik davlatlarinikiga xos bo'lgan. Daromadlar soliklarni oshirish xisobiga jon soligi, xazina tomonidan vino, tuz va boshqa maxsulotlarni sotilishi, boj soligi, tangalarni zarb etishdan keladigan foyda evaziga ko'payib borgan. Byudjetning harajat qismida armiya va flot uchun harajatlar birinchi o'rinda turgan, boshqarish va saroyini ta'minoti uchun harajatlar keyingi o'rinda turgan. Fan, maorif va san'atni rivojlantirishga oz mikdorda mablaglar sarflangan. Imperatorlikning dastlabki-yillarida Yekaterina II Buyuk fransuz ma'rifatparvari M.F.Volter va uning hamfikrlari bilan muntazam ravishda davlat ishlarini muhokama qilib yozishmalar olib borgan.U siyosatida, Sh.L.Montaskyoning kitobini yo'l ko'rsatuvchi ekanini, ta'kidlagan.

Rossiyaning yanada yaxshiroq bilish maqsadida, unda Pyotr Buyuk singari mamlakatni aylanib chikish istagi tugildi va Yaroslavl va Rostovda hamda Boltiqbo'yida bo'ldi, Volga buylab Tverdan Simbirskga kadar bordi. U

qonunchilikka katta e'tibor karatdi, tarixchilarning xisoblashlaricha, imperatritsa o'zining hukmronlik yillarida bir oyda 12 tadan qonunlar chiqargan.

Yekaterina II ning islohotlarini dastlabkilaridan biri Senatni ma'lum vakolatlarga ega bo'lgan oltita departamentlarga bo'linishi bo'ldi. Senat islohoti mamlakatni markazdan turib boshqarishni yaxshiladi, lekin qonun chiqarish vakolatidan maxrum bo'ldi, bu vakolat kuprok imperatritsani qo'lga o'ta boshladi. Monasto'r dehqonlarining ommaviy galayonlari sharoitida Yekaterina 1764-yilda cherkov mulklarini sekulyarizatsiya (musodara)sini o'tkazdi. 1773-yilda barcha dinlarning tengligi prinsipi amalga kiritildi.

Ye.I.Pugachyev boshchiligidagi 1773-1775-yillardagi dehqonlar urushi kazaklar orasida boshlangan. Pugachyev tomonida turli millatlar va dinlar vakillari qatnashgan. Ularni krepostnoylik tartiblariga qarshi kurashish birlashtirgan. Dehqonlar urushi Ye.I.Pugachyov otryadi tomonidan Yoyik daryosi bo'yidagi kichik shaharlarni bosib olinishi va Rossiyaning janubi-sharqidagi yirik qal'a - Orenburgni kamal qilinishidan boshlandi. Orenburgga yordam berish uchun yuborilgan general V.A.Kara qo'mondonligidagi qo'shin tor-mor etildi. Kuzgolonchilar armiyasi kazak qo'shinlari singari tashqil etilib, kattik tartib va intizom o'rnatilgan bulsada, biroq ilgari dehqonlar urushlari kabi stixiyali bo'lib kolaverdi. Ye.I.Pugachyovning safdoshlari - boshqird Salavat Yulayev, ural zavodlari ishchilari Xlopusha va Ivan Beloborodov, kazak Ivan Chiki-Zarubin hamda boshqalar boshchiligidagi kuzgolonchilarning ayrim otryadlari Kungur, Krasnoufimsk, Samarani bosib olishdi.

Yekaterina II dehqonlar harakatining kuchayishidan hayikib, general A.I.Bibikov boshchiligidagi hukumat qo'shinlarini kuzgolonchilarga qarshi junatdi. 1774-yil mart oyida Ye.I.Pugachyov Orenburg rayonidagi Tatishyev qal'asi yonidada maglubiyatga uchradi. Kuzgolonchilar Ural tomonga chekinishdi, u yerda dehqonlar va ishchilar xisobiga o'z armiyasi saflarini tuldirib, Kozon tomonga yurishdi va 1774-yil iyulida Kozonni egallashdi. Biroq tez orada shaharga polkovnik I.I.Mixelson qo'mondonligidagi podsho qo'shinlari yaqinlashdi. Yangi jangda Ye.I. Pugachyev yana maglubiyatga uchradi. 500 kishilik otryad bilan u Volganing ung

kirgogiga utdi. U Volga buylab janubga tomon yurdi, u don kazaklaridan kumak olmokchi bo'ldi. Ye.I.Pugachyov Saritso'nni olishga o'rinish chogida Salnikov zavodida so'nggi magluyatga uchradi. o'ziga sodik oz sonli kishilar bilan Volga ortiga yashirinmokchi bo'ldi, lekin o'ziga tuk kazaklar guruhi Ye.I.Pugachyovni ushlab, hukumatga topshirishdi. Ye.I.Pugachyov yogoch kafasda Moskvaga junatildi. 1775-yil 10-yanvarda Ye.I.Pugachyov va uning yaqin safdoshlari Moskvadagi Bolotnaya maydonida katl etildi. Hukumat kuzgolon katnashchilaridan shafkatsiz tarzda uch oldi, Volga daryosida va boshqa daryolarda dorlar qurilgan sollar suzib yurgan.

Yekaterina II tomonidan dvoryanlikni markaz va joylarda mustaxkamlash yuzasidan tadbirlar kurildi. Rossiya qonunchiligida birinchi marta davlat boshqaruvi mahalliy organlari va sudlarni faoliyatini belgilovchi xujjat yuzaga keldi. Mahalliy organlarning bu tizimi XIX asrning 60-yillaridagi Buyuk islohotlarga kadar mavjud bo'ldi. Yekaterina II tomonidan amalga kiritilgan mamlakatni ma'muriy bo'linishi esa 1917-yilga kadar saqlanib qoldi. 1775-yil 07-noyabrda mamalkatni guberniyalarga bo'lib boshqarilishi haqida qonun chiqarildi, unga ko'ra mamlakat 50 ta guberniyalarga bo'lingan. Har bir guberniyada 300-400 ming erkak aholi yashashi lozim bo'lgan. Guberniyalarni bevosita imperatritsaga buysunadigan gubernatorlar boshqargan. Poytaxtlar va boshqa bir nechta guberniyalar general-gubernatorlarga buyso'ngan. Gubernator qoshida gubern boshqarmasi bo'lgan. Guberniyalar esa o'z navbatida har birida 20-30 ming erkak aholi yashovchi uездlarga bo'lingan. Sud organlari ijro etuvchi organlardan ajratildi. Senat-oliy sud organi xisoblanib, gubernalarda jinoyat va grajdan sudlari palatasi tashqil etilib, ularning a'zolari davlat tomonidan tayinlangan

Shaharlar alohida ma'muriy birlikka ajratildi. 1785-yil 21-aprel ya'ni Yekaterina II ning tugilgan kuni dvoryanlar va shaharlarga yorliqlar berilgan. Unga binoan dvoryanlarning huquq va majburiyatlari belgilandi. Shahar aholisi esa oltita razryadlarga ajratilgan. 60-70-yillarda Yekaterina II mamlakat hayotidagi maorifga katta e'tibor karatgan. Badiiy Akademiyaning prezidenti va Quruqlikdagi shlyaxet korpusi direktori I.I.Betskoyning maorif sohasida islohotlar amalga ohirishga

o‘rinishi ijobiy bo‘lib, uning rejasiga ko‘ra Moskva va Peterburgda Tarbiya uylari, qizlar smolno‘y instituti, Moskvada Kommersiya bilim yurti ochilib, Kadet korpuslari qayta tashqil etildi. Asr so‘nggida mamlakatdagi 550 ta o‘quv yurtida 60-70 ming o‘quvchilar bo‘lgan.

Dehqonlar urushi, rus va fransuz ma‘rifatparvarlarining g‘oyalari, Buyuk Fransuz inqilobi va Shimoliy Amerikadagi mustaqillik uchun urushni AQShni tashqil topishiga olib kelishi (1775-1783) Rossiyada krepostnoylik tuzumiga qarshi dunyoqarashni tug‘ilishiga olib keldi. Aleksandr Nikalaevich Radihyev (1749-1802) «Peterburgdan Moskvaga sayohat» yerni haqiqiy egalari bo‘lgan dehqonlarga berishga chaqirgan.

Pavel I (1796-1801) onasining vafotidan so‘ng 42 yoshida taxtga o‘tirdi. 1797-yilda Petr I ning taxtni merosga qoldirish farmoniga o‘zgarish kiritdi. Taxt faqat erkakdan erkakga o‘tadigan bo‘ldi. 1797-yil uch kunlik barshina haqida manifest qabul qilindi. 1801-yil 12-mart kuni taxt vorisi Aleksandr I ishtirokida saroy to‘ntarishi (Rossiya tarixidagi oxirgisi) amalga oshirildi. Pavel I Peterburgdagi Mihaylovsk qal’sida o‘ldirildi.

Tashqi siyosatdagi asosiy vazifalar janubiy dengizlar - qora va Azov dengizlariga chiqishi edi. XVIII asrning III- choragidan Polsha masalasi ham muhim rol o‘ynadi. 1768-1774-yildagi rus-turk urushi masalasiga kelsak, urush harakatlari 1769-yilda boshlanib, Moldaviya va Valaxiya hududida olib borilgan. 1770-yilda P.A.Rumyansyev qo‘mondonligidagi rus armiyasi Larga va Kagil daryolarini Prutga quyilish joyida g‘alaba qozonib Dunayga chiqdi. A.G.Orlov va admirallar G.A.Spiridonov va I.S.Greyg boshchiligidagi rus floti Peterburgdan chiqib, Boltiq, Shimoliy dengizlar, Atlantika okeanida suzib, Gibraltar bugozi orqali o‘rta yer dengiziga kirib, kichik Osiyodagi Chesmen buxtasida turk esqadrasini tor-mor qildi. Rossiya va Turkiya o‘rtasida 1774-yilda sulx tuzilib, unga ko‘ra Rossiya Qora dengizga chiqdi, qora dengizda rus harbiy-dengiz kemalari bimalol suzadigan va Bosfor va Dardanell dan o‘tish huquqiga ega bo‘ldi. Azov va Kerch, Kuban va Kabarda Rossiyaga tarkibiga o‘tdi. qrim xonligi Turkiyadan mustaqil bo‘ldi. Turkiya Rossiyaga 4 mln. rubl kontribsiya to‘ladi. Turkiya yana Krimga tahdid soldi.

1783-yilda Rossiya Krim yarim orolini qo'shib oldi, Sevastopolga asos solindi, qrimning ilgargi nomi Tavrida bo'lgan edi. 1783-yilda Rossiya Sharqiy Gruziyani o'z protektoratiga aylantirdi.

1787-1791-yillarda navbatdagi rus – turk urushi bo'lib o'tdi. A.V. Suvorov 1789-yilda Rimnik daryosi bo'yidagi turk armiyasi ustidan qozongan g'alabasi uchun Rimnikskiy unvonini oldi. Suvorov qo'shini 1790-yilda Izmail qal'asini shturm bilan egalladi. Kutuzov ham bu jangda qatnashdi. Admiral Ushakov 1791-yilda turk flotini tor-mor qildi. 1791-yilda Turkiya va Rossiya o'rtasida Yassi sulxi tuzildi.

1788-1790-yila rus –shved urushi bo'lib utib, Verel sulhiga ko'ra eski chegaralar saqlanib qoldi. Prussiya, Avstriya va Rossiya o'rtasida Polsha 1772, 1793 va 1795-yillarda uch marta bo'linib olindi.

Rossiya 1799-yilda Neapol va Rimni fransuzlardan ozod qildi. Suvorov esa Italiya yurishlarida Milan va To'rinni ozod qildi, Alp tog'laridan o'tib (Shveysariya yurishi) Shimoliy Italiyani egalladi.

XVIII asrdagi rus madaniyati mamlakat iqtisodini o'sishi bilan rivojlanib bordi. Pyotr I davriga kadar maktablar ruhoniylar qo'lida edi, endi esa dunyoviy maktabga aylandi. 1701-yilda Moskvada matematika va navigatsiya fanlari maktabiga asos solindi. 1715-yilda dengiz akademiyasiga asos solindi. Artilleriya, Injenerlik va Meditsina maktablariga asos solindi. 1702-yildan «Vedomosti» gazetasi nashr etila boshladi. 1714-yildagi farmonga ko'ra guberniyalarda 42 ta maktablar ochilib faoliyat ko'rsatgan, ularda krepostnoy dehqonlarni bolalari ukimagan. Dvoryanlarni armiya va flotda xizmatga tayyorlash uchun Peterburgda Shlyaxet (dvoryan) korpusi ochildi. M.V.Lomsnosovni tashabbusi bilan 1755-yilda Moskva universiteti ochildi. Leksiyalar rus tilida o'qilgan. Fan sohasida 1725-yilda Peterburgda fanlar akademiyasi ochildi. Tatishyev va Lomonosovlar - rus tarix faniga asos solishdi. 1719-yilda birinchi rus, tabiiy-tarixiy muzeyi-Kunstkamera ochildi. Lomonosov M.V. (1711-1765) tomonidan chet elliklar o'rniga rus mutaxasislari fanga jalb etildi. Turmush tarzi va odatlarda ham o'zgarishlar bo'ldi. Pyotr I Yevropadan Buyuk elchilikdan qaytgach o'ziga xos shoshqaloqlik bilan

boyarlarni soqollarini qirdirib, uzun yenglarini va etaklarini kestirdi. U sochlarni kalta kesib soqollarini qirdirishni buyurdi. Soqol qo'yish faqat ruhoniylar va dehqonlarga ruxsat etildi. Yevropacha kiyim amalga kiritildi. 1649-yildagi Sobornoe qonunlariga ko'ra taqiqlangan tamaki chekishga endilikda ruxsat etildi, chunki tamaki chekish ilgari jinoyat hisoblanardi. Pyotr I ning buyrug'i bilan nemis tilidagi yaxshi xulq-atvor va muomala haqidagi qo'llanma rus tiliga tarjima qilinib, Pyotr I tomonidan qo'shimchalar kiritildi. Unda ota-onaga katta izzat-ikrom ko'rsatish, savollarga tez javob qaytarish, kattalarga xushmuomalada bo'lish talab etilgan. Jamiyatda o'zini qanday tutish haqida maslahat berilgan.

1700-yil 1-yanvardan Rossiyada yangi yil bayram qilina boshladi va archalar bezatilgan. 1700-yil 1-yanvardan Rossiya boshqa Yevropa davlatlari kabi yangi yil hisobiga o'tdi, yil hisobi Isus Xristos tug'ilishidan hisoblanadi.

Arxitekturada, XVIII – asrda qurilish sohasida rejali asosda, geometrik to'g'ri, simmetrik tarzi harakterli bo'lib ko'chalarni joylashishida yagona tartib va usullar o'rnatildi. Binolarni hajmi va balandligini ma'lum nisbati belgilandi. Rossiya imperiyasining yangi poytaxti – Sankt-Peterburgni qurilishida bu talablar amalga oshirildi. Ilk barokko arxitektorlari J.Leblon, D.Trezini bu ishni amalga oshirdilar. Trezini Pyotr I saroyini yozgisini, Petropavlovek qal'asi soborini, o'n ikki kollegiya binosini yaratgan. Maxsus komissiya tuzilib, katta rus shaharlarini 400 ga yaqin qayta qurish rejasi ishlab chikildi. XVIII asrning I yarmida arxitekturada barokko usuli harakterli bo'lib, bunda qurilishlar monumental bo'lib, xashamatliligi, ustunlarni ko'pligi, quyma yopishtirilgan bezaklar va bo'rtma suratlari bilan ajralib turgan. Barokko ustalarini eng mohiri V.V. Rastrelli bo'lgan. Mashhur arxitektorning otasi B.K.Rastrelli barokko ustalarining eng mohiri bo'lgan. Haykaltaroshlikda F.I.Shubin M.V.Lomonosov, A.M.Golitsin, G.A.Potemkin, P.A. Rumyansyev, imperator Pavel I larning haykalini yaratgan.

Rassomchilikda esa Matveyev A.T. va I.N.Nikitinlar asosan portret belgilaridan tashqari ularni ichki dunyosi, ruxiy o'ziga xos xususiyatini ko'rsatishga intilishgan. Portret rassomligidan tashqari grafika, mozaika, peyzaj rassomchiligi ham keng yoyildi. Birinchi professional rus teatri 1750-yilda savdogar F.G.

Volkovning tashabbusi bilan Yaroslavl'da tashqil etildi. Ikki yil o'tgan bu teatr Peterburgga ko'chib o'tdi. 1756-yilda podsho farmoni bilan Rossiya teatriga (hozirgi A.S.Pushkin nomidagi Akademik drama teatri) aylantirildi. Bir vaqtning o'zida mamlakatda krepostnoy dehqonlar faoliyat ko'rsatgan teatrlar va orkestrlar tashqil etildi. 1738-yilda Peterburgda birinchi balet maktabi ochildi. Dastlabki rus opera spektakllaridan «Anyuta» operasi bo'lgan, uni kompozitor V.A.Pakevich yaratgan.

Nazorat uchun savollar

1. Yekaterina II Buyuk islohotlari?
2. XVIII asrda Rossiyada faoliyat ko'rsatgan yollanma ishchilarning soni qancha bo'lgan?
3. XVIII asrning II-yarmida Rossiya davlatining asosiy savdo hamkori qaysi davlat bo'lgan?
4. Ye.I.Pugachyev boshchiligidagi dehqonlar urushining sababi nima edi?
5. XVIII asrdagi Rossiya madaniyati va arxitekturasi haqida gapirib bering?

2.4. XIX ASRINING I YARMIDA ROSSIYANING IQTISODIY VA IJTIMOIIY TUZUMI

Tayanch soʻz va iboralar: *General-gubernatorlik; sanoat revolyutsiyasi; modernizatsiya; texnologiya; assignatsiya; kommersiya; eksport; import; kommunikatsiya; saroy toʻntarishi; sinod; konservativ; arakcheyevchilik;*

XIX asrining I yarmida Rossiya imperiyasining territoriyasi Sharqiy Yevropa, Osiyo (Sibir va Kavkaz), Shimoliy Amerikada (Alyaska) 18 million kvadrat kilometrga yetdi, aholisi soni esa ikki baravar koʻpayib 70 mlnga yetdi. Boy resurslari: oʻrmonlar, daryolar, shudgor yerlar, foydali qazilmalar (ruda, koʻmir, neft, qimmatbaho metallar va toshlar) sanoatni tez rivojlanishiga imkon berdi. Iqlim, xoʻjalik va etnik jihatdan turli mamlakatning turli rayonlarining oʻziga xos rivojlanishini belgiladi.

Rossiya imperiyasi hududi guberniya va oblastlarga boʻlinib, ular esa oʻz navbatida uezdlarga ajralgan. Rossiyaga yangi teritoriyalarni qoʻshib olinishi evaziga guberniyalarning soni koʻpaydi, ular yiriklashtirildi, oblastlarga aylantirildi yoki general-gubernatorlikka birlashdilar. 1809-yilda Finlandiya, 1815-yilda Polsha qoʻshib olindi.

Rossiya krepostnoylik va absolyutistik (mutlaq hokimiyat) davlati edi. Iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy imtiyozlar olishgan dvoryanlar jamiyatdagi asosiy ijtimoiy-siyosiy kuch boʻlib qolaverdi, podsho hukumati esa ularni qoʻllab quvvatlashda davom etdi.

Aholining koʻp sonli qismi dehqonlar edi. Ular bir necha kategoriyalarga boʻlinishgan: pemoshchik yoki xususiy mulklarga qarashli, davlat, udel (imperator oilasiga tegishli yerlarda ishlovchi) va iqtisodiy (sobiq monastrlar). Shunday qilib, Rossiyada ozod erkin aholi amalda yoʻq edi. Savdogarlar va shahar mayda burjuaziyasiga mansub odamlar aholining bir necha foizini tashqil etadi. Davlatning chegara hududlarini qoʻriqlash vazifasini bajaruvchi harbiylashtirilgan toifa, kazaklar alohida mavkega ega boʻlgan.

XIX asrining I yarmi iqtisodiyotda chuqur rang-baranglik harakterli edi. Tovar-pul munosabatlarini kengaytirilishi va yollanma mehnatni qo'llanilishi, sanoatni qayta texnik qurollantirishini boshlanishi kabi yangilanishlar natural-patriarxal tartib, xo'jalik yuritishni krepostnoy huquqi, texnikaning eski mutaassib xoldagi holati bilan birga qo'shilib ketgan edi. Kapitalistik ishlab chiqarish birinchidan: yollanma ishchi kuchi bozorini, ikkinchidan kapital, ya'ni ishlab chiqarishgan qo'yilgan pul mablag'larini, uchinchidan, aholining nisbatan yuqori harid qobiliyatini talab etardi. Biroq krepostniklik tizimi bu shart-sharoitlarni yuzaga kelishga to'sqinlik qilar, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini sekinlatardi va binobarin, mamlakatni modernizatsiyalashga xalal beradi. Rossiya g'arbdan ajralib turadigan o'zining yo'lidan bordi. Angliya,Fransiya va boshqa mamalkatlarda bo'lib o'tgan burjua inqiloblari Rossiyani chetlab o'tdi. XIX asrining I yarmi davomida o'zining an'naviy iqtisodiy va ijtimoiy tizimini saqlab qoldi. Shunga qaramay, davlatning umumilliy ob'ektiv e'xtiyojlari va podsho hokimiyatining sub'ektiv manfaatlari, ishlab chiqarish kuchlarining asta-sekin rivojlanib borishi 1861-yilda krepostnoy huquqini qulashga va binobarin, Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzilishini o'zgarishiga olib keldi.

Qishloq xo'jaligi: XIX asrining I yarmida Rossiya agrar mamlkat bo'lib qolaverdi. Qishloq xo'jaligida uning aholisning o'ndan to'qqiz qismi band edi. Agrar sektorning yarmiga yaqini pomeschchik xo'jaligi, qolgan qismi davlat feodalizmi tizimi egallab bunda yer va dehqonlarga davlatning o'zi egalik qilardi. Natural xo'jalik chirib bordi va qishloqqa tovar-pul munosabatlari kirib bordi. Pomeschchik xo'jaligida ko'proq sanoat uchun maxsulot yetishtirila bordi. Bug'doy eksportini ahamiyati oshib bordi. XIX asrining o'rtalarida bu ko'rsatkich 70 mln pudga yetdi. Kartoshka aholining asosiy oziq-ovqat maxsulotiga, dala ekiniga aylandi.

Ammo pomeschchik imenielarning hammasida krepostnoy dehqonlarning majburiy mehnatidan foydalanish davom ettirildi. Krepostniklik sharoitida xo'jalikni samaradorligini oshirishning eng keng yoyilgan usuli dehqonlarni ekspluatatsiyasini kuchaytirish edi. Ular natural va pul obrokni to'lashlari,

barshinani ishlab berishlari shart va majbur edi. XIX asrining I yarmida obrok 2-5 baravarga o'sdi. Barshinani dehqonlar pomeschchik uchun har xaftada 3 kundan 5 kungacha ishlab berishlari zarur edi. Pomeschchik xo'jaligi astalik bilan inqirozga uchrab bordi. XIX asrining o'rtalariga kelib imeniellarning 65 foizi qarzdor bo'lib qoldi. Pomeschchiklarni davlatdan va kredit muassasalaridan bo'lgan qarzi 400 mln rublga yetdi.

Rossiya g'arbdan farqli ravishda dehqonlarning yerdan foydalanishida jamoa tizimini saqlanib qolgani mustaxkamlangani harakterli edi. Bunda yerlar dehqon xovlilari o'rtasida bo'linib, dehqon xo'jaliklarini maxsuldorligini o'sishiga xalal berib, qishloqda ishlab chiqarish kuchlarini o'sishiga to'sqinlik qilardi. Bu esa agrar masalada uch narsani: dehqonlarni shaxsan ozod qilish, ularni yer bilan ta'minlash va yerdan foydalanishdagi jamoa intizomini o'zgartirishni talab etardi.

Sanoat: XIX asrining boshlarida ham Rossiyaning sanoat korxonalarida asosan majburiy va qisman yollanma mehnatdan foydalanilgan. Xususiy va davlat manufakturalari keng tarqalgan Ural va boshqa rayonlarda, majburiy mehnatga asoslangani uchun, asta-sekin iqtisodiyotdagi ilg'or o'rinlarni boy bera boshladilar. Bu korxonalar kam foyda keltirib, oz maxsulot berib, aholining sanoat maxsulotlariga bo'lgan talab-ehtiyojini qondira olmay qoldi. Rossiya ishlab chiqarishni rivojlanish sur'ati va hajmi jihatdan kapitalistik mamlakatlardan yanada ortda qola bordi. Masalan, Angliyadan cho'yan quyish bo'yicha 3,5 baravar orqada edi.

XIX asrining 30-40-yillarida Rossiya g'arbiy Yevropaga qaraganda kechroq sanoatdagi keskin o'zgarish (sanoat revolyutsiyasi) boshlangan edi. Uni asosiy mazmuni manufaktura ishlab chiqarishini fabrika ishlab chiqarishi bilan almashinishni tashqil qilardi. Bir tomondan bu sanoatni texnik qayta qurollantirish, hamma joyda qo'l mehnatini mashina bilan almashtirish, ishlab chiqarishni turli dvigatellarni va o'sha vaqt uchun ilg'or bo'lgan texnologiyalarni jalb etish bilan bog'liq edi. Boshqa tomondan, u kapitalistik jamiyat uchun harakterli bo'lgan yangi sinflarning yuzaga kelishi chuqur ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liqligi kuzatildi. Krepostnoy huquq bu jarayonlarni sekinlatdi. Uning bekor qilinishi (1861) XIX

asrining 70-yillarida oxiri 80-yillarnig boshlarida sanoatda keskin o'zgarishni tugallanishini tezlatdi.

Rossiyada yollanma mehnatni qo'llanilishi asosida asosiy sanoat rayonlari vujudga keldi-Shimoliy-g'arbiy (Peterburg-Bol'tiqbo'yi), Markaziy (Moskva), va Janubiy (harkov). Sanoatni Rossiyaning ayrim qismlarida jamlanishi uning iqtisodining xususiyatlaridan biri edi. Ishlab chiqarishning tashqil etishda uning yangi usullari yengil sanoatga tezroq kiritildi (to'qimachilik, oziq-ovqat va qog'oz tayyorlash). Bu sohalarda ishchilarning qo'l mehnati tez suratlarda mashina bilan almashtirildi, yangi korxonalar tashqil etilib, eskilari qayta jixozlandi (Moskva to'qimachilik Proxorov manufakturas). Bunday o'zgarishlar og'ir sanoatda bir muncha og'ir kechdi. Temir va cho'yan ishlab chiqarishda ot yordamida harakatga keltirish o'rniga par orqali ishlaydigan dvigatellar qo'llanildi. (Peterburg cho'yan quyish zavodi va boshqalar). Chet elda ishlangan mashina asbob-uskunalar asosan Angliya va Belgiyadan keltirilgan. Shunga qaramasdan XIX asrining I yarmida mashinasozlik sanoati paydo bo'la boshladi. Birinchi zavodlar Peterburg, Nijniy Novgorod (Sarmovo) va boshqa shaharlarda vujudga keldi. Ammo bu sohalar XIX asrining oxiriga qadar yetarlicha rivojlanmadi.

Yirik shahar markazlaridan uzoqda va asosiy savdo yo'llarida kosib-hunarmandchilik ishlab chiqarishi gullab o'sdi. Fabrikalar bilan bir qatorda bu holat yengil sanoat (to'qimachilik, teriga ishlov berish, yog'ochni qayta ishlash)ni ko'plab sohalar uchun harakterli bo'lgan. Ko'plab metall buyumlar kustar (hunarmandchilik) yo'li bilan ishlab chiqarilgan.

Binobarin, XIX asrining I yarmida Rossiyada krepostnoy va yollanma manufakturalar, fabrika ishlab chiqarish va kustar (mayda maxsulot ishlab chiqarish) sanoati mavjud bo'lgan.

Sanoatdagi keskin o'zgarishlar boshlanishi bilan yangi ijtimoiy toifa, tabaqa yollanma ishchilarni – vujudga kelishi bog'liqdir. Krepostnoy manufakturalarda ishlovchi odamlar zarur ishlab chiqarish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishni xoxlashmasdi, ko'pincha mexanizmlarni sindirishar va ishdan chiqarishardi. Fakat yollanma mehnatni rivojlanishi bilan samarali fabrika ishlab chiqarishiga o'tish

mumkin edi. Manufaktura va fayurikalarga mulksiz shaharliklar, davlat dehqonlari va o'z xo'jayinlarining ruxsati bilan pul ishlab kelishga ketgan krepostnoylar yollanishardi. 1860 ishchilarning 4g'5 qismini yollanma ishchilar tashqil etardi. Ishchilar ozgina, arziyas ish xaqi evaziga kuniga 13-14 soat ishlashardi.

Rossiya burjuaziyasining vujudga kelishi o'ziga xos xususiyatga ega bo'ldi. Birinchidan, yirik miqyosdagi ishlab chiqarishni tuzish zarur bo'lgan jamg'arma (kapital)lar juda sekinlik bilan va ko'plab suiste'mol qilishlar orqali to'plandi. Savdogarlar katta boyliklarni vino sotish orqali va boshqa yirik davlat ishlarida boyidilar. Kommersiya va moliya operatsiyalari ko'pincha noqonuniy harakatlar-xazinani talon-taroj qilish, poraxo'rlik, aholidan pul mablag'larini ta'magirlik yo'li bilan undirish orqali amalga oshirilgan. Ikkinchidan, uzoq muddat davomida "yosh" rossiya burjuaziyasi bir paytning o'zida ham savdo, ham ishlab chiqarish bilan shugullangan. Uchinchidan, ko'plab tadbirkorlarning kelib chiqishi boyib ketgan krepostnoy dehqonlardan bo'lgan.

Asta-sekinlik bilan Rossiya burjuaziyasining sulolalari tarkib topdi-Sapojnikovlar, Morozovlar, Guchkovlar, Bibikovlar, Kondrashevlar va boshqalar. Savdo orqali topilgan pullar sanoatga sarf qilindi. Masalan, savdo doiralaridan kelib chiqqan I.M. Kondrashyev yirik ipak fabrikalari qurib ularning maxsulotlari butun Yevropada mashxur bo'ldi. Bu paytda Rossiya burjuaziyasi iqtisodiy zaif bo'lib, mamlakatning ijtimoiy hayotida faol rol o'ynamagan, hukumat ular haqida kam qayg'urgan.

Moliya: XIX asrining boshlarida rus hukumati Napoleonga qarshi urushlarni moliyalash va dvoryan yer egaligini qo'llash uchun yirik miqdorda assignatsiya (emissiya)lar ya'ni qog'oz pullarni chiqardi, bular birinchi marta XVIII asrning o'rtalarida muomalaga kiritilgan edi. Asrning 1-choragida assignatsiyalar emissiyasi (chiqarish) 4 baravar o'sdi. Natijada ular keskin qadrsizlandi. Pavel 1 va Aleksandr I larning inflyatsiyani bartaraf etish uchun o'rinishlari natija bermadi. Shuning uchun 1839-1844-yillarda moliya ministri graf Ye.F.Kankrinning tashabbusi bilan moliyaviy islohot o'tkazildi. Pul muomalasining asosiga kumush rubl qo'yildi. 1843-yildan assignatsiyalar asta-sekin aholidan majburiy kursi 3,5 rubl assignatsiya

1 kumush rublga teng miqdorda kredit билетlariga almashtirila boshlandi. Kredit билетlar kumushga erkin ravishda almashtirilgan. Reforma bir muncha vaqt Rossiyaning moliyaviy tizimini mustaxkamladi. Ammo 1853-1856-yillardagi Qrim urushi yangi moliyaviy qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Davlatning ichki va tashqi qarzi bir necha barobarga ko'paydi.

Savdo: XIX asrining I yarmida butunrossiya bozorini vujudga kelishi davom etdi. Sanoatni rivojlanishi, shaharlarning o'sishi va regionlarni xo'jalik ixtisoslashuvi savdoni rag'batlantirdi. Dvoryanlar, savdogarlar va shaharliklarnig bir qismi asosiy iste'molchilar bo'lgan.

Savdo operatsiyalarining kengayishi va maxsulotlar assortimentining ko'payishi xisobiga ichki bozorda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. qishloq xo'jaligi maxsulotlari bilan bir qatorda, bozorda sanoat maxsulotlarini keng tarqalishi alohida ahamiyat kasb etdi. Bu paytda xanuz butunrossiya va mahalliy yarmarkalari savdo markazlari rolini o'ynagan. Ular Rossiya bo'yicha 6000 dan ortiq bo'lib mavsumiy, ko'tarasiga ulgurji (optoviy) va mayda ulgurji (melkooptovoy) tizimdan iborat bo'lgan. Volga bo'yidagi Nijegorod, Sibirdagi Irbit va Yaroslavl guberniyasidagi Rostov yarmarkalari keng mashxur bo'lgan.

Rossiyaning yirik shaharlarida magazin (chakana) savdosi shiddat bilan rivojlandi. XIX asrining 1-yarimda yirik tashqi savdo sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Uning balansi umuman o'zgarmasdan aktiv holatda qoldi ya'ni chetga maxsulot chiqarish maxsulot keltirishdan ustunlik qildi. Ammo eksportning tuzilishi o'zgardi, undan qora metallar g'oyib bo'ldi, uning o'rniga qishloq xo'jalik maxsulotlari ustun kela boshladi. Bug'doy, yog'och, qaymoq, teri, zig'ir tolasi va boshqa maxsulotlar chetga chiqarilgan.

Import asosan dvoryanlaring ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Rasm-rusum (moda) bo'lgan kiyimlar, mustamlakalardan choy, kofe maxsulotlari va mamlakatning qishloq xo'jaligi va sanoatini rivojlantirish uchun zarur narsalar keltirilgan.

Transport: Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi ichki va tashqi savdoning kengayishi, savdo markazlari (yarmarkalar)ning ko'payishi-bularning

barchasi transport tizimining qayta tashqil etilishini va yaxshilanishini talab qilardi. 1808-1811-yillarda Marin va Tixvin kanallari tizimi barpo etilib, ular Boltiq dengizini Moskva va Volga savdo yo'li bilan bog'lagan. Rossiya daryolarida dastlabki kema (paroxod)lar paydo bo'ldi. Yo'llarning holati mamlakatning iqtisodiy va harbiy-strategik ehtiyojlariga javob bermasdi. Rivojlangan quruqlik yo'llarining yo'qligidan g'arbiy Yevropa bilan tashqi savdo asosan Boltiq va qora dengizlari portlari orqali olib borilgan. Yevropa bilan savdoda asosan chet el kemalaridan foydalanilgan. 1837-yilda birinchi tajriba temir yo'l tarmog'i Moskva va Peterburg o'rtasida ochildi. 1861-yilda temir yo'llarning uzunligi 1,6 ming kilometrga yetgan bulsada, biroq bular savdo va mudofaa ehtiyojlari uchun kam edi.

XIX asrining I yarmida mamlakatning ichki siyosati. Hukumatning diqqat markazida uchta muhim muammolar turgan: ma'muriy boshqaruvni takomillashtirish, ijtimoiy- g'oyaviy agrar-dehqon masalasi, maorif va ta'lim tizimini yaxshilash. 1-masalani xal etishda hukumat ma'muriy apparatni markazlashtirish, ma'lumotli kasbini chuqur bilgan amaldorlardan iborat qadrlarni tayyorlash, ularni imperatorga shaxsan sodiq va olayotgan maoshiga moddiy bog'liqligini ta'minlash; Dehqonlar masalasini xal etishda asosan qishloqdagi keskinlikni bartaraf etish, dehqonlarni chiqishlarini oldini olish bo'lgan. Buning uchun mamlakatni iqtisodiy rivojlanishini to'xtatib turgan, ilg'or jamoyatchilikni noroziligini keltirib chiqargan va Rossiyani g'arbiy Yevropa oldida sharmanda qilayotgan krepostnoylikning o'ta xunuk ko'rinishlarini yo'q qilish zarur edi. Hukumatning ta'limni rivojlantirishdan maqsadi - samoderjavieni va dvoryanlarni imtiyozli holatini mustaxkamlanishiga olib kelishi hamda mamlakatni mudofaa qobiliyatini ta'minlanishi va faol tashqi siyosat olib borish imkonini berardi.

Davlat boshqaruvi tizimi: Imperator Aleksandr I (1801-1825). 1801-yil 11-dan 12-martga o'tar kechasi Rossiyada oxirgi saroy to'ntarishi amalga oshirildi. Peterburgning oliy aslzodalaridan bo'lgan fitnachilar imperator Pavel 1 ni o'ldirishdi. Rossiyaning taxtiga uning katta o'g'li Aleksandr chiqdi. Uning buvisi Yekaterina 11 nevarasini yoshligidanoq otasidan alohida ta'lim va tarbiya bergan. Rossiyaning ko'zga ko'rgan yozuvchi va olimlari uning o'qituvchilari bo'lgan.

Aleksandr I taxtga o'tirgach otasi davrida taqib qilingan odamlarga amnistiya (avf) e'lon qildi, shuningdek chet elga erkin chiqib kelishga hamda chet eldan kitoblar keltirishga ruxsat berildi. Angliya bilan savdodagi cheklanishlar bekor qilindi. Bu tadbirlar Aleksandrga liberallik shuxratini keltirdi.

Petr 1 davrida joriy etilgan kollegiyalar 1802-yilda ministrlklar bilan almashtirildi. Natijada markaziy ijroiya hokimiyat sezilarli kuchaydi. Bu islohot davlat boshqaruv organlari funksiyalarini aniq belgilash jarayonini yakunladi. U tarmoqlar boshqaruvi tizimini mustaxkamlanishiga, kollegiyalikni yagona boshqaruv bilan almashinuviga, ministrnlarni imperator oldida to'g'ridan-to'g'ri javobgarligiga olib keldi. Rossiyada podshoning marhamatiga va unga xizmati evaziga oladigan maoshiga to'la bog'liq bo'lgan rasmiyatchi amaldor (byurokrat)lar guruhi yoki katlami yuzaga kela boshladi. 8 ta birinchi ministrlklar tashqil topdi. Harbiy-quruqlik kuchlari, harbiy-dengiz kuchlari, tashqi ishlar, adliya, ichki ishlar, moliya kommersiya, va xalq maorifi. Ministrlar bilan ba'zi masalalarni birgalikda muhokama qilish uchun Ministrlar kengashi ta'sis etildi. 1802-yilda Senat islox qilinib, davlat boshqaruv tizimida oliy ma'muriy, sud va nazorat organi bo'lib qoldi. Pravoslav cherkovini boshqaruvi hamon davlatga bo'ysunardi. Diniy ishlarni muqaddas sinod boshqarib uning a'zolari imperator tomonidan tayinlanardi. Sinodni ober-prokuror boshqarib, u podshoga yaqin bo'lgan harbiy yoki grajdan shaxslar orasidan tayinlangan. Aleksandr 1 davrida ober-prokuror lavozimini 1803-1824-yillarda knyaz A.N.Golitsin bajargan, u 1816-yildan shuningdek xalq maorifi ministri ham bo'lgan.

Davlat boshqaruvi tizimida islohot o'tkazishning faol tarafdori stats-sekretar M.M.Speranskiy (1772-1839) bo'lgan. U kambag'al qishloq ruxoniysining ug'li bo'lib, o'z aqli va ishchanligi bilan davlatning oldingi shaxslaridan biriga aylandi. U ishlab chiqqan davlat boshqaruvi islohotlari loyixasi amalga oshgan taqdirda Rossiyada konstitutsion jarayonlar boshlanishi mumkin edi. qonunchilik, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratilgan bu tarmoqlar Davlat Dumasi vakillarini chaqirish va saylanadigan sud instansiyalarini kiritish orqali amalga oshirilishi; imperator bilan

markaziy va mahalliy boshqaruvni bog‘lab turishlik uchun esa Davlat kengashini tuzishni taklif etgan.

Speranskiyning bu liberal loyixasiga konservativ kayfiyatdagi dvoryanlar qarshi chiqishdi. Ularning g‘oyaviy raxnamosi atoqli yozuvchi va tarixchi N.M.Karamzin bo‘ldi. Graf A.A.Arakcheyev Speranskiyga qarama-qarshi reaksiya siyosat yuritdi. U byurokratik tizimni rivojlantirish yo‘li bilan imperatorning mutlak hokimiyatini mustaxkamlashga intildi. Liberallar va konservatorlar o‘rtasidagi kurash konservatorlarning g‘alabasi bilan yakun topdi. Speranskiy ishdan chetlatilib, surgunga jo‘natildi.

Arakcheyevchilik. Aleksandr I ni hukmronligini so‘nggi o‘n-yilligida ichki siyosatda konservativ tendensiyalar sezildi. Uni amalga oshiruvchini nomidan arakcheyevchilik deb ataldi. Bu siyosat absolyutizmni va krepstnoy huquqni mustaxkamlashga qaratilgan edi. Arakcheyevchilikning yorqin ko‘rinishlaridan harbiy qishloqlar-armiyani komplektlash (to‘lg‘azish) va boqishni alohida shakli bo‘ldi.

Harbiy qishloqlarni tuzishdan maqsad-armiyani o‘zini-o‘zi taminlashiga va o‘zi ishlab yetishtirishga erishish, tinchlik sharoitida ulkan armiyani boqib ta‘minlash og‘irligidan mamlakat byudjeti uchun yengillik yaratish bo‘lgan. Bu harbiy qishloqlarni tuzish 1808-1809-yillarda boshlanib, 1815-1816-yillarda ommaviy tartibda tashqil etildi. Peterburg, Novgorod, Mogilyov va Harkov guberniyalarning davlat dehqonlari harbiy qishloqlar turkumi (ryazradi)ga o‘tkazildi. Oilalari bilan joylashtirilib, o‘g‘illari 7 yoshdan kantonchilar xisobiga o‘tkazilib, 18 yoshdan haqiqiy harbiy xizmatni boshlagan, ular odatdagi qishloq xo‘jalik ishlarini bajarib o‘zlariga oziq-ovqat topishlari va bir vaqtning o‘zida harbiy xizmatni bajarishlari lozim edi. Dehqonni oilasini butun hayoti rejaga solingan edi. Ozgina xizmat tartibini buzganlik uchun tan jazosi berilgan. Ular uchun savdo, kasb-hunar, tashqari dunyo bilan munosabat ta‘qiqlandi.

Qishloqlarda mahalliy boshliqlar zo‘ravonlik qilishardi. A.A.Arakcheyev harbiy qishloqlar ustidan bosh qo‘mondon etib tayinlandi. 1825-yilga kelib askarlarning 1/3 qismi harbiy qishloqlarga o‘tkazildi. Ammo hukumatning armiyani

o‘zini-o‘zi qoplashi haqidagi niyati amalga oshmadi, harbiy qishloqlarni tashqil etishga ulkan mablag‘ sarflandi. Keyinchalik hukumat bu amaliyotdan voz kechdi. Aleksandr I 1825-yilda Taganrogda vafot etdi. Uning farzandlari yo‘q edi. Taxt vorisligiga imperator Pavelning ikkinchi o‘g‘li Konstantin nomzodi turardi, lekin u Polsha podsholigi noibi bo‘lib Varshavada yashardi, u taxt da‘vogarligidan voz kechgandi. Pavelning uchinchi o‘g‘li Nikolay Peterburgda yashardi, dekabr oyida u imperator bo‘ldi. Imperator Nikolay I (1825-1855) Rossiyaning ichki va tashqi ahvolini mustaxkamlashga intildi. Imperator kanselariyasi siyosiy, ijtimoiy va diniy ishlarni boshqaradigan bir nechta bo‘linmalarga ajralgan. Kanselyariyaning 3-chi bo‘linmasi va 1827-yilda unga birlashtirilgan jandarmlar korpusi alohida holatni egallagan. Rossiyaning territorial ma‘muriy-bo‘linishiga jandarm okruglari qo‘shildi. Bu esa mamlakat ichidagi siyosiy kuzatuvni samaradorligini oshirardi. 3-bo‘linma Rossiyada hamda undan tashqarida o‘zining agentlari tarmog‘iga ega bo‘lgan. Nikolay I davrida amaldorlarning soni 70 ming kishiga yetgan. U surgundan qaytgan M.M.Speranskiyga Rossiya qonunlarini tartibga solishni topshirdi. 1849-yilda Sobornoe ulojeniedan keyingi barcha qonunlarni jamlab, 1830-yilda 45 tomdan iborat Rossiya imperiyasi qonunlarining to‘la to‘plami nashr qilindi. Mamlakatdagi huquqiy holatga mos keladigan amaldagi qonunlari esa 1832-yildagi 15 jildlik “qonunlar to‘plami”da e‘lon qilindi. Bularning barchasi boshqaruvni byurokratlashtirishni kuchaytirishga qaratilgan edi.

Dehqonlar masalasi: XIX asrining I yarmida Rossiya agrar mamlakat bo‘lib qolaverdi. Aholining asosiy ommasini dehqonlar tashqil qilib ularning ko‘pchiligi pomeshchiklarga qarashli bo‘lib, krepostnoy qaramlikda edilar. Dehqonlar masalasini xal etishda Rossiya g‘arbiy Yevropadagi boshqa davlatlardan ancha ortda edi. Dehqonlarning pomeshchiklarga shaxsiy qaramligi, ularning o‘z mehnatidan manfaatdor emasligi, qishloq xo‘jaligini borgan sari samarasiz qilib qo‘ydi. Erkin ishchi kuchini yo‘qligi sanoatni rivojlanishiga to‘sqinlik qilardi. XVIII asrning 2-yarmidayoq mavjud holatni o‘zgartirish zarurati ochiq-oydin ravshan bo‘lib qoldi.

Ammo pomeshchiklarning ko‘pchiligi o‘z imtiyozlarning kamaytirilishi haqida eshitishni ham xoxlashmasdi. Samoderjaviening tayanchi va hukmron

tabaqasi bo'lgan dvoryanlar krepostnoylikni o'zgarmas holatda ushlab turilishini himoya qilishardi. Shuning uchun hukumat XIX asrining boshlarida hech bo'lmaganda jamiyat tomonidan qoralangan o'ta xunuk shakllarni yopishga harakat qildi. Gazetalarda krepostnoylarni sotilishi haqida e'lon bosish ta'qiqlandi. Dvoryanlar bu farmonni ustamonlik bilan aylanib o'tib krepostnoylarni "arendaga" berish haqida e'lon berishardi. 1803-yilda erkin dehqonlar to'g'risidagi farmon e'lon qilindi, unga ko'ra pomeshchiklar dehqonlarni to'lov evaziga yer bilan birga ozodlikka chiqarishlari mumkin edi. Biroq bu chora krepostnoy tizimiga umuman ta'sir etmadi, chunki XIX asrining 1-choragida xususiy dehqonlarning 0,5 foizigina ozod qilindi. Bir paytning o'zida davlat dehqonlarini xususiy qo'llarga berish ham birmuncha qisqardi. M.M.Speranskiy, A.A.Arakcheyev, P.D.Kisilyov va boshqa ko'plab davlat arboblari Aleksandr I ning topshirig'iga ko'ra dehqonlarni ozod qilish loyixalarini ishlab chiqishdi, biroq bular amalga oshmasdan qolaverdi.

Nikolay I davrida ham dehqonlar masalasi yanada keskinlashdi. Ilgor jamoat arboblari bu masalani darhol xal etilishini talab qilishdi, dehqonlar ham norozilik bildirishdi. Jandarmlarning shefi A.X.Bekendorf buni tushunib, "krepostnoy holat davlat ostidagi poroxli yerto'la" deb ta'kidlagan. Ammo hukumat dehqonlar masalasini xal etishda oshkoralikdan hayiqar edi.

Eski tartiblarni saqlab qolish siyosatini umumiy yo'nalishi dehqonlarning ozod qilinishiga to'sqinlik qilardi.

XIX asrining 1- va 2-choraklarida hukumat krepostnoy huquqini yengillashtirishga qaratilgan choralar ko'rdi. 1841-yilda dehqonlarni yakka xolda va yersiz sotish haqida qonun qabul qilindi. 1843-yilda yersiz dvoryanlarni dehqonlarni sotib olishdan maxrum etishdi. Shunday qilib, dehqon oilalarini ajratilib yuborilishiga barham berildi, chunki ularning a'zolari uy qullari kabi foydalanilar edi. 1843-yilgi farmonga binoan pomeshchiklar dehqonlarni ozodlikka qo'yib yuborishlari, lekin yerni xususiy qilib emas, balki foydalanish uchun berishlari mumkin edi. Bu yer uchun dehqonlar ilgorigidek majburiyatlarini bajarishlari ya'ni barshina ishlab berishi yoki obrok to'lashlari shart edi. Hukumat shuningdek pomeshchik va dehqonlarning o'zaro munosabatlariga ham aralashishga o'rindi,

biroq bu qisman choralar qishloqdagi kreposnik munosabatlarini mohiyatini o'zgartirmadi.

1837-1841-yillarda graf P.D.Kisilyov xabarligida keng tadbirlar tizimi o'tkazilib, davlat dehqonlarini boshqarishda islohot o'tkazildi. Ular qishloq aholisining uchdan bir qismidan ko'prog'ini tashqil qilib, soliq to'lashardi va moliya ministrligi ixtiyorida edilar. Bu islohotning maqsadi soliqlarni yig'ishni osonlashtirish uchun bu turkumdagi dehqonlarni farovonligi ko'tarish va pomeshchiklarga dehqonlarga munosabatda o'rnak ko'rsatish edi. Davlat dehqonlarining boshqaruvi maxsus tuzilgan davlat mulklari ministrligiga berildi. Bu tashqilot o'zlariga qarashli dehqonlarning xo'jalik va turmush zaruriyatlarini qanoatlantirish to'g'risida qayg'urgan, yerlarni chegaralashni o'tkazgan va kam yerlilarni yerlarini kengaytirgan, urug'lik zaxira (fond)sini tuzib, xosilsizlik holatiga oziq-ovqat magazin (sklad, ombor)lari tashqil etgan, soliqlarning adolatli solinishini kuzatgan, qishloqlarda boshlang'ich maktablar va kasalxonalar ochgan. Islohot davlat dehqonlarining huquqiy holatini ham yaxshiladi. Rossiyada birinchi marotaba saylab qo'yiladigan, mahalliy dehqonlarni o'z-o'zini boshqaruvi volostlar (erkak jinsidagi 6000 ming aholi) va qishloq (1500 dehqon jon boshiga)lar darajasiga kiritildi. Mayda kelishmovchiliklarni ko'rib chiqish uchun qishloq va volost sudlari saylangan.

XIX asrning o'rtalariga kelib hukumat doiralarida dehqonlar masalasini xalq etish uchun ba'zi tajribalar tuplanib qoldi.

Maorif sohasidagi hukumat siyosatida XIX asr boshlaridagi liberal yo'nalish 1802-yilda xalq maorifi ministrligini tashqil etilishi, qator yangi o'quv yurtlari (universitetlar, institutlar va litseylar)ni ochilishida 1804-yildagi universitetlarni o'z-o'zini boshqarish haqidagi ustavni nashr etilishida ko'rindi. Ammo bu yo'l asta-sekin konservativ va xatto reaksiya yul bilan almashib bordi. 1817-yilda Maorif ministrligi Diniy ishlar va xalq maorifi deb o'zgartirildi. Bu tashqilot darsliklarni bosib chiqarilishi va barcha darajadagi o'qitish tizimini kuzatib borishi shart edi. qozon, Peterburg va boshqa universitetlarni faoliyatini o'rganish ularni "tozalashga" aylandi. Eng yaxshi professorlarni erkin fikrlashda ayblab, ishdan haydashdi va

sudga berishdi. Aleksandr I davridagi maorif sohasidagi reaksiya siyosat, arakcheyevchilikning ko'rinishlaridan biri bo'ldi. Shunday yo'l Nikolay I davrida ham davom ettirildi. 1835-yildagi Ustav amalda universitetlarni muxtoriyatini yo'q qildi. O'qish uchun to'lov xaqi oshirildi va studentlarni qabul qilish qisqartirildi. Oliy o'quv yurtlarida kazarma intizomi joriy qilindi. Tartibni buzgan studentni kanserga o'tkazish, o'qishdan haydash va xatto soldatlikka berish mumkin edi. Bunday siyosat fan va maorifni rivojini to'xtatibgina qolmasdan, balki butun Rossiya madaniyatiga ham salbiy ta'sir etdi.

Nazorat uchun savollar

1. XIX asr boshlarida Rossiyada qanday boshqaruvda shakli hukmron edi boshqaruvda amalga oshirilgan islohotlar?
2. XIX asrining I yarmida Rossiya aholisining qancha qismi qishloq xo'jaligida faoliyat yuritardi?
3. XIX asrda Rossiya sanoati qay ahvolda edi?
4. XIX asrining I yarmida Rossiyada dehqonlar masalasi?
5. XIX asrda Rossiyaning maorif sohasidagi siyosati haqida gapirib bering?

2.5. XIX ASRNING I YARMIDAGI TASHQI SIYOSAT VA MADANIY TARAQQIYOT

Tayanch soʻz va iboralar: *geopolitika; diplomatiya; razvedka; Austerlits; Fridlyand; Tilzit; Porta; kapitulyatsiya; arergard; Borodino; Berezina; Leypsig janggi; Vena kongressi; Vaterloo; Sonop; Sevastopol; Parij kongressi; dekabrist; «Teleskop»;*

XIX asrning I yarmida Rossiya oʻzining tashqi siyosatidagi vazifalarini samarli xal qilish uchun anchagina imkoniyatlarga ega edi. Bu esa mamlakatning milliy, geopolitik, harbiy-strategik va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib oʻz chegaralarini himoya qilish va hududlarini kengaytirishni oʻz ichiga olardi. Bu esa Rossiya imperiyasini oʻz chegaralarida tarkib topishini va shu bilan birga koʻplab qoʻshni xalqlarni uning tarkibiga qoʻngilli tarzda kirishini yoki zoʻravonlik qilib kushib olinishini anglatardi.

Rossiyaning diplomatik xizmati aniq yoʻlga qoʻyilgan, razvedkasi esa tarmoqlangan edi. Armiya 500 ming kishidan iborat boʻlib, yaxshi ekspirovka qilingan va oʻrgatilgan edi. Rossiyaning gʻarbiy Yevropadan 50-yillarning boshlariga qadar harbiy-texnik jihatdan orqadaligi sezilarli boʻlmagan. Bu esa Rossiyaga xalqaro maydonda muhim xal qiluvchi rolni oʻynash imkonini bergan.

Rossiyaning tashqi siyosatining asosiy yoʻnalishlari, XVIII asrdayoq u ulkan Yevroosiyo imperismi sifatida shakllani boshlaganidayoq belgilangan edi.

Gʻarbda Rossiya Yevropa ishlarida faol ishtirok etgan. XIX asrning birinchi 15-yilligida gʻarbiy yoʻnalishni amalga oshirilishi Napoleonni agressiyasiga qarshi kurash bilan bogʻliq boʻldi. 1815-yildan keyin Rossiyaning yevropadagi tashqi siyosatiin asosiy vazifasi eski monarxiya tizimini qoʻllab quvvatlash va revolyusion harakat bilan kurash boʻldi. Aleksandr I va Nikolay I oʻta konservativ kuchlarni koʻzda tutishgan va koʻpincha Avtriya va Prussiya bilan ittifoqlarga tayanishgan. 1849-yilda Nikolay Avstriya imperatoriga Vengriyadagi revolyutsiyani bostirishga yordam berdi va Dunay knyazliklaridagi revolyusion chiqishlarni bostirdi.

Janubda Usmon imperiyasi va Eron bilan nixoyata oddiy bo'lmagan o'zaro munosabatlar yuzaga keldi. Turkiya XVIII asr oxirida qora dengiz qishloqlarini ruslar tomonidan bosib olinishi va birinchi navbatda Krimni Rossiyaga qo'shib olinishi biln kelisha olmasdi. qora dengizga chiqish Rossiya uchun alohida iqtisodiy, mudofaa va strategik ahamiyatga ega edi. Bosfor va Dardanel kabi qora dengiz bo'g'ozlarida qulay tartibni ta'minlash muhim muammolardan edi. Bular orqali erkin o'tadigan rus savdo kemalarining faoliyati davlatning ulkan janubiy rayonlarining iqtisodiy rivojlanishi va gullab-yashnashiga imkon berardi. Qora dengizda chet el harbiy kemalarining suzishiga yo'l qo'ymaslik rossiya diplomatiyasining vazifalaridan biri bo'lgan. Rossiyaning turklarni ichki ishlari aralashuvidagi muhim vosita bu Kyuchuk-Kaynarji va Yassi shartnomalariga ko'ra Usmon imperiyasi tobeligidagi xristianlarga ruslarning xomiyligi huquqini qo'lga kiritishi edi. Bu huquqdan Rossi faol foydalandi, buning ustiga Bolqon xalqlari unda o'zlarining yagona himoyachisi va xomiysini ko'rishardi.

Kavkazda esa Rossiyaning manfaatlari Turkiya va Eronning bu hududlarga da'vo qilishi bilan to'qnashdi. Bu joyda podsho hukumati o'z mulklarni kengaytirishga, Kavkazortidagi chegaralarni maxkamlab, mustaxkamlashga intildi. Rossiyaning Shimoliy Kavkaz xalqlari bilan munosabatlari alohida rol o'ynab, ularni o'z ta'siri ostiga to'la bo'yisindirishga intildi. Bu esa, Kavkaz ortidagi yangi egallangan hududlar bilan erkin va xavfsiz aloqani ta'minlash va utun Kavkaz regionini Rossiya imperiyasi tarkibiga maxkam qo'shib olinishini ta'milash uchun zarur edi.

Bu an'anaviy yo'nalishlarga XIX asrning I yarmida o'sha paytda periferiya harakteriga ega bo'lgan Uzoq Sharq va Amerika yo'nalishlari qo'shildi. Rossiya Xitoy, Shimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlari bilan munosabatlarini rivojlantirdi. XIX asrning o'rtalarida Rossiya hukumati O'rta Osiyoga suqulib kirish uchun amaliy qadamlar qo'ya boshladi.

XIX asrning boshlaridagi tashqi siyosatda avvalo Napoleonga qarshi kurashni ta'kidlab o'tish lozim: Aleksandr I 1804-yildan unga qarshi turib, 1805-yilda Rossiya, Angliya va Avstriyadan iborat 3-koalitsiya vujudga keldi, boshlangan

urush ittifoqchilar uchun muvofaqqiyatsiz bo'ldi. 1805-yilning noyabrida ularning qo'shinlari Austerlits ostonasida mag'lubiyatga uchradi, Avtriya urushdan chiqdi koalitsiya borbod bo'ldi.

Rossiya yakka o'zi kurashni davom ettirib, Fransiya qarshi yangi ittifoq tuzishga urundi. 1806-yilda 4-koalisiya Rossiya, Prussiya va Angliya va Shvetsiya tashqil topdi. Fransuz armiyasi bir necha hafta davomida Prussiyani kapitulyatsiya bo'lishga majbur qildi. Rossiya yana o'zi yakka qoldi. 1807-yil ibnida Sharqiy Prussiya hududidagi Fridlyand ostonasida (Rossiyanig hozirgi Kaliningrad oblasti) rus qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi, Neman daryosi ortiga chekindi, fransuz qo'shini Rossiya chegaralariga chiqdi.

Bu Aleksandr I ni Napoleon bilan tinchlik bitimi tuzishga majbur etdi. 1807-yil yozida Tilzitda Rossiya va Fransiya avval tinchlik vo'ngra ittifoqchilik bitimini imzolashdi. Prussiyadan tortib olingan polyak yerlarida tuzilgan Varshava gersogligi Napoleon protektorati ostiga o'tdi. Bu hudud keyinchalik 1812-yilda Rossiyaga hujum qilish uchun platsdarm bo'lib qoldi. Tilzit sulxi Rossiyani Buyuk Britaniyani kontinental blokada qilinishiga qo'shilishiga va u bilan siyosiy munosabatlarni uzishga olib keldi. Angliya bilan savdo aloqalarini uzilishi Rossiyani iqtisodiga sezilarli zarar yetkazib, moliyasiga putur yetkazji, Tilzit sulxi Rossiya uchun Yevropada vaqtinchalik nafasini rostlash imkonini berdi.

1806-1812-yillardagi rus turk urushlari Rossiyani Yaqin sharqda o'z mavqelarini kuchaytirish, Turkiyaning qora dengiz qirg'oqlarini, ayniqsa Krimni qaytarib olishiga qarailgn revanshistik rejalarini barbod etish va sultonga qarshi qo'zg'olon ko'targan serblarni qo'llab-quvvatlashga intilishdan kelib chiqqan edi. 1811-yil martda M.I.Kutuzov Dunay armiyasini qo'mondoni etib tayinlangach harbiy-harakatlar faollashdi, Dunay bo'larida turk armiyasiga qAQShatqich zarbalar berildi. Bu esa Porta (turk hukumati)ni 1812-yil mayida Buharest tinchlik sulxini tuzishga majbur etdi. Rossiyaga Bessabariya va qora dengizning Kavkaz qirg'og'i Suxumi shahri bilan qo'shib olindi, Moldova va Valaxiya (dunay knyazliklari)ga Usmon imperiyasi doirasida qolgan bo'lsalarda, ularga muxtoriyat berildi.

1804-1813yillardagi rus-eron urushlari boshlanishidan ilgari 1801-yilda Gruziya ko'ngilli ravishda Rossiya imperiyasi tarkibiga kirdi. Kavkazortidagi boshqa xristian xalqlar ham Rossiya bilan qo'shilishga intilishdi. Eron bu urushda mag'lubiyatga uchradi. Shimoliy Ozarbayjon hududi musulmon dinidagi aholisi bilan Rossiyaga qo'shib olindi. Urush 1813-yilda Guliston tinchlik shartnomasi tuzilishi bilan yakunlanib, Rossiyaning Kavkazortidagi katta hududni, Dog'iston va Kaspiy dengizining g'arbiy qirg'oqlariga egaligini, Kaspiy dengizida flotga egalik huquqini Eron tan oldi. Bu bilan Kavkazorti Rossiyaga qo'shib olinishiin birinchi bosqichi (etapi) yakunlandi.

Rossiya Yevropani shimolida Peterburgni va Botnik qo'ltig'ini xavfsizligini ta'minlashga intildi. 1808-1809-yillarda rus-shved urushi natijasida Finlandiya bosib oilndi, bu ancha darajada Rossiyani shimoliy-g'arbiy chegaralarini mustaxkamladi. Finlandiya buyuk Knyazligi tuzilib uni Rossiya imperatori boshqarardi. Finlandiya Rossiya tarkibiga muxtoriyat davlat sifatida kirib, o'zini ichki qonunlari bo'yicha boshqarib o'z xazinasini va seymi (partamenti)ga ega edi. Finlandiya Rossiya tarkibidan 1917-yil dekabrda chiqqan.

1812-yildagi Rossiyaning Napoleon Fransiyasiga qarshi Vatan urushining sabablari va harakteriga to'xtalsak Napoleon agressor yaiftida bostirib keldi. Kuchlar nisbatida Napoleon armiyasi 678 ming kishiga yetgan. Yaxshi qurollangan va o'rgatilgan bu qo'shinga A.Davu, L.Barte, M.Ney, I.Myurat kabi marshal va generallar boshchilik qilgan. Napoleon Bonapart armiyasining zaif tomoni uni turli mamlakatlardan tashqil topgani edi. Nemis va ispan, polyak va portugal, avstriyalik va italyan askarlariga fransuz imperatorining bosqinchilik rejalari yod bo'lgan. Rossiyaning 1810-yildan urushga faol tayyorgarligi o'z natijasini berdi. U zamonaviy qurolli kuchlarni tuza oldi, fransuzlarnikidan ustun keladigan qudratli artileriya tuza oldi. qo'shinga M.I.Kutuzov, M.B.Barklay de Tolli, P.I.Bagratiy, A.P.Yermolov, N.N.Raevskiy kabi talantli harbiy qo'mondonlar boshchilik qildi. Rus armiyasini ustunligi aholining barcha tabaqalarini vatanparvarlik xissiga berilganligi, ko'p sonli odam resursi, oziq-ovqat va yem-xashakni zaxiralir bilan belgilangan.

Biroq urushning boshlang'ich davrida fransuz armiyasi son jihatdan ruslardan ustun edi. Rossiya hududiga kirgan qo'shinning birinchi esholonida 450 ming kishi bor bo'lsa, g'arbiy chegarada 210 ming kishilik rus armiyasi uchta armiyaga bo'lingan edi. M.B.Barklay de Tolli qo'mondonligidagi 1-armiya Peterburg yo'nalishini to'sgan, P.I.Bagration boshchiligidagi 2-armiya Rossiyaning markazini himoya qildi, general A.P.Tormosovning 3-armiyasi janubiy yo'nalishda joylashdi.

Tomonlarning rejalariga binoan Napoleon Rossiyaning katta qismini Moskvaga qadar bosib olib Aleksandr bilan yangi bitim tuzib Rossiyaning bo'ysundirmoqchi edi, u rus kuchlarini qo'shilishiga yo'l bermasdan tor-mor etmoqchi edi.

1812-yilgi vatan urushi ikki davrga bo'lingan, 1- 12-iyundan oktabrning o'rtalarigacha rus armiyasining arergard janglari bilan dushmaning Rossiya territoriyasi ichkarisiga aldab olib kirish va uni strategik g'oyasini borbod etish bo'lgan. 2-davr oktabrning o'rtalaridan 25-dekabr gacha rus armiyasining raqibni Rossiya hududidan to'la quvib chiqarish uchun qarshi hujumga o'tishi xisoblanadi.

Urush 1812-yilning 12 iyun kuni fransuz armiyasining Neman daryosidan kechib o'tishidan boshlanadi. Rus armiyalari xal qiluvchi jangdan uzoqlashib, qat'i arergard janglar bilan dushmaning xolsizlantirib chekinib borib 22 iyunda 1-va 2-armiyalar Smolensk ostonasida qo'shilishdi. 8-avgustda Aleksandr I Kutuzov M.Ini rus armiyasini bosh qo'mondoni etib tayinladi, u chekinish taktikasini o'zgartirmadi, u xal qiluvchi jang uchun maydon topish haqida buyruq berdi, bu maydon Moskvadan 124 km naridagi Borodino qishlog'i yonidan topildi.

Kutuzov mudofaa taktikasini tanlab, shunga mos tarzda qo'shinlarini joylashtirdi, so'l qanotni P.M.Bagration armiyasi, markazda artileriya va general N.N.Raevskiy qo'shini va o'ng qanotda M.B.Barklay de Tolli armiyasi joylashdi.

Napoleon hujum taktikasini qo'llab, rus armiyasining qanotlardagi mudofaasini yorib o'tib o'qab olib tor-mor etmoqchi edi. Jang 26 avgust kuni ertalab boshlandi. Jang 12 soat davom etdi, ikkala tomon ham ulkan talafotlar ko'rdi.

Bu jangdan keyin rus qo'shini Moskvaga chekindi, rus qo'mondonligining 1-sentabrdagi harbiy kengashida, Fili qishlog'ida M.I.Kutuzov generallarning

muloxazasiga qarama-qarshi bo'lgan Moskvani tashlab chiqish haqida qaror qabul qildi, 1812-yil 2-sentabrda fransuz armiyasi Moskvaga kirdi, aholi shaharni tashlab chiqdi. Kutuzov chekinib Tarutin marsh-manyovrini amalga oshirib, Ryazan yo'li bilan chekinib, keskin janubga-Kaluga yo'liga chekindi. Napoleonning tinchlik sulxi haqidagi taklifi Kutuzov va Aleksandr tomonidan qabul qilinmadi. 12-oktabrda Maloyaroslavets shahrida rus va fransuz qo'shinlari jangida fransuzlarni Kaluga tomon yurishi to'xtatildi va fransuzlar Smolensk yo'li bilan chekinishdi. Partizan harakati va rus qo'shinlarining hujum harakatlari fransuz armiyasini chekinishini tartibsiz qochishga aylantirdi. Noyabr boshidagi Krasnoy shahri yonidagi jangda 50 ming kishilik chekinayotgan fransuz armiyasini yarmi asir olindi yoki jangda xalok bo'ldi.

Napoleon qamalga tushishdan xavfsirab 14-17-noyabr kunlari o'z qo'shinini Berezina daryosidan kechib o'tkazishda shoshildi. Kechuvdagi jang Napoleon armiyasini tor-mor etilishi bilan yakunlandi. Napoleon armiyasini tashlab, Parijga yashirin ravishda ketdi. Kutuzov armiya bo'yicha 21-dekabrda va podshoni 258-dekabrda manifestni vatan urushini tamomlanganini bildirdi. Vatan urushi Rossiyaga 1 mlrd rubl iqtisodiy zarar keltirdi va harbiy harakatlarda 300 mlnga yaqin kishi xalok bo'ldi.

1813-1814-yillardagi rus armiyasining chet el yurishlarida Yevropa siyosatini davomi bo'lib, 1813-yil yanvarida rus qo'shini Polsha va Prussiya hududiga kirdi, bular Rossiya bilan ittifoq tuzishdi, ularga Avstriya, Angliya va Shvetsiya qo'shildi. 1813-yil oktabrda Leypsig ostonasida tarixga xalqlar jangi deb nomlangan jang bo'lib o'tdi, chunki bunda har ikki tomondan yevropadagi barcha mamlakatlar qo'shinlari ishtirok etdi. Napoleon mag'lubiyatga uchradi. Bu barcha german davlatlarini ozod bo'lishiga olib keldi. 1814-yil martida Parij egallandi. Napoleon O'rta yer dengizidagi Elba oroliga surgun qilindi. Fransiya taxtini Lyudovik XVIII burbon egalladi.

Vena kongresi: 1814-yil sentabridan 1815-yil iyuniga qadar g'olib davlatlar Yevropani urushdan keyingi tuzilishini masalasini xal qilishdi, asosan territorial muammolar bo'yicha ziddiyatlar kelib chiqdi.

Napoleon Elba orolidan qochib Fransiya 100 kunlik hokimiyat o'rnatildi. Kongress ishini to'xtatdi.

Yevropa davlatlari 1815-yil iyunida Vaterloo ostonasida Napoleonga batamom zarba berishdi. Napoleon asir olinib, afrikaning g'arbiy qirg'og'idagi Avliyo Yelena oroliga surgun qilindi.

Vena kongresining qarori Fransiya, Italiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarga ilgarigi sulolalarni qaytib kelishiga olib keldi. Polyak yerlarining katta qismidan Rossiya tarkibiga kirgan Polsha podsholigi tuzildi.

1815-yil martida Rossiya, Angliya, Avstriya va Prussiya to'rtinchi ittifoqni tuzish haqida bitim imzolashdi. Bu Vena kongresining qarorlarining amalga oshiruvchi, Fransiya katta miqdorda kontributsiya to'lashni talab qiluvchi tashqilot edi.

1815-yil sentabrda Rossiya, Avstriya va Prussiya o'rtasida Muqaddas ittifoqni tuzish haqida Akt tuzildi. Xristian monaxlari bir-birlariga yordam berishga kelishishdi. Muqaddas Ittifoqning Aaxendagi (1818) va Troppau (1820) dagi kongreslarida yangi siyosiy prinsip ittifoq a'zolarining boshqa davlatlardagi revolyusion harakatlarni bostirish maqsadida ularning ichki ishlariga aralashish huquqi berildi (intervensiya prinsipi).

Rossiyaning sharqiy masaladagi siyosati. 1824-yilda greklar turklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi, porta hukumati qo'zg'olonni ayovsiz bostirishga kirishdi. Bundan tashqari sulton rus-turk kelishuviga zid ravishda Dunay knyazliklari (Moldava va Valaxiya)ga qo'shin kiritdi. Rossiya, Angliya va Fransiyaning Gretsiyaga avtonomiya berish talabini sulton rad etdi. 1827-yil oktabrida rus-ingliz esqadrasi Novarin buxtasida turk floti yo'q qilindi. Rus-turk munosabatlari keskinlashdi. 1828-yil aprelida Rossiya Usmonlilar imperiyasiga urush e'lon qildi. 1828-1829-yillardagi rus-turk urushida Kavkazda va Bolqonda raslar turklarga zarba berdi. Turkiya poytaxti yaqinidagi Adrianopol shahri olinib, 1829-yil sentabrda Adrianopol tinchlik sulhi imzolandi, Qora dengizning Kavkazdagi qirg'oqlarni katta qismi, arman oblastlarini bir qismi, Turkiyadan

Rossiyaga o'tdi. Gretsiyaga keng avtonomiya berildi, 1830-yilda mustaqil grek davlati tuzildi.

1826-1828-yillardagi rus-eron urushlari masalasida shuni ta'kidlash mumkinki, Eron XIX asrning 20-yillarida 1813-yilgi Gulston sulxi bo'yicha qo'ldan boy berilgan yerlarni qaytarib olish maqsadida Angliyaining ko'magida Rossiya bilan urushga faol tayyorgarlik ko'rdi va Kavkazortida o'z ta'sirini tiklamoqchi bo'ldi. 1826-yilda Eron armiyasi qorabog'ga bostirib kirdi. Eron bosh qo'mondoni Tiflis yo'nalishini tanlib bir zarba bilan Kavkazortidagi rus yerlariga barham bermoqchi bo'ldi. Biroq rus qo'shinlari arman va gruzin ko'ngilli otryadlari ko'magida 1827-yilda Erivan (Erevan) qal'asini, so'ngra janubiy Ozarbayjon va Tavrizni egalladi. Eronning mag'lubiyati ma'lum bo'lib qolgach 1828-yil fevralida Turkmanchoy tinchlik sulxi tuzilib, unga ko'ra Erivan va Naxichevan Rossiya tarkibiga kirdi. 1828-yilda Arman oblasti tashqil topdi, bu esa arman xalqining birlasha boshlashiga asos bo'ldi.

XIX asrning 20-yillarida rus-turk va rus-eron urushlari oqibatida Kavkazning Rossiyaga qo'shib olinishini ikkinchi davri yakunlandi. Gruziya, Sharqiy Armaniston, Shimoliy Ozarbayjon Rossiya imperiyasining bir qismi bo'lib qoldi. Shimoliy Kavkazning Rossiyaga qo'shib olinishi bu rejadagi siyosatning uchinchi va eng qiyin davri bo'ldi. Bu hududda Turkiya va Angliyaning ta'sirini oldini olish maqsadida Shimoliy va Shimoliy-g'arbiy Kavkazda ruslarning siyosati faollashdi. qo'yilgan maqsadga molik xalqlar bilan tinchlik muzokarali olib borish va dushmanlik kayfiyatidagi tog'liq jamoalarga qarshi faol harbiy harakatlar olib borish orqali erishildi. Dog'iston va Chechenistonda muridizm diniy-siyosiy oqimi tarqalib ular ruslarga qarshi g'azovot urushlarini olib borishgan. Bu joyda yuzaga kelgan diniy asosdagi imomat davlati 1829-1830-yillrada Rossiya bilan Rossiya bilan urush harakatlari olib borib bu urush Kavkaz urushi deb nom oldi. 1834-yilda Shomil imom davlat boshlig'i bo'ldi. Shomil kuchli armiya tuzib, o'z qo'lida ma'muriy harbiy va diniy hokimiyatni to'pladi. Shomil boshchiligidagi ruslarga qarshi kurash 30-yil davom etdi. 1859-yil agustda Shomilni oxirgi tayanch punkti Gunib ovuli ruslar tomonidan egallandi.

1853-1856-yillardagi Krim urushida Rossiya, Usmon imperiyasi, Angliya, Fransiya va Sardiniya ishtirok etib, bu harbiy to‘qnashuvda ularning har biri o‘z maqsadiga ega edi. Rossiya uchun qora dengiz bo‘g‘ozlaridan o‘tish tartibi birinchi darajali ahamiyatga ega edi. 1833-yilgi Turklar bilan Unkar-Iskelesi sulxiga ko‘ra qora dengiz chet davlatlar harbiy kemalari uchun berqilib, Rossiya bu bo‘g‘ozlardan o‘z harbiy kemalarini erkin olib o‘tadigan bo‘ldi.

XIX asrning 40-yillarida vaziyat o‘zgardi. Yevropa davlatlari bilan bir qator kelishuvlar asosida bo‘g‘ozlar birinchi marta xalqaro nazoratga olindi va barcha harbiy flotlar uchun yopib qo‘yildi. Natijada rus floti qora dengizda qamalib qoldi. Rossiya o‘zining harbiy qudratiga tayanib bo‘g‘ozlar muammosini yangidan xal etmoqich, Yaqin Sharq va Bolqonda o‘z mavqe‘ini kuchaytirmoqchi bo‘ldi.

Usmon imperiyasi XVIII asr oxiri va XIX asrning I yarmidagi rus-turk urushlarida qo‘ldan ketgan hududlarni aytarib olishni xoxlardi.

Angliya va Fransiya esa Rossiyani buyuk davlat sifatida yakson qilib, Yaqin Sharq va Bolqon yarim orolida uning ta’siridan maxrum qilmoqchi edi.

Yaqin Sharqdagi Umuevropa to‘qnashuvi 1850-yilda boshlanib, bunga Falastindagi pravoslav va katolik ruxoniylari o‘rtasida Quddus (Ierussalim) va Vifleemdagi muqaddas joylarga kim egalik qilish masalasidagi kelishmovchilik sabab bo‘ldi. Pravoslav cherkovini Rossiya, Katolik cherkovini –Fransiya qo‘lladi. Oqibatda ruxoniylarning tortishuvi ikkita Yevropa davlatining raqobatiga aylandi. Tarkibida Falastin bo‘lgan Usmon imperiyasi Fransiya tarafida turdi. Ushbu kelishmovchilik rus-turk keyinchalik umumevropa urushiga aylandi.

Nikolay I armiyasining qudratiga va Angliya, Avstriya kabi Yevropa davlatlarining ko‘magiga ishondi, ammo u adashti. Rossiya armiyasi 1 mln kishidan ortiq edi. Ammo urush davomida ma’lum bo‘ldiki, u avvalo texnika jihatidan takomillashmagan edi. Uning silliq stvolli miltiqlari g‘arbiy yevropa armiyalarining qirqma (narezniy) miltiqlaridan zaif (bo‘sh) edi. Artileriya ham eskirgan edi. Rossiya floti ali ham ko‘pchiligi parusli edi, Yevropa harbiy-dengiz kuchlarida parda harakatlanadigan dvigatelar ustunlik qilardi. Kommunikatsiyalar yo‘lga qo‘yilmagandi. Bu esa harbiy harakatlar teatri (maydoni)ni yetarli miqdordagi o‘q-

dori va oziq-ovqat, qo'shimcha askarlar bilan ta'minlash imkonini bermadi. Rus armiyasi o'zi kabi holatdagi turk armiyasi bilan urush harakatlari olib borish mumkin edi. Lekin yevropani birlashgan kuchlariga qarshi tura olish imkoniyatiga ega emasdi.

Urush harakatlarini borishiga to'xtalsak 1853-yila Turkiyaga tayziq o'tkazish uchun rus qo'shinlari Modova va Valaxiyaga kiritildi. Bunga javoban turk sultoni 1853-yil oktabrda Rossiyaga urush e'lon qildi. Uni Angliya va Fransiya kuvvatladi. Avtriya "harbiy neytralitent" pozitsiyasini (nuqtai nazarini) egalladi. Rossiya siyosiy jihatdan to'la yakkalanib qoldi. Krim urushi ikki davrga bo'linadi. Birinchi, rus-turk kampaniyasi 1853-yil noyabridan 1854-yil apreliga qadar muvaffaqiyatli olib borildi. Ikkinchi 1854-yil apreldan 1856-yil fevraliga qadar Rossiya Yevropa davlatlarining koalitsiyasiga qarshi kurash olib borishiga to'g'ri keldi.

Birinchi bosqichni asosiy voqeasi 1853-yil noyabrda Sinop buxtasidagi jangda admiral P.S.Naximov turk flotini va qirg'oq batareyalarini tor-mor qildi. Bu esa Angliya va Fransiyaning faollashtirdi, ular Rossiyaga urush e'lon qilishdi. Anglo-fransuz eskadarsi Boltiq dengizida Kronshtadt va Sveaborgga hujum qildi. Angliya kemalari Oq dengizda Solovetsk monastirni to'pga tutdi, kamchatkada harbiy kuchni namoyish etishdi.

Birlashgan anglo-fransuz qo'mondonligining bosh maqsadi Krimni va Rossiyaning harbiy dengiz bazasi Sevastopolni bosib olish edi. 1854-yil 2 sentabrda ittifoqchilar Yevpatoriya rayonida ekspeditsion korpusni tushura boshladilar. 1854-yil sentabrda Alma daryosi bo'yida rus qo'shini jangda mag'lubiyatga uchradi va Bog'chasaroyga chekinishdi. Sevastopol garnizoni mudofaga tayyorgarlik ko'rdi. 1854-yil oktabrda ittifoqchilar Sevastopolni qamal qilishdi qal'a garnizoni mislsiz qaxramonlik ko'rsatdi. Admirallar V.A.Kornilov, P.S.Naximov, va V.I.Istomin, harbiy muxandis E.N.Totleben, artileriya general-leytenant S.A.Xruxov, ko'plab soldat va matroslar: I. Shevchenko, F. Samolatov, P. Koshka va boshqalar mardlik ko'rsatishdi.

Rus armiyasini asosiy qismini chalg'ituvchi operatsiyalari: Inkerman yonidagi jang (1854-yil noyabr), Yevpatoriya hujum (1855-yil fevral), qora daryo

yonidagi janglar (1855 avgust) Sevastopolliklarga yorda bermadi. 1855-yil avgustida Sevastopolni oxirgi shturmi boshlandi, Malaxov qo'rg'oni qo'ldan berilgandan so'ng mudofaani davom ettirish qiyilashdi. Sevastopolning katta qismi ittifoqchilar tomonidan egllandi, biroq u joyda vayronalardn boshqa hech narsa topa olmagach, ular o'z pozitsiyalariga qaytishdi.

Kavkazdagi harbiy harakatlar teatrida Rossiya uchun Muvaffaqiyatli bo'ldi. Turkiya Kavkazortiga bostirib kirdi, lekin yirik mag'lubiyatga uchradi, shundan keyin rus qo'shinlari uning hududiga harakatlana boshladi. 1855-yil noyabrida turk qal'asi Kars egallandi. Ittifoqchilarning kuchlarini Krimda o'ta xolsizlanishi va Kavkazdagi ruslarning muvaffaqiyatlari harbiy harakatlarni to'xtatilishga olib keldi. Tomonlarning muzokaralari boshlandi.

Parij sulxi: 1856-yil martida imzolandi. Rossiya sezilarli territorial yo'qotishlarga uchramadi, undan faqat Bessabariyaning janubiy qismi tortib olindi. Biroq u Dunay knyazliklari va Serbiya ustidan xomiylik uquqini yo'qotdi. Rossiya uchun eng og'iri va taxqirlisi qora dengizni "neytrallash" haqidagi shart bo'ldi. Rossiyaga qora dengizda harbiy dengiz kuchlari, harbiy arsenallar va qal'alarga ega bo'lishi ta'qiqlandi. Bu janubiy chegaralarni xavfsizligiga sezilarli zarba berdi. Rossiyaning Bolqon va Yaqin Sharqdagi roli yo'qqa chiqarildi.

Krim urushidagi mag'lubiyat xalqaro kuchlarning joylashishiga va rossiyadagi ichki vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Urush bir tomondan uni zaifligini ko'rsatdi, boshqa tomondan rus xalqining mardligi va bukilmas ruxini ko'rsatdi, namoyish etdi. Mag'lubiyat Nikolayning hukmronligiga qayg'uli xotima keltirdi, Rossiya jamoatchiligini uyg'otdi va hukumatni davlatni isloxati bilan shug'ullanishiga majbur etdi.

XIX asrning I yarmida butun dunyodagi kabi Rossiyada ham g'oyaviy va ijtimoiy-siyosiy kurash keskinlashdi. Biroq bir mamlakatlarda u burjua revolyusiyalarininig va milliy-ozodlik harakatlarining g'alabasi bilan yakunlangan bo'lsa, Rossiyada esa hukmron tabaqa mavjud iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzumni tanazzulini oldini olib qoldi.

Rossiyadagi ijtimoiy fikr g'arbiy Yevropadagi bilan yaqindan aloqada, bog'liq bo'lib, va shu bilan birga undan farqlanardi. g'arbiy Yevropada yuzaga kelgan kapitalistik tuzumni tarixiy muqarrarligi va ilg'orligi iqtisodiy va axloqiy-etikaviy nuqtai nazardan isbotlangan nazariyalar yuzaga keldi, uni rivojlantirish yo'llari izlanildi, uni barbod bo'lishiga olib boruvchi nazariyalar ishlab chiqildi. Rossiyada esa butunlay boshqa vaziyat yuzaga keldi. Unda xanuz podsho mutlaq hokimiyati va krepostnoylik saqlangan edi. Ularni taqdiri barcha ijtimoiy-siyoiy ziddiyatlarni mazmun mohiyatini tashqil etardi. Konservatorlar mavjud tartiblarni saqlab qolinishi va mustaxkamlanishi uchun chiqishardi, liberallar bu tartiblarni asta-sekin islox etilishini taklif qilishar edi. (Mamlakatning rivojlanishini evolyutsion yo'li), radikallar ijtimoiy-siyosiy tizimni tubdan o'zgartirishni qattiq talab qilishdi (reqolyutsion yo'l). Bularning barchasi mamlakatni qarovonligini va gullab yashnashi haqida tashvishlanib, jon kuydirayotganlariga ishonchlari komil bo'lib, ularning hammasi o'z dasturlari va maslaklarini qaxrlanib himoya qilishardi.

G'arbiy Yevropani ayniqsa ilg'or mamlakatlarida ijtimoiy harakatning rivojlanishi uchun ancha qulay sharoitlar mavjud edi: partamentlar, siyosiy tashqilotlar va partiyalar, mahalliy matbuotda o'z g'oyalarini ochiqdan-ochiq bayon etish imkoniyati bor edi. Rossiyada saylab qo'yiladigan vakillik organlari va matbuot erkinligi yo'q edi. Har qanday partiyaviylik ta'qiqlangan edi. Shuning uchun XIX asrning I yarmida Rossiyada xali aniq-ravshan g'oyaviy va tashqiliy rasmiylashgan ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlar tarkib topmagan edi. Turli siyosiy konsepsiya (qarash)larning tarafdorlari ko'pincha bir tashqilot yoki oqim doirasida harakat qilishib, tortishuvlarda mamlakatning kelajagiga o'z qarashlarini bildirishgan.

Radikal yo'nalish vakillari o'ta faol bo'lib chiqishdi. Ular birinchi bo'lib Rossiyaning tubdan o'zgartirish dasturi bilan chiqishdi. Islohotni amalga oshirmoqchi bo'lib ular qo'zg'olon ko'tarishdi, ammo mag'lubiyatga uchrashdi. Podoshoning mutlaq hokimiyati va krepostnoylikning negiz, asoslariga daxl qilmagan vakillik idorasi, muassasasini tuzishni taklif qilgan M.M.Speranskiy bilan bo'lib o'tgani kabi, konservatizm yana g'alaba qozondi. Hukumat ijtimoiy-siyosiy islohotlarni

amalga oshirishga kirishishi uchun Rossiya Krim urushidagi magʻlubiyatidan larzani boshidan kechirishi lozim edi.

Jamoatchilik harakatining oʻsishining sabrlaridan biri butun jamiyat tomonidan rossiyaning ancha ilgʻor gʻarbiy Yevropa mamlakatlaridan ortda qolayotganini tushunganini oʻsganligad edi. Faqatgina ilgʻor fikrlovchi dvoryanlarning bir qismi va toifalar yuzaga keoyotgan ziyolilargina emas, oliy maʼmuriyat vakillari, xatto imperatorlar Aleksandr I va Nikolay Ilar ham katta oʻzgarishlar zarurligini tushunishardi.

Jamotchilik harakatini keltirib chiqargan sabablardan yana biri xalq gʻalayonlari edi. Mehnatkashlarning noroziliklari haqida aholining turli tabaqalarining chiqishlari guvoxlik beradi.

Jamoatchilik harakatining qatnashchilari asosan dvoryanlar boʻlgan. XIX asrning I yarmidagi halqaro voqealar Rossiyada boʻlib oʻtgan ichki jarayonlar dvoryan revolyutsionerlari harakatining yuzaga kelishiga olib keldi. Booʻ sababi dvoryanlarning eng yahshi vakillari tomonidan krepstniklik va mutlaq hokimiyatning saqlanib qolishi mamlakatning kelgusi taqdiri uchun xaloqatli ekanligini tushunib yetganliklari boʻldi. Mavjud tuzum Rossiyaning rivojlangan Yevropa mamlakatlaridan ortda qolishini chuqurlashtirib, uning iqtisodiyotini modernizatsiyalashga toʻsqinlik qilib, ijtimoiy larzaga soladigan holatlarni muqararligini keltirib chiqardi. 1812-yilgi vatan urushi va 1813-1815-yillarda ruv armiyasining Yevropada boʻlishi ham qudratli undovchi omil boʻldi. Kelgusi dekabristlar oʻzlarini “12-yilning bolalari” deb atashgan. Ular Rossiyani asoratga solinishidan qutqargan va Yevropani Napoleondan ozod qilgan xalq yaxshiroq qismatga munosibligini tushunishdi. Yevropadagi muxit bilan tanishuv dvoryanlarning ilgʻor qismini rus dehqonlarining qaramlik (krepstnoy) holatini oʻzgartirish zarurligiga ishontirdi.

Ular oʻzlarining asosiy gʻoyalarini feodalizm va absolyutizmni saqlanib qolinishini istiqbolsizligini har tomonlama isbotlashgan fransuz maʼrifatparvarlarining asarlaridan olishgan. Dvoryan revolyutsionerlarining gʻoyalarini tarkib topishiga mamlakat ichida XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida

ko'plab davlat va jamoat arboblarning krepostnoy huquqni qoralab chiqishlari ham ta'sir etgan. 1825-yilgi qo'zg'olon bo'lib o'tgan paytda Rossiyada amalda o'z mafaatlari va demokratik o'zgarishlar uchun kurasha oladigan burjuaziya yo'q edi. Xalq ommasi xali ham podshoga ishonardi. Shu sabali revolyutsion g'oyalar, mamlakatni tubdan o'zgartirish zarurligini, faqat o'z manfaatlariga qarshi chiqqan dvoryanlarning ilg'or qismida yuzaga keldi. Revolshyutsionerlar doirasi cheklangan bo'lib, ular asosan dvoryanlar avlodi vakillari va imtiyozli ofitserlar korpusi vakillaridan iborat bo'lgan. Ular podsho hokimiyatining mutlaq boshqaruvi va kreposniklikka qarshi kurashib taraqqiyotning burjua yo'lini tarafdori bo'lishgan. Shuning uchun bu harakat ob'ektiv burjua harakteriga ega bo'lgan. Birinsi siyosiy tashqilotlardan ilgarirok yashirin, maxfiy jamiyatlar tashqil topib, ular asosan liberal-marifatparvarlik harakteridagi g'oyalarni olg'a surishgan, 1811-1812-yillarda N.N.Muravyev tomonidan tuzilgan 7 kishidan iborat "choka"to'garagi harakat qilib, ular Saxalin orolida respublikaga aso solishni orzu qilishgan. 1812-yildagi Vatan urushi yakunlangach Maxfiy tashqilotlar, ofitserlar uyushmalasi, yoshlarning to'garaklari tarzida mavjud bo'lgan. 1844-yilda Peterburgda N.N.Muravyev tomonidan "Muqaddas artel" tuzildi. A.F.Orlov tomonidan shuningdek "Rus ritsarlari ordeni"ga aoso solingan. Bu tashqilotlar amalda faol harakatlar qilmagan bo'lsada, lekin katta ahamiyatga ega bo'ldilar, chunki shularda harakatning kelgusi raxbarlarining g'oyalari va karashlari shakllangan.

1816-yil fevralida Yevropadan rus armiyasining katta qismi qaytib kelga Peterburgda bo'lg'usi dekabristlarning yashrin jamiyati "qutqarish ittifoqi" yuzaga keldi. 1817-yil fevralidan bu tashqilot "Vatanning sodiq va haqiqiy o'g'lonlari jamiyati " deb nomlandi. Unga P.K.Pestel, A.N.Muravyev, S.P.Trubetskoylar asos soldi. Ularga K.F.Rqleyev, I.D.Yaqo'shin, M.S.Lunin, S.I. Muravev-Apostol va boshqalar qo'shilishdi.

"Qutqarish ittifoqi" – revolyusion dasturi va ustaviga "Statut"ga ega bo'lgan birinchi rus siyosiy tashqilotidir. Unda Rossiya jaiyatini qayta qurishning ikkita asosiy g'oyalari – krepostnoy huquqining tugatish va samoderjavie (podshoning mutlaq hokimiti)ni yo'q qilish masalalari qyilgan. Xujjatlarda absaolyut monarxiya

hokimitining huquqini cheklovchi konstitutsiya kiritilishi zarurligi haqida aytiladi. Ko'pchilik konstitutsion monarxiyani kelgusidagi siyosiy tuzumning eng yuksak maqsadi deb xisoblashgan.

1818-yilning yanvarida "Soyuz blagodenstviya" 200 kishidan iborat yirik tashqilot tashqil etildi. Asosan dvoryanlardan iborat bo'lgan, ko'pchiligini harbiylar tashqil etgan. Tashqilotni umumiy raxbar organi Korennaya uprava va Kengashi (Sovet-Duma) ya'ni ijroiya hokimiyati saylandi.

Peterburg, Moskva, Tulchik, Kishinyov, Tambov, Nidniy Novgorodda mahalliy tashqilotlari yuzaga keldi.

Ittifoqning Dasturi va ustavi "yashil kitob" (muqovasining rangiga ko'ra) deb nomlandi. 1821-yilning boshlarida g'oyaviy va taktik kelishmovchiliklar tufayli "Soyuz blagodenstviya"ni o'zini-o'zi tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bunday yo'lga qadam qo'ygan jamiyat raxbariyati shu yo'l bilan tashqilotga a'zo bo'lib kirib qolgan sotqin va shpionlardan qutulmoqchi bo'ldilar.

1821-yilda Ukrainada P.I.Pestel raxbarligida Janubiy jamiyat tuzildi. 1822-yilda Peterburgda N.M.Muravyev. Rileyev, Trubetskoy, Lunin boshchiligida shimoliy jamiyat tuzildi.

Konstitutsiyaviy loyixalar haqida so'z yuritsak, N.M.Muravevning "Konstitutsiyasi"da konstitutsiyaviy monarxiya haqida gap borib, bu siyosiy tizimda ijroiya hokimiyat imperatorga, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa parlament (narodnoe veche)ga tegishli bo'lib, fuqarolarni saylov huquqi ancha mulkiy senz bilan cheklangan. Shunday qilib mamlakatning siyosiy hayotidan anchagina aholining kambagal qismi chetlashtirilgan.

P.I.Pestel so'zsiz respublika davlat tuzumini qo'llagan. "Konstitutsiya" dekabristlarning mo'tadil qismining qarashini, Pestelning "Russkaya pravda"si esa radikallarning qarashini aks ettirgan. Pestelning g'oyalariga ko'ra Rossiyada prezident boshqaruvi shaklidagi parlament respublikasi ta'sis etilishi lozim edi.

Rossiya uchun muhim bo'lgan agrar-dehqonlar masalasini xal etishda Pestel va Muravyev bir ovozdan krepostnoy huquqini to'la bekor qilinishini va dehqonlarni shaxsan ozod etilishini zarurligini ta'kidladilar. Ammo dehqonlarning yer bilan

ta'minlanishi masalasi turlicha xal etilshi nazarda tutilgan. Muravyev har bir dehqon oilasiga 2 desyatina haydaladigan yer berishni, pestel esa davlat monastr va pomeschchiklaridan konfiskatsiya qilingan yerlardan tashqil etilgan jamoat fondidan oilasini boqib ta'minlash uchun yetarli yer berilishini tarafdori bo'lgan.

Imperator Aleksandr I vafot etgach Konstantin taxtdan voz kechgach, uning ukasi Nikolani senat a'zolari tomonidan qasamyod qilishini 1825-yil 14-dekabr kuniga tayinladi. Shimoliy jamiyat raxbarlari shu vaziyatdan foydalanib qolmoqchi bo'lishdi. qo'zg'olon rejasini ishlab chiqidi. Isyonchilar o'zlarining "Rus xalqiga manifest"-yangi dasturiy xujjatini senat qabul qilishlariga majbur etmoqchi, imperatorga qasamyod o'rniga konstitutsiyaviy boshqaruvga o'tishni e'lon qildirmoqchi bo'ldilar. Manifestga dekabristlarning asosiy talablari: ilgari boshqaruvni ya'ni samoderjavieni yo'q qilish, krepostnoy huquqini bekor qilish va demokratik erkinliklarni kiritilishni bayon qilingandi.

1825-yilning 14 dekabr kuni tong saharda Shimoliy jamiyatning faol a'zolari Peterburgdagi harbiy qo'shin orasida tashviqotni boshlaydilar, lekin bu ish sekinlik bilan bordi. Kunduz soat 13 lar chamasida Nikolay I qasamyod qilishi lozim bo'lgan Senat maydoniga 3000 tacha askarlar dekabristlar boshchiligida yig'ilishdi, ammo bu paytgacha senat imperator Nikolay I ga sodiklik to'g'risida qasamyod qabul qilib, senatorlar uylariga tarqalishgan edi. qo'zg'olonga raxbar etib tayinlangan S.P.Trubetskoy maydonga kelmadi, qo'zg'olonchilar raxbarsiz qolib maydonda kutib turaverishdi. Nikolay I shu orada o'ziga sodiq qismlarni maydonga yig'ib, ulardan foydalandi. Artilleriya kartechi qo'zg'olonchilarning qatorini yoyib yubordi, ular Neva muzi ustida tartibsiz ravishda qochishdi. Peterburgdagi qo'zg'olon tor-mor qilindi. Jamiyat a'zolarini qamoqqa olishlar boshlandi.

Janubdagi qo'zg'olon masalasiga kelsak Janubiy jamiyatning ba'zi raxbarlarining qamoqqa olinishiga qaramasdan, Peterburgdagi qo'zg'olonni mag'lubiyati haqidagi xabar erkinlikda qolganlarni o'z o'rtoqlarini qo'llashga undadi. 1825-yil 29 dekabrda S.I.Muravev-Apostol va M.P.Bestujev-Ryumin Chernigov polki askarlari yordamida ko'zg'olon qo'tarishdi. 1826-yil 3-yanvarda bu

polk hukumat qo'shinlari tomonidan o'rab olindi va zambaraklar kartechnidan o'qqa tutilgan.

Qo'zg'olonchilar ustidan tergov yashirin va yopiq tarzda olib borilib, 545 kishidan 289tasi aybdor deb topildi. Nikolay I qo'zg'olonchilarni qattiqqo'llik biln jazoladi, 5 kishi ya'ni Pestel, Rileyev, Muravev-Apostol, Bestujev-Ryumin va Kaxovskiylar osib o'ldirildi. Boshqalari esa ayblilik darajasiga ko'ra qatorga ishlariga jo'natildi, Sibirga ko'chirib yuborildi, askarlikka o'tkazildi va Kavkazga, harakatdagi armiyaga yuborildi. Jazolangan dekabristlardan hech biri Nikolay hayotligida uyiga qaytib kelmagan. Soldatlarning bir qismi hamda matroslarning ishtirok etganlari shpitsrutenlar bilan kaltaklanib, Sibir va Kavkazga jo'natilgan. Uzoq-yillar davomida Rossiyada qo'zg'olon haqida esga olish ta'qiqlandi. Harbiy to'ntarish va isyonga tayanish, tashviqotchilik faoliyatining zaifligi, harakat ishtirokchilarining kelishib olmaganligi, qo'zg'olon paytidagi kutib turish taktikasi-bularning bari dekabristlarning mag'lubiyatining asosi sabablari bo'ldi.

Dekabristlar qo'zg'oloni Rossiya tarixidagi muhim voqea bo'ldi. Ular birinchi revolyutsion dasturni ishlab chiqishdi va mamlakatni kelgusidagi tuzilishi rejasini ishlab chiqishdi. Birinchi marta Rossiyaning amaliy harakati sodir etildi.

Rossidagi konservatizm podsho hokimiyati va krepostnoy huquqni mustaxkamligini isbotlovchi nazariyaga tayangan.

Liberal yo'nalishda P.Ya.Chaadayev "Falsafiy xatlar"ida, 1836-yilda "Teleskop" jurnalida nashr etilgan birinchi xatida, podsho mutlaq hokimiyatini, krepostniklikni va barcha rasmiy ideologiyani tanqid qilgan. Rossiyani kutqarishni, uning rivojlanishini Yevropa tajribasidan foydalanishda ko'rdi. Hukumat bu xatni muallifi va nashriyotchisidan qattiq o'ch oldi. P.Ya.Chaadaevni tentak deb e'lon qilishdi va politsiya nazoratiga berishdi. "Teleskop" jurnalini yopishdi. Uning redaktori N.I.Nadejdin Moskvadan chiqarib yuborildi va uni nashriyotchilik bilan shugullanishi hamda pedagogik faoliyat yuritishi ham ta'qiqlandi

Radikal yo'nalish haqida so'z borganda Moskva universiteti krepostniklik va podsho hokimiyatiga qarshi g'oyalarni vujudga kelishi markaziga aylanganligi (aka-uka Kritskixlar va So'ngunov N.P.larning to'garaklari)ni ta'kidlash mumkin.

To'garaklar a'zolari ichki siyosatni muhokama qilib, mamlakatda islohot qilish rejalarini tuzishgan. Hukumat bu to'garaklarni a'zolarini ham jazolagan.

Student A.Polejanov ozodlik haqidagi "Sashka" poemasi uchun universitetdan haydalib,, soldatlikka berilgan. V.G.Belinskiy, A.I.Gersen, N.P.Ogaryev, M.V.Butashevich-Petrashovskiylarning faoliyati bilan radikal yo'nalishdagi yangi ko'tarilish bog'liqdir.

Jamoa sotsializmi nazariyasi A.I.Gersenning faoliyati bilan bog'liqdir. Ijtimoiy rivojlanish idealini A.I.Gersen sotsializmida ko'rdi, bunda xususiy mulk va eksplutatsiya bo'lmaydi.

Jamiyatni ilm, bilim darajasi mamlakatni madaniy holatini ko'rsatkilaridan biri xisoblanadi. Aholining asosiy qismini tashqil etgan dehqonlar ma'lumotsiz yoki kam ma'lumotli bo'lgani uchun Aleksandr I hukumatining harakati davlat ta'limi tizimini tashqil etishga yo'naltrilgan. Ular: bir-yillik prixod matablari, uch sinfli uezd bilim yurtlari; yetti sinfli gimnaziyalardan iborat bo'lgan. Aleksndr 1 davrida ta'lim toifasiz, tabaqasiz bo'lgan. Nikolay I davrida ta'lim-tarbiya toifaviy harakterga ega bo'ldi: dehqonlar uchun prixodskoy maktablari; savdogarlar, hunarmandlar va boshqa shahar aholisi farzandlari uchun uezd bilim yurtlari; dvoryan va amaldorlarning farzanlari uchun gimnaziya tashqil etildi. Dvoryanlar uchun bundan tashqari o'rta maxsus o'quv yurtlari-kadetlar korpusi va boshqalar ochilgan. Faqat gimnaziya ma'lumoti yoki maxsus dvoryan o'quv yurtlarini tamomlash universitutlarga kirish huquqini bergan.

Mashxur Sarskoselskiy Litseyi 1811-yildan namunali o'quv yurti bo'lib qoldi. Undagi o'qitish dasturi batamom universitetlarnikiga mos kelardi. Bu litseyda adabiyotchilardan A.S.Pushkin, V.K.Kyuxelbeker, I.I.Pushkin, A.A.Delvich; diplomatlardan A.M.Gorchakov va N.K.Girs; xalq maorifi vaziri D.A.Tolstoy; jamoat arbobi N.Ya.Danilevskiy va boshqalar ta'lim olishgan. Uyda ta'lim berish tizimi ham keng yoyilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor chet tillarni, og'zaki nutqqa, musiqa, rassomchilik, jamiyatda o'zini tutish, qoidalariga asosiy e'tibor qaratilgan.

XIX asrning I yarmida Rossiyada ayollar ta'limi tizimi bo'lmagan. Faqat dvoryanlarning qizlari uchun Smolniydagi oliyjanob qizlar instituti namunasida bir

nechta yopiq institutlar (o'rta o'quv yurtlari) ochilgan. Dastur 7—8-yillik ta'limga mo'ljallangan. Ofitserlar va soldat hamda matroslarning kizlari uchun alohida bir nechta maktablar ochilgan. Biroq ayollarning asosiy ommasi xatto boshlang'ich ta'lim olish imkoniyatidan ham maxrum edi. Ammo bunday og'ir sharoitlarda ham oliy ma'lumot rivojlanishda davom etdi. Derpt (hozirgi Tartu)da, Peterbergda pedagogika institutlari negizida qozon, Xrkovda yangi universitetlar ochildi. Malakali qadrlarni tayyorlash uchun maxsus oliy o'quv yurtlari tashqil etildi: Tibbiy-xirurgiya akademiyasi, Texnologiya, qurilish va chegarachilar institutlari, oliy huquqshunoslik bilim yurti, sharqiy tillar Lazaryev instituti va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Moskva universiteti professorlarning ochiq ma'ruzalari ayniqsa vatan va jahon tarixi muammolari bo'yicha, kommersiya va tabiiy fanlar yuzasidan barchaga tushunarli, sodda bo'lgani tufayli ham mashxur, dong'i chiqqan bo'lgan. Ayniqsa professor T.N.Granovskiyning umumiy tarix bo'yicha ma'ruzalari mashxur bo'lgan.

Fan sohasidagi bir qancha kashfiyotlar amalga oshirildi. MGU professori biolog K.F.Rule esa Ch.Darvinga qadar hayvonot dunyosini rivojlanishini evolyutsion nazariyasini yaratdi. 1839-yilda Pulkovo astronomiya observatoriyasi binosini qurilishi tugallandi. Bu joy o'sha payt uchun zamonaviy bo'lgan apparatura bilan jixozlangan. Observatoriyaga astronom V.Ya.Struve raxnamolik qilgan.

Aniq fanlar sohasida elektrotexnika, mexanika, biologiya va tibbiyot fanlari bo'yicha muhim kashfiyotlar amalga oshirildi. Akademik V.V.Petrov bir qator fizik asboblarni yaratdi va amalda elektr quvvatidan foydalanishga asos soldi. P.A.Shilling birinchi marta yozadigan elektromagnit telegrafni yaratdi. Ota va o'g'il Ye.A. va M.Ye. Cherepanovlar Uralda suv bug'i yordamida harakatlanuvchi dvigatelni va bug'da harakatlanuvchi birinchi temir yo'l parovozini qurishdi.

Ximik N.N.Zinin anilinni sintezi texnologiyasini ishlab chiqdi, bu organik moddadan to'qimachilik sanoatida bo'yoqni maxkamlash uchun foydalanilgan. Harbiy vrach N.I.Pirogov dunyoda birinchi bo'lib efir narkozi ostida operatsiya qila boshladi, harbiy-dala xirurgiyasida antiseptik vositalardan keng foydalandi va ularni qo'lladi.

Geografiya fani sohasida ham bir qancha ishlar amalga oirildi. I.F.Kruzenshtern va Yu.F.Lisyanskiy ko‘mondonligida 1803-1806-yillarda birinchi bor dunyoni aylanib chiqqan rus ekspeditsiyasi amalga oshirildi. Ekspeditsiya Kronshtddan Kamachatka va Alyaskagacha suzib bordi. Tinch okeani orollari, Xitoyning qirg‘oqlari, Saxalin oroli va Kamchatka yarim oroli o‘rganildi. F.F.Bellinsgauzen va M.P.Lazaryev boshchiligidagi 1819-1821-yillardagi ekspeditsiya 1820-yil 16 yanvarda Antarktidani kashf etdi. O.I.Nevelskiy Amur daryosini quyilish joyini kashf etib, Saxalin va materik o‘rtasidagi bo‘g‘ozni o‘rganib Saxalin ilgari xisoblangandek yarim orol emas, balki orol ekanligi isbotladi. Bu ekspeditsiyalardan so‘ng dunyo haritasidagi ko‘plab geografik ob‘ektlar ruscha nomlar bilan atala boshlandi.

Tarix fani sohasida 1818 yida N.M.Karamzinning “Rossiya davlati tarixi”ni birinchi 8 jildi nashr etildi. 40-yillarning oxirlarida rus tarixi fani korifeyi S.M.Solovyev o‘z tadqiqotlarini boshladi. Uning ilmiy faoliyati asosan XIX asrning 50-70-yillrida bo‘lib o‘tib, 29 jildli “qadimgi vaqtlardan buyon Rossiya tarixi”ni yaratdi.

Adabiyot sohasida shoir G.R.Derjavin, A.S.Pushkin va M.Yu Lermontovlarning faoliyatini ta’kidlab o‘tish lozim

Teatr sohasida ham rus aslzodalariga tegishli krepostnoy teatrlar keng tarqalgan davlat teatrlari esa kam edi. F. Shiller va V. Shekspir asarlaridan tashqari mahaliy mualliflarning asarlari asosida spektakllar qo‘yilgan. D.I.Fonvizin va I.A. Krilovlarning satirik komediyalari katta muvaffaqiyat qozongan. N.V.Gogolning “Revizor” pesasini saxnalashtirilishi Rossiya madaniy hayotida yirik voqea bo‘ldi

Rossiya balet sohasidagi o‘z muvaffaqiyatlari uchun baletmeystr, pedagog va dramaturg Sh.Didlo oldida qarzdordir, u rus klassik baletining asosini yaratdi, bunda u milliy motivlar va yevropa raqs san’ati an’nalaridan foydalangan. Uning raxbarligida Peterburg saxnasida A.S.Novitskaya, A.I.Istomina. A.A.Lixutina va boshqalar yorqin porlashgan.

Musiqqa sohasida rus kompozitorlari nemis, italyan va fransuz maktablaridan ko‘chirishmasdan balki milliy rus musikasini yaratishgan. M.I.Glinka va

A.S.Dargomijskiylar romanslar, etyudlar xor va kvartetlar uchun asarlar yozishdi. Rassomlik va haykaltaroshlik sohalarida ko‘plab asarlar yuzaga keldi.

Arxitektura va shaharsozlik sohasida yirik ansambllar qurildi. Peterburgda A.D.Zaharovni loyixasi bo‘yicha Admirateylstvo binosi qad qo‘tardi. A.N.Voronixin tomonidan qozon sobori qurilishi amalga oshirilgach Neva prospekti boshqacha ko‘rinishga ega bo‘ldi. A.A.Monferranni loyixasi bo‘yicha Isankiyev sobori - o‘sha paytda Rossiyadagi eng baland bino barpo etildi. K.I.Rossi Peterburg ansamblarini Senat, Sinod, Aleksandr teatri va Mihaylov saroyi binolari bilan vujudga kelishini ta‘minladi. 1812-yilda yong‘inda kuygan Moskva ham sekin-asta tiklana bordi. O.I.Bove Kichik va Katta teatrlar binolarini kurib bitkazib, Teatr maydoni ansamblini rasmiylashtirdi. K.A.Ton katta Kreml saroyi va Orujeynaya palata binosini qurib, Kreml hududini o‘zgartirib yubordi. Uning loyixasi bo‘yicha 1839-yilda Xrist Spasitel cherkovi kurilishi boshlanib, kurilish faqat 1883-yilda tamomlangan.

Nazorat uchun savollar

1. XIX asrning I yarmida rus madaniyati haqida gapirib bering?
2. XIX asrning I yarmida Rossiyaning tashqi siyosatining ustivor yo‘nalishlari nimadan iborat edi?
3. XIX asrning I yarmida Rossiyaning iqtisodiy rivojlanishi va uning mohiyati?
4. XIX asrning I yarmida mamlakatdagi ijtimoiy taraqqiyot darajasi?
5. XIX asrning I yarmidagi g‘oyaviy kurash va jamoatchilik harakati haqida gapirib bering?

III BO‘LIM. ENG YANGI DAVRDA ROSSIYANING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY RIVOJLANISHI.

3.1. ROSSIYANING XIX ASRNING II YARMIDAGI IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHI.

Tayanch so‘z va iboralar: *Prokuror; advokat; sud maslaxatchisi; «yangi ustav»; narodovolets; kansler; Alyaska; uchlapr ittifoqi;*

XIX asrning o‘rtalariga kelib Rossiyani ilg‘or kapitalistik davlatlardan iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sohalarida ortda qolayotgani yaqqol ko‘rindi. Asrning o‘rtalaridagi xalqaro voqealar uning tashqi siyosat sohasida ham ancha kuchsizlanganligini ko‘rsatdi. Shuning uchun hukumatning ichki siyosatdagi, XIX asrning II davridagi bosh maqsadi Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tizimda o‘sha vaqt talabiga mos keladigan ishlarni amalga oshirish edi. Shu bilan birga, bir paytning o‘zida podshox hokimiyatini va dvoryanlarning hukmronlik mavqeini saqlab qolishlik ham muhim vazifa edi.

Ichki siyosatga ko‘pgina omillar ta’sir ko‘rsatgan: iqtisodiy rivojlanishdagi olg‘a siljishlar (kapitalistik tartibni mustaxkamlanishi), ijtimoiy tizimdagi o‘zgarishlar (yangi sinflar va ijtimoiy qatlamlarning yuzaga kelishi), jamoatchilik harakatining keskin o‘ssishi va kishilarni o‘z ahvolini yaxshilash uchun kurashini boshlanishi kabilar.

XIX asrning II yarmida Rossiya ichki siyosatida uchta bosqich ajralib turadi. Birinchisi – 50-yillarnig II yarmi – 60-yillarning boshlari – dehqonchilikdagi islohatni tayyorlash va amalga oshirish, Ikkinchisi – 60-70-yillar – liberal islohalarni o‘tkazish, Uchinchisi – 80-90-yillar iqtisodiy modernizatsiya, davlatchilikni va ijtimoiy barqarorlikni an’anaviy konservativ – ma’muriy usullar bilan mustahkamlashdan iboratdir.

Krepostnoy huquqni bekor qilinishi masalasiga kelsak, XIX asrning o‘rtalarida agrar dehqonchilik masalasida Rossiyaning o‘tkir ijtimoiy-siyosiy

muammosi bo'lib qoldi. Yevropa davlatlari orasida krepostnoy huquq faqat Rossiyada saqlanib kolib, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Ko'plab davlat va jamoat arboblari krepostnoy huquq Rossiyani sharmanda qilayoganini va uni qoloq davlatlar qatorida kolayotganini tushunishardi.

Imperator Aleksandr II (1855-1881), Nikolay I-ning katta o'g'li bo'lib, u 1855-yil 19-fevralda Rossiya taxtiga chiqdi. Otasiga qaraganda u davlatni boshqarishga yaxshi tayyorlangan edi. Yoshligida u ajoyib tarbiya va ta'lim olgan, shoir V.A. Jukovskiy uni murabbiyi bo'lgan. 1856-yilda Moskva dvoryanlari vakillari oldida so'zlagan nutqida imperator birinchi marta dehqonlarni ozod qilish zarurligini ta'kidladi. Uning bu fikrini imperator oila a'zolari, bir qator davlat va jamoat arboblari qo'llashdi.

Imperatorning topshirig'i bilan dehqonlarni ozod qilish loyihalari ishlab chiqildi. 1860-yil oktabrda Bosh komitet loyihalarni ko'rib chiqishni boshladi, bu dehqonlarga beriladigan yerlarni hajmini qisqartirdi, majburiyatlarni esa ko'paytirdi. 1861-yil 17-fevralda islohotlar loyixasini davlat kengashi tasdiqladi, 19-fevralda uni Aleksandr II imzoladi. Krepostnoy huquq bekor qilingani manifest orqali e'lon qilindi. Bunda uchta asosiy masala: dehqonlarning shaxsan ozodligi, ularga yerni bo'lib berish va ozodligini sotib olish bitimi ko'rilgan yoki nazarda tutilgan.

Manifest dehqonlarga shahsiy ozodlik va umumgrajdan huquqlarni berdi. Bundan buyon dehqon ko'chma va kuchmas mulkka egalik qilishi, bitimlar tuzishi, yuridik shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin edi. Dehqon pomeschchikni shahsiy homiyligidan ozod qilindi, uning ruhsatisiz nikox tuzishi mumkin edi. Xizmatga va o'quv yurtlariga kirishi, yashash joyini o'zgartirishi savdogarlar va mayda burjuaziya toifasiga o'tishi mumkin edi. Hukumat ozod etilgan dehqonlarni mahalliy o'zini boshqaruv idoralarini tashqil eta boshladi.

Shu bilan birga dehqonning shahsiy ozodligi cheklangan. Birinchi navbatda bu dehqon jamoasini saqlanishiga tegishlidir. Yerga jamoa bo'lib egalik qilish, yer maydonlarini qaytadan taqsimlash, soliqlarni to'lashda va davlat majburiyatlarini bajarishdagi umumiy kafillik kabilar qishloqda barjuaziyaning evolyutsiyasini

orqaga tortardi. Dehqonlar jon solig'i to'laydigan, rekrut ya'ni askarlik majburiyatini o'taydigan, tan jazosiga tortiladigan yagona toifa bo'lib qoldi. «Nizom» dehqonlarni yer bilan ta'minlanishini tartibga solgan. Yer maydonlarining hajmi tuproqning unumdorligiga bog'liq bo'lgan. Rossiyaning hududi shartli tarzda uchta mintaqaga: qora tuproqli, noqora tuproq va cho'l zonalariga bo'lindi. Ularnig har biri bo'yicha dehqonlarga beriladigan yer maydonlarinnig eng katta va eng oz hajmi belgilandi. Yer masalasini hal etishda dehqonlarning yerlarini ancha qismi qisqartirildi. Mamlakat bo'yicha dehqonlar islohotgacha ishlov berib kelinganiga nisbatan 20 foiz kam yer maydoni olishgan.

Shudgor qilib haydalanadigan yerlarni chegaralashda pomeshchiklar o'zlarining yerlarini dehqonlarning yerlarini orasiga suqilib joylashtirishga intilishgan. Shu yo'l bilan dehqon pomeshchikning yerini ijaraga olishga majbur qilingan, buning uchun dehqon pomeshchikga ijara qiymatini yoki pul bilan yoki dalada ishlab berish orqali to'lagan.

Dehqonlar yerni pomeshchikdan olgach, uning qiymatini pul bilan to'lab uzishlari lozim edi. Dehqonlarga berilgan yer maydonlarini narxi aslida 544 mln rublni tashqil etsada aslida hukumat tomonidan ishlab chiqilgan xisob-kitob formulasi bo'yicha yerning narxi 867 mln rublga yetdi. Binobarin sotib olish bitimi dvoryanlar manfaatini ko'zlab amalga oshirilgan.

Dehqonlarda yerni sotib olish uchun zarur pul bo'lmagani uchun, pomeshchiklar ulardan sotib olinayotgan yer uchun pulni bir paytda olishlari uchun davlat yer maydonlarini qiymatini 80 foizi miqdorida dehqonlarga qarz berdi. qolgan 20 foizini dehqonlar pomeshchikka uzlari to'lashlari lozim edi. Dehqonlar davlatdan olgan qarzlarini 49-yil davomida to'lashlari lozim edi. 1906-yilda dehqonlar bu sotib olish to'lovini bekor qilinishiga erishganlarida davlatga 2 mlrd rubl, yana 1861-yildagi bozor narxiga qaraganda 4 marta ko'p miqdorida qiymatni to'lab qo'ygan edilar. qolgan 20 foiz uchun to'lash muddati ham 20-yilga cho'zilib ketdi, to'la sotib olguniga qadar obrok to'lab turishi yoki ba'zi majburiyatlarni bajarashi zarur bo'lgan, faqat 1881-yilda bu holatni bekor qilish haqida qonun chiqarildi. 1861-yilgi islohot 30 mlndan ortiq krepostnoy dehqonlarga ozodlik keltirdi, burjua

munosabatlarni vujudga kelishi mamlakatni iqtisodiy modernizatsiyalash uchun yo'l ochib berdi.

XIX asrning 60-90-yillarining I-yarmidagi ichki siyosatiga nazar solib, mahalliy boshqaruvdagi qayta qurishlarni ta'kidlash mumkin. 1864-yilda guberniya va uezdlarda zemstvo islohoti va 1870-yilgi shahardagi islohotlarda mahalliy dumalari tuzildi. Ular mahalliy miqiyosdagi masalalarni: aloqa yo'llarini ta'mirlash, zemstvo hamda shahar maktablari va kasalxonalarining faoliyati, savdo va sanoatni g'amho'rliigi bo'lib, bular markaziy va mahalliy hokimiyatlarning navzorati ostida bo'lgan, bularda barcha toifalarni vakillari bo'lgan.

Sud sohasidagi islohatlarni 1864-yildagi «Yangi sud ustavlarida»da ko'rish mumkin. Bularda sudni barcha toifalarga mansubligini, sudni ma'muriyatdan mustaqilligini, sudyalarni almashtirilmassligi, sud jarayonini oshkoraligi va munozaraligini, unda prokuror (qoralovchi) va advokat (himoyachi) ni ishtirok etishi ta'minlandi. Ayblanuvchining gunohkorligi masalasi sud maslahatchilari (sud prisyajno'x) tomonidan hal etilgan. Turli sud instansiyalarining vakolatlari qat'iy chegaralangan. Mayda fuqarolik ishlarni yarashtiruv (mirovaya) sudida, jinoyat va murakkab ishlar esa – okrug sudida ko'rib chiqilgan. O'ta muhim davlat va siyosiy jinoyatlar sud palatasida ko'rib chiqilgan. Senat oliy sud instansiyasi bo'lib qoldi. Tuzilgan tizim dunyodagi sud tajribasining eng ilg'or an'analarni o'zida aks ettirgan. Biroq, islohatni o'tkazayotib, hukumat sud ishlarini olib borilishiga aralashish uchun ko'plab tuynuk (rahna)lar qoldirgan. Ba'zi qonun qoidalar faqat e'lon qilinganicha qoldi. Masalan, dehqonlarning ishini ularning toifaviy sudi ko'rib chiqardi. Siyosiy ishlarni sud jarayonini ko'rib chiqish uchun senatning alohida sudi tuzildi, bu ishlar yopiq harakterda bo'lib, bu esa oshkoralik tartibiga zid edi.

Harbiy islohotlar o'tkazishga olib kelgan sabablardan biri, qrim urshidagi mag'lubiyat shuni ko'rsatdiki, rekrut chaqiruviga asoslangan Rossiyaning doimiy armiyasi ancha zamonaviy Yevropa armiyalariga qarshi tura olmasdi. Endilikda o'qib o'rgatilgan zaxiradagi shaxsiy tarkibiga, zamonaviy qurol va yahshi tayyorgarlikka ega ofitser qadrlarga ega armiyani tuzish zarur edi. 1874-yilgi barcha

toifalarga mansub 20 yoshga to'lgan erkaklarni harbiy majburiyati to'g'risidagi qonun islohotni asosiy kaliti bo'ldi.

Quruqlikdagi qo'shnlarni haqiqiy xizmat muddati 6-yilgacha, flotda esa 7-yilgacha belgilandi. Haqiqiy xizmat muddati ma'lumot senziga bog'liq holda ancha darajada qisqartirilgan. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan shahslar bor-yo'g'i yarim-yil yoki 6 oy xizmat qilgan. 60-yillarda armiyani qayta qurollantirish boshlandi: silliq stvolli (gladkostvolno'y) miltiq, kesuvchi (nareznoy) stvolli miltiq bilan almashtirildi, po'latdan yasalgan artilleriya qurollar tizimi amalga kiritildi. Otlar parki yaxshilandi. Bug'da harakatlanuvchi harbiy flotni tez sur'atlarda rivojlanishi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ofitser qadrlarni tayyorlash uchun harbiy gimnaziyalar, maxsus yunkerlik bilim yurtlari hamda General (Bosh) shtabning, artilleriya va injenerlik akademiyalari tashqil etildi. Kurolli kuchlarni boshqarish tizimi yaxshilandi.

Bularning barchasi, armiyaning sonini tinchlik mahalda kiskartirish va shu bilan birga uning jangovorligini oshirish imkonini bergan. Boshqaruv, sud va armiyadagi islohotlar mantikan talim tizimini uzgartirilishini takozo etardi. 1864-yilda boshlangich va o'rta malumotni tartibga soluvchi «Gimnaziyalar ustavi» va «Xalq bilim yurtlari haqidagi nizom» nashr etildi. Asosiysi shunda ediki, barcha toifalar uchun mumkin bo'lgan talim amalga kiritildi. Davlatga karashli maktablar bilan bir qatorda zemstvo, cherkov-prixod, yAQShanba va xususiy maktablar vujudga keldi. Klassik hamda real gimnaziyalar ochilib, ularga talim uchun xak tulay oladigan barcha toifalarning bolalar qabul qilingan.

1863-yilgi yangi Ustav universitetlarga avtonomiyasini qaytarib berdi, chunki 1835-yilda Nikalay I universitetlarni muxtoriyatini yuk kilgan edi. Yangi Ustav bo'yicha universitetlarni mamuriy-moliyaviy va ilmiy pedagogik masalalarni mustakil xal etilishi qayta tiklandi.

1865-yilda matbuot haqidagi «Vaktinchalik koidalar» amalga kiritildi. Bu qonun bir qator bosma nashrlar uchun dastlabki senzurani bekor qildi: jamiyatning badavlat va malumotli qismi uchun muljallangan kitoblar, shuningdek markaziy

davriy nashrlar uchun taallukli bo'lib, ammo yangi koidalar provinsiyalarning matbuoti va xalq uchun ommaviy adabiyotlarga yoyilgan edi.

Amalga oshirilgan tub uzgarishlar progressiv ahamyatga ega bo'ldi. Bular mamlakatni taraqqiyotini evolyutsion yuliga asos sola boshladi.

XIX asrning 60-70-yillarida islohotlarni mantikiy davomi sifatida 1881-yilning yanvarida ichki ishlar vaziri, graf M. T. Loris – Melikov tomonidan ishlab chikilgan mu'tadil konstitutsiyaviy takliflarni qabul qilinishi bulishi mumkin edi. Ammo 1881-yil 1-mart kuni Narodovoletslar tomonidan imperator Aleksandr II ning uldirilishi hukumat kursining umumiy yo'nalishini uzgartirb yubordi.

Imperator Aleksandr III (1881-1894) otasi kabi davlat ishlariga erta aralashdi. Uzini utkir harbiy yeishi sifatida ko'rsatdi. U tarixga «Tinchlikparvar» podsho sifatida kirdi, chunki u xalqaro muammolarni harbiy vositalar orqali xal etishning ashaddiy rakibi edi. Aleksandr III M.T. Loris – Melikovni taklifini inkor etdi, ichki siyosatda reaksiyon ananalarni kuchayishi davri boshlandi.

Mahalliy boshqaruv tizimida uzgarishlar amalga oshirilib, 1889-yildan qishloq dehqon ma'muriyati dvoryanlardan tayinlangan zemstvo boshliklariga buysunadigan bo'ldi, zemtsvolar dvoryanlarning mavkeini oshirdi. 1892-yildagi «Shaharlar nizomi» shahar dumalarida dvoryan va yirik burjuaziyani rolini mustaxkamladi.

Talim va matbuot sohasida ham hukumat bir qancha uzgarishlarni amalga oshirdi. O'rta maktabni davlatga va Sinod boshchiligidagi cherkovga buysundirmokchi bo'ldi. 1887-yildagi qonunga ko'ra gimnaziyalarga malay, kir yuvuvchilar, mayda dukondorlarni bolalari qabul qilinmaydigan bo'ldi.

1884-yilgi universitetlarning yangi ustavi bo'yicha ularning avtonomligi bekor qilindi. Bir vaktning uzida studentlar ustidan politsiya nazorati kuchaytirildi va o'qish uchun tulov ko'paytirildi. Ayollarning oliy talimi yuk qilindi.

1892-yildagi «Matbuot to'g'risidagi vaktinchalik koidalar» 60-yillardagi senzura sohasida yul kuyilgan liberal siyosatni tugatdi. Har kanday nashrni yopish huquqini fakat ichki ishlar vazirligi emas, balki Sinodni ober-prokurori ham kulga kiritdi.

Hukumat «Moskovskie vedomosti» kabi «ung» nashrlarni ko‘llab kuvvatladi. Senzura Aleksandr III davrida, Nikolay I davriga karagandan ham kattik bo‘lgan.

XIX asrning II yarimidagi Rossiyaning tashqi siyosati. Krim urushini yakunlanishi Yevropadagi vaziyatni tubdan uzgarishiga olib keldi. Krim tizimi deb nomlangan anglo-avstro-fransuz bloki Rossiyani siyosiy jihatdan yakka-kuyishni saqlab qolishga va Parix kongressi qarorlari bilan taminlangan uni harbiy-strategik zaifligini saqlab qolishga muljallangan edi. Rossiya buyuk davlat sifatidagi uzini mavkeini yukotmagandi. Biroq maglubiyat tufayli u xalq kiluvchi ovoz huquqini xalqaro munosabatlarda yukotdi va Qora dengizni neytrallash haqidagi modda tufayli Bolqon xalqlarini samarali ko‘llab-kuvvatlash imkonidan maxrum bo‘ldi. Shunga ko‘ra rus diplomatiyasining asosiy vazifasi shu moddani bekor qilish uchun kurashish va Rossiyaning xalqaro obrusini kuchaytirishdan iborat bo‘ldi.

Tashqi siyosatning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida so‘z borganda shuni takidlash mumkinki, Rossiya garbiy yo‘nalishida o‘z tashqi siyosatidagi yakka-kuyishni yuk qilishga intildi. Markaziy Yevropa davlatlari bilan munosabatlar ananaviy sulolaviy aloqalar, ularning siyosiy va goyaviy negizlarining umumiyliigi bilan belgilanardi. Podsho hukumati yevropadagi tengsizlikni saqlab turish uchun yangi siyosiy ittifoqlarni tuzishga va uzini xalqaro obrusini tiklashga tayyor edi.

O‘rta Osiyo yo‘nalishi katta ahamyatga ega bo‘ldi. Rus hukumati O‘rta Osiyoni kushib olish, kelgusida uni uzlashtirish va mustamlakaga aylantirish dasto‘rini ilgari surdi va amalga oshirdi.

XIX asrning 70-yillarida Bolqonda milliy-ozodlik harakatlarini kuchayishi bilan Sharqiy masala yana oldinga chikdi. Bolqon yarim oroli xalqlari Usmoniylar zulmidan ozod bulishi va mustakil milliy davlatlarini tuzish uchun kurashni avj oldirdilar. Bu jarayonda Rossiya diplomatik, siyosiy va harbiy usullar bilan katnashdi.

XIX asrning ikkinchi yarimida Rossiyaning tashqi siyosatidagi uzok sharq yo‘nalishi sekin-asta o‘zining periferiya harakterini uzgartirib bordi. Krim urishi paytida Kamchatkadagi anglo-fransuz diversiyasi (kuporuvchiligi) Xitoyni kuchsizlanishi va

uni anglo-german-fransuz kapitaliga karam, tobe mamlakatga aylantirilish, Yaponiyaning dengiz va quruqlikdagi kuchlarini tez usishi, Uzoq Sharqda Rossiyaning iqtisodiy va harbiy-strategik mavkeini kuchaytirish zarurligini ko'rsatdi.

Xitoy bilan tuzilgan Aygun (1858) va Pekin (1860) shartnomalariga ko'ra Amur daryosining chap kirogoidagi hududlar va barcha Ussuriy ulkasi Rossiyaga biriktirildi. Rus kolonistlari (kuchib borib urnashganlar) bu serxosil yerlarni tez suratlarda uzlashtira boshladilar. U joylarda tez orada Blogoveshensk, Xabarovsk, Vladivostok va boshqa shaharlar barpo etildi.

Yaponiya bilan savdo va diplomatik munosabatlar rivojlana boshladi. 1855-yilda Rossiya va Yaponiya o'rtasida doimiy tinchlik va dustlik haqidagi Simod bitimi imzolandi. Bu bitim Rossiyani Kuril orollarini shimoliy qismiga egalik huquqini mustaxkamladi. Rossiyaga tegishli Saxalin oroli birgalikda foydalaniladigan mulk deb elon qilindi. 1875-yildagi Peterburgda imzolangan rus-yapon shartnomasi Saxalin orolini fakat Rossiya mulki ekanligini tan oldi. Yaponiya kompensatsiya sifatida Kuril orollarini oldi. Saharin va Kuril hududlari XIX asr oxirida rus-yapon munosabatlarida keskinlik manbai bo'lib kolaverdi.

XIX asrning birinchi yarmidagi ananani davom ettirib, Rossiya AQShga nisbatan dustona siyosatini olib bordi. Angliyadan farkli tarzda u Shimol tarafida turib uning kuldorlik Janubiga qarshi kurashdi. Shundan keyin u AQShnixaqlaro ishlarda doimo kulladi. 1867-yilda Rossiya amalda Shimoliy Amerika Kushma Shtatlariga amerika Materigini shimoliy-garbiy qismini-Alyaska yarim orolini bush joylarini 7.2 mln. dollarga sotib yubordi. Zamondoshlar, bu yerlarni shuncha pul turishi haqida uylamaganlar. Biroq keyinchalik aniqlanishicha, Alyaska boy foydali kazilmalarning (oltin, neft) xazinasi bo'lib chikdi. Umuman olganda esa AQSh Rossiya bilan xali xalqaro ishlarda xal qilinuvchi rul uynayotgan edi.

XIX asrning 60-70-yillarida Rossiya xalqaro munosabatlar tizimida Parij tinchlik shartnomasini cheklovchi shartlarini bekor qilish uchun kurashdi. Qora dengizda harbiy flotni va harbiy bazalarni yukligi janubdan hujum uchun Rossiyani

zaif qilib, amalda esa bu unga xalqaro munosabatlarni xalq etishda faol o'rinni egallashiga yul bermasdi.

Bu kurashga yirik diplomat, keng siyosiy ong-bilim darajasiga ega bo'lgan tashqi ishlar vaziri, knyaz A.M. Gorchakov boshchilik qildi. Dastlab, Rossiya o'zining german davlatlariga tayanuvchi ananaviy kursini uzgartirib, Fransiyaqa yaqinlashishga intildi. 1859-yilda tuzilgan rus-fransuz ittifoqi, biroq kutilgan natijaga olib kelmadi. Shu tufayli uning Prussiya va Avstriya bilan yangidan yaqinlashishi boshlanib, Rossiya Prusiyaning barcha german yerlarini uzi boshchiligida birlashtirilishiga bo'lgan intilishini ko'llab-kuvvatladi. 1870-1871-yillardagi fransuz-prus urushida esa bo'lmaslik majburiyatiga uzini bog'lik deb xisoblamasliginimalum qildi. Prussiya neytraliteti uchun minnatdorchilik tariqasida Rossiyani kulladi. Angliya va Avstriya rus hukumatining bir tomonlama qarorini koralashdi, tor-mor etilgan Fransiya esa norozilik bildirish imkoniyatiga ega bo'lmadi.

Buyuk davlatlarning 1871-yildagi London konferensiyasi Qora dengizni neytrallashni bekor qildi. Rossiya harbiy dengiz floti, harbiy-dengiz bazalari va mustaxkamlangan Qora dengiz sohiliga ega bulish huquqini o'ziga qaytarib oldi. Bu holat davlatning janubiy chegaralarida mudofaa chizigini qayta tiklash imkonini berdi. Bundan tashkari bugozlar orqali tashqi savdo kengaytirildi. Mamlakatning Qora dengiz bo'yi regionini – Novorossiysk ulkasi tez suratlarida rivojlandi. Rossiya yana Bolqon yarim oroli xalqlariga ularning ozodlik harakatiga yordam ko'rsata oldi.

XIX asrning 70-yillarida Yevropada xalqaro vaziyatda sezilarli uzgarishlar yoz berdi, Fransiya esa pruss-frank urushidan so'ng kuchsizlangandi. Yevropaning markazida iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli yangi davlat – Germaniya imperiyasi yuzaga keldi. Fransiya Agressiv tashqi siyosat yuritib, Yevropada o'z tasirini kuaytirish, mustamlaka mulklarini vujudga keltirishga va kengaytirishga intildi. Germaniya bir tomonda, Fransiya va Buyuk Britaniya boshqa tomonda, ular o'rtasida ziddiyatlar kompleksi yuzaga keldi. Avstriya-Vengriya ham Bolqonda o'z tashqi siyosatini faollashtirdi.

Rossiya bunday sharoitda markaziy yevropa davlatlari bilan yaqinlashishga intildi. Germaniya Fransiya batamom yakka-kuyish maqsadida Rossiya bilan ittifoq tuzmokchi bo'ldi. 1872-yilda Berlinda Rossiya, Germaniya va Avstro – Vengriya davlatlarini imperatorlari va tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvi bo'ldi. Unda kelgusi ittifoqning shartlariva prinsiplari to'g'risida kelishib olindi. 1873-yilda Rossiya, Germaniya va Avstro – Vengriya o'rtasida uch tomonlama bitim - uch imperatorlar ittifoqi tuzildi. Uchala manarx uzlarining o'rtalaridagi kelishmovchiliklarni siyosiy maslahatlar o'tkazish yuli bilan bartaraf etishga, Ittifoqqa azo tomonlarning biriga boshqa davlat tomonidan hujum xavfi yuzaga kelganda bunga qarshi birgalikda harakatlar haqida kelishib olindi.

Germaniya bu diplomatik muvaffakkiyatdan foydalanib Fransiya takroran tor-mor etmokchi bo'ldi. German kansleri knyaz Otto Bismark Fransiya bilan munosabatlarni keskinlashtirmokchi bo'ldi.

1875-yilda germaniya bilan Fransiya o'rtasida yangi karama-qarshilik yuzaga keldi. Rossiya Germaniya bilan ittifoqchiligiga karamasdan Fransiya himoya qilib chikdi, uni Buyuk Britaniya kulladi. Germaniya ortga chekindi, fransiya tor-mor etilishdan kutkarib kolindi, biroq rus-german munosabatlarida ishonchsizlik usib bordi. Garchi keyinchalik uch imperator bir necha marta ittifoq tarafdorligini tasdiklashdi, rus diplomatiyasi borgan sari boshqa hamkorlar topish zarurligini tushuna boshladi.

Rus – fransuz yaqinlashuvi imkoniyati asta – sekinlik bilan ko'rina boshladi. Rossiyaning janubiy –sharqida keng O'rta Osiyo hududlari joylashgan bo'lib, joyda Buxoro amrligi, Kukon va Xiva xonliklaridan iborat davlatlar bor edi. Bularning orasida ancha rivojlangani Buxoro amrligi bo'lib, bir necha yirik shaharlarida savdo va hunarmandchilik edi. Buxoro va Samarkand esa O'rta Osiyoning muhim savdo markazlari bo'lgan. XIX asrning II-yarmida Buyuk Britaniyaning hududlarga kirishiga intilishi va ularni o'zining mustamlakasiga aylantirishga harakat qilishi tufayli vaziyat tubdan uzgardi. Rossiya bevosita o'zining janubiy chegaralariga yaqin joyda «Angliya sheri»ni paydo bulishiga yul kuya olmasdi. Angliya bilan raqobatchilik O'rta Sharqda rus tashqi siyosatini fasllashishini asosiy sababi bo'ldi.

XIX asrning 50-yillarining oxirida Rossi O'rta Osiyoga kirib borish uchun amaliy kadamlar qo'ya boshladi. Jiddiy masala bilan uchta safarlar tashqil etildi: Sharqshunos-olim N.V. Ignatyev xabarligidagi ilmiy safar, elchi N.P. Ignatyev boshchiligidagi diplomatik safar va Ch.Ch. Valixonov boshchiligidagi savdo safari uyushtirildi. Ularning vazifasiga O'rta Sharq davlatlaridagi siyosiy va iqtisodiy holatni urganish ular bilan yanada yaqin aloqalarni o'rnatish bo'lgan.

1863-yilda Alohida kamitetni yigilishida faol harbiy haraatlarni boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Birinchi tuknashuv Kukon xonligi bilan bo'lib utdi. 1864-yilda M.G.Chernyayev qo'mondonligida qo'shin Toshkentga birinchi yurishni amalga oshirdilar, biroq u muvaffakkiyatsiz chikdi. Ammo, ichki ziddiyatlar tufayli va Buxoro amirligi bilan kurashda xolsizlangan Kukon xonligi og'ir ahvolda edi. Shu vaziyatdan foydalanib, M.G.Chernyayev 1865-yil iyunda amalda kon tukmasdan Toshkentni egalladi. 1866-yilda bu shahar Rossiyaga kushib olindi, 1867-yilda esa bosib olingan hududlarni Turkiston general-gubernatorligi tashqil etildi. Shu bilan birga Kukon xonligini bir qismi o'z mustakilligini saqlab qoldi. Biroq, O'rta Osiyoni ichiga kirib borish uchun harbiy harakatdan kulay joy – platsdarm barpo qilindi.

1867-1868-yillarda Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman qo'mondonligidagi rus qo'shinlari Buxoro amiri bilan shiddatli jang olib bordilar. Buyuk Britaniya tomonidan gij-gijlangan amir ruslarga qarshi «Mukaddas urush» (gazovot) elon qildi. Muvaffakkiyatli harbiy harakatlar okibatida rus armiyasi bir qator galabalarga Buxoro amirligi ustidan erishdi. Rossiya bilan Buxoro o'rtasida tinchlik sulxi imzolandi. Amirlik o'z mustakilligini saqlab kolsada, lekin unga vassal tobe bo'lib qoldi. Amir hokimiyati 1920-yilda Buxoro xalq savet respublikasi tashqil topguncha kadar saqlanib qoldi.

1873-yildagi Xiva yurishidan keyin Xiva xonligi Rossiya foydasiga Amudaryoning ung kirgogidagi yerlardan vos kechdi va siyosiy jihatdan ichki avtonomiyani saklagan xolda uni vassaliga aylandi. (1920-yilda Qizil Armiya qismlari tomonidan Xiva egallangach, xon hokimiyati ag'darildi, Xorazm xalq sovet respublikasi elon qilindi).

Shu-yillarda Kukon xonligini ichiga kirib borish davom ettirilib, uning hududi 1876-yilda Turkiston general-gubernatorligini bir qismi tariqasiga Rossiyaga kushib olindi.

Bir paytning uzida turkman kabilalari va boshqa bazi xalqlardan iborat yerlar ham qo‘shib olindi. 1885-yilda Avgoniston bilan chegaradosh bo‘lgan hududdagi Marvni kungilli ravishda Rossiyani tarkibiga kushilishi bilan O‘rta Osiyoni egallab olish jarayoni yakunlandi.

O‘rta Osiyoni kushib olinishini turlicha izoxlash mumkin. Bir tomondan, bu yerlar asosan bosib olingan. Boshqa tomondan esa, bu yerlarda yarim mustamlaka tartib o‘rnatilib, podsho mamuriyati tomonidan boshqarilgan. O‘rta Osiyo xalqlari Rossiya tarkibida tez suratlarda rivojlanish imkoniyatiniyatiga ega bo‘ldilar. Kulchilikka barham berildi, aholini xonavayron kilgan uzaro feadal urushlarga, patriarxal hayotning qoloq shakllariga baxram berildi. Rus hukumati ulkani iqtisodiy va madaniy rivojlanishi to‘g‘risida kaygurdi. Birinchi sanoat korxonalari barpo etildi, qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish takomillashtirildi, ayniksa paxtachilikda AQSh dan yangi paxta navlari keltirilib mahalliy sharoitga moslashtirilib ekildi. Maktablar, mazsus bilim yuortlari, dorixona va kasalxonalar ochildi. Podsho mamuriyati ulkadagi o‘ziga xos xususiyatlarni xisobga olib, boshqa dinlarga tokatli bo‘lgan, mahalliy urf-odatlarni xurmat kilgan. O‘rta Osiyo asta – sekin Rossining ichki savdosiga tortilib, qishloq xo‘jalik xom ashyosi manbasiga va rus tukimachiligi, metall va boshqa maxsulotlarni bozoriga aylandi. Rus hukumati bu ulkani alohida ajratib kuymadi, balki uni davlatning boshqa hududlariga kushilib ketshiga intildi.

O‘rta Osiyo xalqlari Rossiya tarkibida bo‘lib, uzlarini milliy, madaniy va diniy xususiyatlarini yukotmaganlar. Aksincha, kushib olingan paytidan va hozirgi zamon O‘rta Osiyodagi millatlarning vujudga kelishi boshlandi (Aslida uzbek millati XV asrdayok vujudga kelgan).

Sharqiy tanglik va 1877-1878-yillardagi rus-turk urushi masalasini yoritishda avvalombor, shuni takidlash lozimki, Parij tinchlik sulxining asosiy, Qora dengizni neytrallash to‘g‘risidagi moddasi bekor qilinganidan keyin Rossiyaga yana Bolqon

yarim orolining xalqlariga Usmoniylar zulmiga qarshi kurashda faol yordam ko'rsatish imkoniyatini berdi.

XIX asrning 70-yillarida sharqiy tanglikning birinchi bosqichi bo'lib o'tib, 1875-yilda Bosniya va Gersogovina keyinroq Bolgariya, Serbiya, Chernogoriya va Makedoniyada turklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. 1876-yil yozida Serbiya va Chernogoriya sultonga qarshi urush e'lon qildi. Turklar Bolgariyani o'zida 30 mingga yaqin odamni qilichdan o'tkazdi. Yevropa davlatlari va birinchi navbatda Rossiyaning yordamisiz bu xalqlarning kurashi mag'lubiyatga uchrashi aniq edi.

Bolqon masalasida g'arbiy Yevropani passivligini nazarga olib rus hukumati 1876-yilda sultondan Slavyan xalqlarini qirg'in qilishni to'xtatishni va Serbiya bilan sulh tuzishni talab qildi, biroq turk armiyasi o'z harakatlarini davom ettirdi. 1877-yil aprelda Rossiya Usmon imperiyasiga urush e'lon qildi. Sharqiy tanglikning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu paytda rus qo'shini ham to'la zamonaviy talablar bo'yicha qurollantirilmagandi. Shuning uchun rus qo'mondonligi tez sur'atlarda jang urush harakatlarini yakunlamoqchi bo'ldi. Janglar Bolqon va Kavkazortida olib borildi. 1877-yil Mayida rus qo'shini Ruminiyaga kirib, Dunaydan kechib o'tib, bunga unga bolgor ko'ngillilari va muntazam qo'shin qimslari ko'maklashdi. Rus qo'shinlariga M.D. Skobelyev, M.M.Drogomirov, I.V.Gurko kabi talantli generallar qo'mondonlik qilishdi. Asosiy janglar Bolgariya hududidagi Plevna, Shipka, Tirnova uchun olib borildi. 1878-yilda rus qo'shinlari Andriopolni egallashda, Kanistantinopolga yaqinlashdi. Kavkazortida qora dengiz bo'yidagi Abxaziya to'la egallandi. Turkiyani mag'lubiyati aniq bo'lib qoldi. 1878-yil fevralida San-stefano tinchlik sulhi tuzildi. Serbiya, Ruminiya va Chernogoriya ilgari avtonomiyaga ega bo'lgan bo'lsa, endi mustaqillikka erishdi. Bolgariya, Bosniya va Gersogovina esa avtonom knyazliklarga aylanishdi. Rossiya Janubiy Bessarbiyani qaytarib oldi. Kavkazda Batum, Kars, Ardagan va Bayazid kabi yangi tayanch punktlarni qo'yilga kiritib, bu qal'alar Kavkazortida Turkiyaga tayziq o'tkazish uchun muhim strategik ahamiyatga ega edi.

Sharqiy tanglikni uchinchi bosqichi 70-yillarda bo‘lib o‘tib, bunda g‘arb davlatlari San-stefano bitimining shartlarini tan olishdan bosh tortishda va yangi xalqaro kongressni chaqirishni talab qilishdi.

1878-yil Iyunda Berlinda kaonrgress ochildi, unda Rossiya, Turkiya, Angliya, Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya ishtirok etdi. Rossiya batamom yakkalanib qoldi. Yevrova davlatlari yagona fond bo‘lib qatnashib o‘z hohishlarini rus diplomatiyasiga tayziq qilishdi. Ularning asosiy maqsadi Bolqonda ruslar ta’sirini tugatish va Rossiyaning harbiy g‘alabalarini natijalarini kamsitishga o‘rinishdi. Bunda ular Bolqon halqlarini manfaatlarini kam e’tiborga olishardi.

Iyulda Berlin kongressida imzolangan bitim San-stefano sulhi shartlarini yancha darajada o‘zgartirdi. Bolgariya ikki qimga bo‘lindi. Uning shimoliy qismigina o‘z hukumati va milliy armiyasiga ega bo‘lgan avtonom davlat bo‘ldi. Janubiy qismi esa Turkiyaning zulmi ostida qoldi. Serbiya, Chernogoriya va Ruminiyaning mustaqilligi ta’kidlansada, biroq ularning hududi sezilarli qisqartirildi. Avstriya-Vengriya esa Bosniya va Gersogovinani akkupatsiya qildi. Angliya esa Turkiyani qo‘llagani uchun Kipr oralini oldi. Usmoniylar imperiyasinnig parchalanishi boshlandi.

XIX asrning so‘ngidagi Rossiyaning tashqi siyosat masalasiga kelsak, Berlin kongressi yevropadagi kuchlarni yangidan joylashtirdi. Anglo-avstriya blokini galabasiga Germaniyaning tutgan urni kumak berdi. Bu avstro – german yaqinlashuvini mustaxkamlanishiga imkon berdi. Shu bilan birga Rossiyaning, Germaniya va uch imperator ittifoqini kuzlab ish kurishi asossiz ekanligi malum bo‘ldi. Rossiya Germaniyaga nisbatan ishonchli bo‘lganyangi ittifoqchini izlashga majbur bo‘ldi.

XIX asrning oxirgi choragida, Rossiya, Angliya, Fransiya, Germaniya va Avstro-Vengriya kabi buyuk davlatlar o‘rtasidagi ixtiloflar chukurlashib borgani sari, yevropadagi keskinlik muntazam kuchaya bordi. Ularning qarama-qarshiligi dunyodagi vaziyatni belgilab berib, boshqa davlatlarning manfaatlariga ham daxldor edi.

Mojarolar ko‘plab regionlarni: Yaqin va O‘rta Sharq, Bolqon yarim oroli, Shimoliy Afrika, Uzoq Sharq, Janubiy-Sharqiy Osiyoni qamrab olgandi. Shuning uchun boshqa davlatlar singari Rossiya uchun ham bu ixtiloflarda o‘z vazifalarini xal etish uchun ittifoqchilarni izlash muhim muammoga aylandi. XIX asr oxiri – XX asr boshlari, ikki dushman bloklarni tashqil topshini boshlab berdi.

Uchlar ittifoqi. bloklarning dastlabkisi 70-yillar oxirida yuzaga kela boshladi. 1879-yilda Germaniya va Avstriya yashirincha, maxfiy ravishda Rossiya va Fransiya qarshi ittifoq tuzishdi. Bunga Italiya qo‘shilgandan keyin, 1882-yilda Markaziy Yevropa davlatlarining Uchlar ittifoqi yuzaga keldi. Ushbu ittifoq Bolqon, Yaqin va o‘rta Sharqda agressiv siyosat olib bordi. Avstro-Vengriya esa Serbiyani bosib olishga tayyorgarlik ko‘rdi. Germaniya esa Turkiya va Iroqda o‘z ta’sirini oshirib, Afrika va Uzoq sharqda o‘z mustamlakachilik siyosatini faollashtirdi.

Kansler O.Bismarkning «Nemislarga ham quyosh ostida o‘z o‘rni kerak» degan jonli iborasi german diplomatiyasining shioriga aylandi.

Uch imperatorlar shartnomasini ikki marta (1881 va 1884) uzaytirilishi va 1882-yilda «qayta kafolatlash bitimi»ni imzolanganligiga qaramasdan, rus german munosabatlarida ishonchsizlik kuchaya bordi. Ikkala tomon ham bir-biriga proteksionistik (tomojnaya) bojxona narxlarini va noqulay savdo sharoitlarini tiqishtirishgan. Germaniya shu paytdan boshlab Rossiya va Fransiya qarshi urushga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. German bosh shtabi XIX asrning 80-yillaridayoq bir-biriga uxshash harbiy-strategik rejalarini ishlab chikishga kirishgan edi.

Rus – Fransuz ittifoqi yuzaga kelishi masalasiga kelsak, shuni takidlash mumkinki, Rossiya o‘zining tashqi siyosati yo‘nalishida Markaziy – Yevropa davlatlariga yaqinlashishidan iborat an’anasidan voz kechishiga va yangi ittifoqchilar izlashga majbur bo‘ldi. U faol ravishda Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Uni bunday yo‘l tutishiga Germaniyaning Yaqin Sharqdagi ruslarga qarshi siyosati, german militarizmini o‘sishi va 1891-yilda Uchlar ittifoqini qayta tiklanishiga turtki bo‘ldi. Fransiya Yevropada Germaniyaning kuchayishidan uning

mustamlakachilik davolarining o'sishidan hayiqardi. Shunng uchun u Rossiya bilan yaqinlashishidan manfaatdor edi.

1891-yil iyulda Fransiya esqadrosi Kronshtatga keldi. Bir paytning o'zida harbiy kemalarning tashrifi bilan bir qatorda diplomatlar va harbiylarning ittifoq tuzish haqidagi rus-fransuz muzokaralari bo'lib o'tdi. 1891-1891-yillarda mabodo tomonlarning biriga Germaniya yoki Avstriya Vengriyaning hujumi xavfi solsa birgalikda harakat qilish haqida birinchi xujjatlar-siyosiy bitim va harbiy konvesiya imzolandi. 1893-yilda konvensiyani ratifikatsiya qilinishi mudofaa harakatini va Germaniyaga qarshi qaratilga rus – fransuz ittifoqini batamom rasmiylashtirilishini anglatgan. Ikki qarama-qarshi turgan ittifoqlarni (Uchlar va rus-fransuz) yuzaga kelishi bilan halqaro munosabatlar tarixida yangi bosqich boshlanib, bu Yevropada ziddiyatlarning chuqurlashuvi va buyuk davlatlarning ta'sir doirasi uchun kelgusida dunyoni bo'lib olish bo'yicha keskin kurashi bilan bog'liq edi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining tuzilishi davom etdi (asosan o'rta Osiyoning qo'shib olinishi hisobiga). 1897-yilga kelib aholining soni 128 mln kishini tashqil etsada, shu bilan birga shaharliklarning soni ham o'sib bordi. Asrning ohirida ular aholinnig 13 foizini tashqil etgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy tuzilshning o'ziga xos hususiyatlariga nazar solsak. Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi dehqonlar islohatining shart-sharoitlari va amalga oshirilishini borishi bilan belgilanardi. 1861-yildan kapitalizm hukmron ishlab chiqarishi sifatida tarkib topa boshladi. Rossiya kapitalizmning rivojlanishi umumiy qonuniyatlaridan tashqari yana o'ziga xos hususiyatlari ham mavjud edi. Bu esa iqtisodiyot va ijtimoiy-siyosiy sohada an'anaviy tuzilishlar: yerga pomeschchik yer egalgining saqlanib qolishi; jamiyatning tabaqalarga bo'linishi va ularning huquqiy qtengsizligi; dehqon jamoasi; pomeschchiklarning manfaatlarini himoya qiluvchi va harbiy-politsiya apparatiga tayanuvchi Mutloq podsho hukumatinnig mavjudligi bilan izohlanar edi.

Rossiya jamiyati, ayniqsa dehqonlar va pomeschiklar, kapitalistik munosabatlarga bo'sh tayyorlangan edi. Ko'pchilik aholining soddaligi bilan

podshoga ishonishi va patriarxal-jamoa mentaliteti mamlakat iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlarni faol idrok etilishiga halal beradi.

Iqtisodiyot uchun ko'pukladlik harakterli edi: yirik kapitalistik xo'jaligi bilan patriarxal dehqon xo'jaligi hamda yarim feodal pomeshik xo'jaligini yonma-yonligi mavjud edi. Iqtisodiyotning asosiy sohalarida keskin disproporsiyalar (tengsizlik) yuzaga keldi: sanoatning muddatli o'sishi qishloq xo'jaligidagi turg'unliknnig asta-sekin bartaraf etilishi bilan yonma-yon bordi. Kapitalni dastlabki jamgarish jarayoni cho'zilib ketdi. Bu esa Rossiya iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini keng kirib kelishi uchun yo'lni ochib berdi.

XIX ikkinchi yarmida kapitalizmni tez suratlarda taraqqiy etishiga qaramasdan Rossiyani madernizatsiyasi ancha uzoq muddatga chuzildi va usha vaqtdagi ilgor kapitalistik mamlakatlarga nisbatan quvib yetuvchiharakterini saqlab qoldi.

Qishloq xo'jaligi masalasiga kelsak, Rossiya iqtisodiyotida agrar sektor hukmron mavqeni egallagan. Aynan shu sohada kapitalistik munosabatlarning evolyutsiyasi o'ta sekin suratlarda bordi.

280 mln. desyatina yerning 102 mln. ni xususiy mulk qo'lida edi. Yerning katta (77%) va sifati jihatdan eng yaxshi qismi pomeshchiklarga tegishli bo'lgan. Shuning uchun agrar sektorni burjuaziya evolyutsiyasini asosiy ko'rsatkichi pomeshik xo'jaligining ahvoli bo'lgan. Refermadan keyngi davrda uni uch xili yuzaga keldi: foydalaniladigan, kapitalistik va aralash xillari bo'lgan.

Foydalaniladigan tizim pomeshikning yeriga dehqonning o'z inventari (yani ish qurollari) bilan ishlov berishidan iborat bo'lgan. Bu esa kam yerli va mablagsiz dehqonlarni pomeshikdan ijara (arenda) ga olingan yer uchun asoratga tushishini anglatardi. Bu ekspluatatsiyaning yarim krepastniklik shakli bo'lib, unga o'ta past mehnat unimdorligi harakterli edi. Foydalanishga berish tizimi ayniqsa Markazning qora yerli hududlarida va ilgari borshina ustunlik qilgan Volga bo'yida keng tarqalgan edi.

Kapitalistik tizim, pomeshikni uzini inventari (mehnat qurollari) bilan uni yerlariga ishlov beradigan dehqon-botraklarning erkin yollanma mehnatini

qullanishini nazarda tutardi. Aynan shu xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi texnikasi keng ravishda joriy qilingan, ishlab chiqarish tuzilishi takomillashtirildi va uning mahsuldorligi yanada tez sur‘atlarda usib bordi. Xo‘jalikning bu turi Boltiq bo‘yi, Ukraina va g‘arbiy Belorusiya uchsun harakterli edi.

Erkin yollanma mehnat va foydalanish qo‘llaniladigan aralash tizim, so‘l qirg‘oq Ukarainasi, Sharqiy Belorusiya va ba‘zi G‘arbiy rus guberniyalarida tarqalgan edi.

XIX asrning 70-yillari oxiriga kelib xo‘jalik yuritishning kapitalistik tizimi asta sekin foydalanishga yer berish tizimini siqib siqara boshladi.

O‘z xo‘jalagini yangi izga o‘tkaza olmagan pomesheviklar asta-sekin xonavayroln bo‘lganlar va o‘z yer-mulklarini soganlar. Mamlakatda yerni qayta taqismlash jarayoni bordi, chunki uni bir qismini burjuaziya sotib olgan.

Dehqon xo‘jaligi pomeshevik xo‘jaligiga nisbatan yanada sekinlik bilan kapialistik munosabatlarga moslashib bordi, bu birinchi navbatda kam yerga ega bo‘lganlari uchun kelib chiqqan. Dehqon jamoalari qo‘lida 139 mln. desyatina yer bo‘lib. 60-yillarida har bir erkak jinsiga jon boshiga 5 desyatina, XIX asr ohiriga kelib 2,5 desyatina qisqargan edi. Bundan tashqari , dehqonlar soliqlar va yuqori sotib olish to‘lovlari bilan ezilgan bo‘lib, bu esa xo‘jalikni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larni yetishmasligiga olib keldi. Vaqti-vaqtida jamoa ichida yerlarni qayta taqsimlash, dehqonlarning yoppasiga xat-savodsizligi ham dehqon xo‘jaligi rivojiga to‘sqinlik qilardi.

Nazorat uchun savollar

1. XIX-asrning II yarmidagi ichki siyosat?
2. XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarida rus madaniyati?
3. .XIX asrning II yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish?
4. XIX asrining II yarmida Rossiyaning Yaponiya bilan savdo va diplomatik munosabatlari?
5. Sharqiy tanglikni va uning bosqichlari haqida gapirib bering?

3.2. XX ASRNING BOSHLARIDA IQTISODIY-SIYOSIY AHVOL

Tayanch soʻz va iboralar: industriyalashtirish, texnik revolyutsiya, sanoat monopoliyalari, sindikat, Revolyutsiya, 3-iyun monarxiyasi,

Islohotdan keyingi davrdagi iqtisodiy rivojlanish natijasida (XIX asrning 90-yillardagi sanoatdagi yuksalish) Rossiya kapitalizmi tizimi shakllandi. Bu holat tadbirkorlikni va sarmoya, mablagʻlarini oʻsishida, ishlab chiqarishni takomillashtirilishida, uni texnik jihatdan qayta jixozlanishda, xalq xoʻjaligining barcha sohalarida yollanma ishchi kuchini sonini koʻpayishida aks etdi. Boshqa kapitalistik mamlakatlar bilan bir vaqtda Rossiyada industriyalashtirish bilan bir paytda toʻgʻri kelgan ikkinchi texnik revolyutsiya (ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarishni jadallashtirish, elektr tokini va zamonaviy fanning boshqa yutuqlaridan keng foydalanish) kelib chiqdi. Rossiya qoloq agrar mamlakatdan XX asr boshlarida agrar-industrial davlatga aylandi.

Sanoati masuloti hajmi jihatidan u yirik davlatlar beshligiga (Angliya,Fransiya,AQSh va Germaniya) kirdi va jahon xoʻjalik tizimiga yanada chuqurroq kirib bordi.

XIX – XX asrlar arafasida kapitalizm yangi, monopolistik bosqichiga kirdi. qudratli ishlab chiqarish va moliyaviy birlashmalari (sanoat monopoliyalari va moliyaviy ittifoqlar) tashqil topdi. Asta-sekin sanoat va moliya kapitalini birlashtirish boʻlib oʻtib, sanoat-moliya guruhlar yuzaga keldi. Ular iqtisodiyotda hukmron mavqeni egallab ishlab chiqarish va sanoat hajmini tartibga solishgan, narxlarni belgilashgan, dunyoni taʼsir doirasiga boʻlganlar. Ularning manfaatlariga borgan sari kapitalistik davlatlarning ichki va tashqi siyosati boʻysoʻngan. Monopolistik kapitalizm tizimi oʻzgarib va yangi tarixiy jarayonlarga moslashib, butun XX asr davomida saqlanib qolgan.

Monopolistik kapitalizmni yuzaga kelish jarayoni Rossiya uchn ham harakterli boʻlgan. U Rossiyaning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayoiga daxldor boʻlgan. Umumiy qonuniyatlarning namoyon boʻlishi bilan bir qatorda, Rossiyada

monopolistik kapitalizmning o'ziga xos xususiyatlari ham bo'lgan. Bu esa bir qator omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, tarixiy omil-Rossiya Yevropadagi ko'pgina mamlakatlardan keyinroq kapitalizmga o'tdi. Ikkinchidan iqtisodiy-geografik omil, turlicha tabiiy sharoitlari bo'lgan bepayon hudud va uni bir tekisda o'zlashtirilmaganligi. Uchinchidan, ijtimoiy siyosiy omil-podsho yakka hokimligini, pomeshchik yer egaligini tabaqaviy tengsizlikni, keng xalq ommasini siyosiy huquqsizligini, milliy zulmni saqlanib qolganligi. Imperiyadagi ko'p sonli xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy ahvolini turlicha darajadaligi ham Rossiya monopolistik kapitalizmini o'ziga xosligini belgilagan.

Iqtisodiyotning xususiyatida asosiysi zamonaviy kapitalistik sanoat va bank-moliya tizimi Rossiya iqtisodida, o'zida yarim kreposniklik mulkchilik shakllari va xo'jalik metodlarini saqlab qolgan qoloq agrar sektori bilan birga qo'shib olib borilgan. qishloqni kapitalistik evolyutsiyasi sanoat taraqqiyotini tez sur'atlarda o'sishiga yetib yulgurmadi. Bu esa xo'jalikni sohalari bo'yicha kapitalizmni notekis rivojlanishiga olib keldi. 5 ta rayon: Shimoliy-g'arbiy, Markaziy-Sanoat, Ural, Janubiy va Kavkazorti (Boku)da yirik korxonalarning markazlashishi saqlanib qoldi. Rossiyada – davlat monopolistik kapitalizmi tizimi shakllandi.

Sanoat: Rossiya uchun boshqa kapitalistik mamlakatlar singari iqtisodiy rivojlanishni notekisligi harakterli edi. XIX asrning 90-yillaridagi sanoat ko'tariliidan so'ng XX asrning boshlarida jahon krizisi (tangligi) yuz berdi. 1900-1903-yillardagi krizis (tanglik) maxsulotlarning asosiy turlariga narxlarni tuib ketgani, ishlab chiqarishni keskin qisqarishida, ommaviy ishsizlikda aks etdi.

Shunday sharoitlarda monopollashish jarayoni kuchaydi, kertellar yuzaga kelishida davom edi.

Bu birlashmalarning qatnashchilari ishlab chiqarishni hajmi, maxsulotni sotish va ishchi kuchini yollash shartlari to'g'risida kelishilgan, ammo shu bilan birga ilab chiqarish kommersiya faoliyatida mustaqilligini saqlab qoligan. 1901-yilda Putilov, Bryansk va boshqa parovoz qurish zavodlari "Prodparovoz"ga birladilar. Monopoliyalarning shakllari – sindikatlar yuzaga keldi. Bu birlashmalar buyurtmalarni olishni, xom ashyoni harid qilishni tartibga solishgan. Maxsulotlarni

keliilgan narxlarda markazlashgan xolda sotilii amalga oshirigan. Ishlab chiqarish sohasida sindikatga kirgn korxonalar o‘z mustaqilligini saqlab qolishgan. 1902-yilda metallurgiya sanoatida “Prodmetal” va “Trudoprodaja” sindikatlari vujudga keldi. 1904-yilda Yevropa mamlakalarida sanoat o‘sishi boshlandi, Rossiyada esa farqli o‘laroq 1904-1908-yillarda ham o‘si sur’ati pasayishi davom etdi. Bunga 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushiga ulkan harajatlar sarflanganligi va 1905-1907-yillardagi revolyutsiya ishlab chiqarishni sanoatda qisqarishiga va qishloq xo‘jaligini xonavayron bo‘lishiga olib kelgani sabab bo‘ldi..

1909-1913-yillarda Rossiyada yangi sanoat o‘sishi bo‘lib o‘tdi. Xalqaro vaziyat keskinlashib hukumat buyurtmalari (harbiy ehtiyojlar uchun) ko‘paydi, bu esa sanoatni ko‘tariliiga imkon berdi. Bu-yillarda monopollashish jarayoni chuqurlashdi. “Provolka”, “Elektroprovod” singari yangi sindikatlar tashqil topdi. Yuqori turdagi monopoliyalar – trestlar va konsernlar tashqil topdi. Bular xom ashyoni kazib olish, tayyor maxsulotni ishlab chiqarish va sotishni tartibga solgan.

Sanoatni tez sur’atlarda rivojlaniiga qaramay agrar sektor mamlakat iqtisodida oldingi o‘rinni egallab qolverdi. qishloq xo‘jaligidagi kapitalistik munosabatlar sanoatdagiga ko‘ra ancha sekin yuzaga keldi. Bunga pomeschik yer yegaligi va dehqonlarni kam yerliligi, agroexnik qoloqlik va qishloqdagi jamoa munosabatlarini saqlanib qolganligi sabab qilib ko‘rsatish mumkin.

Shu qatorda sanoat markazlarini va ahlar aholisini o‘sishi, transport tarmog‘ini rivojlanishi, Rossiyan jahon xo‘jalik tizimiga jalb qilinishi, ham ichki, ham tashqi bozorda qishloq xo‘jaligi maxsulotlariga ehtiyojini ortishiga imkon berdi.

XX asr boshlarida Rossiyada yer yegaligini va yerdan foydalanishni turli shakllari mavjud edi. Xususiyl yer egaligida hamon poieshchik latifundiyalari hajmi katta edi, ularda Rossiyaning sotiladigan bog‘doyini yarmi yetishtirilardi. Bu yer mulklarda amalga oshirilgan qayta qurishlar, yollanma mehnatni qo‘llanishi, agrotexnik darajani oshishi xo‘jalikda maxsuldorlikni ko‘paishiga olib keldi.

Mamlakadagi yer fondining yarmi dehqonlarga tegishli bo‘lgan, Rossiyaning Yevropa qismidagi dehqonlar yer maydoni yetishmasligidan muammolarga duch kelardilar. Ayrim dehqon xo‘jaliklari intensiv yo‘l bo‘yicha rivojlangan. Bu

ko'pdalali almashlab ekish tizimini qo'lanishida, birinchi qishloq xo'jalik mashinalaridan (jneyka) foydalanishda va agrar islohotdan keyin kredit, sotib olish va soti koperatsiyalarini takil etilishida ko'rindi. Shu bilan birga rus qishlog'i asosan qoloqligicha qolaverdi. Agrotexnik yangiliklar o'ta sekinlik bilan borgan. Yerga ishlov berish usullari, odatdagidek, eskicha qoldi. Xosildorlik o'ta past edi.

Ob-havo tabiiy sharoitlari hamon qishloq xo'jaligini holatini belgilardi. XX asr boshidagi xosilsizlik rus qishlog'ida ommaviy ocharchilikka olib keldi. Aksincha, 1909-1910-yillardagi xosildorlik dehqon xo'jaliklarini va mamlakatni butun iqtisodini jonlanishiga imkon berdi. 1916-yilga kelib dehqonlar qishloq xo'jaligi masulotini 53 % berganlar.

1906-1910-yillardagi agrar islohotdan so'ng kapitalistik munosabatlarni qishloq xo'jaligiga kirib borishi ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. 1900-yildan 1913-yilgacha qishloq xo'jaligi maxsulotini umumiy hajmi 3 baravarga ko'paydi.

Bug'doy yetishtirish bo'yicha Rossiya dunyoda 1-o'rinda turgan. Texnik o'simliklarni yetishtirish o'sib bordi, bu ko'proq O'rta Osiyo va Kavkazortida paxtachilikni rivojlanishi hisobiga amalga oshirildi. Yirik shoxli hayvonlar soni 2,5 baravar boshga ko'paydi. Agrar sektor Rossiya iqtisodini daromadli sohasiga aylandi.

Monopolistik kapitalizm sharoitlarida Rossiyaning moliyaviy tizimi bank kapitalining davlat va xususiy shakllari bilan belgilangan. Ikkita yaeni emissiya va kredit kabi markaziy funksiyalarni bajargan davlat banki asosiy o'rinni egallagan. U bank monopoliyalarini qo'llab-quvvatlagan, sanoat va savdoni davlat kreditlashi bilan shug'ullandi.

Rossiyada yirik aksionerlik banklari tomonidan mablag'ni to'plash va markazlashtirish amalga oshirildi. Bular iqtisodni barcha sohalariga kirib borib mamlakatni ijtimoiy-siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Monopolistik kapitazmni vujudga kelishi ichki savdoda sezilarli siljishlarga olib keldi. Bunda yirik sanoat birlashmalari va kommersiya banklari katta rol o'ynay boshladilar. Ular sanoat va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ulgurji savdosini o'zlariga bo'sundirganlar.

Rossiyaning tashqi savdosi to'xtovsiz o'sib bordi. Unga Germaniya, Angliya va Fransiya oldingi o'rinda bo'lishgan. Rossiya xom ashyo va qishloq xo'jalik maxsulotlarini chetga chiqargan (asosan bug'doy-647,6 mln pud chiqarilgan). Importga ko'proq sanoat maxsulotlari mashinalar, asbob-uskanalar, kimyoviy o'g'itlar keltirish oldingi o'rinni egallagan.

Transport tizimi XX asr bolarida sezilarli o'zgarilarga uchramadi. Temir yo'l transportida yuk va yo'lovchilarni ichki tashishlar oldingi o'rinni egallagan. Rossiya rels yo'llari bilan ta'minlash bo'yicha g'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShdan ancha orqada qolayotgan edi. XIX asrning 80-yillarida O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishi (Krasnovodskdan Samarqandgacha) va 1891-1905-yillarda Buyuk Sibir magistralini (Chelyainskdan Vladivostokkacha) kurilii bu transport muammosini xal etishda muhim qadam bo'lgan.

Hamon suv yo'llari muhim rol o'ynagan. Rossiyaning daryo floti o'zining soni jihatidan boshqa mamlakatlarni flotiyalaridan ustun edi va yaxshi jixozlangandi.

Dengiz savdo floti oz sonli blib, rossiya yuklarini asosiy qismi chet kemalarida tashilardi.

Tosh terib yotqizilgan (shosse) yo'llar nisbatan sekinlik bilan ko'payib bordi. Asosan aravalar yuradigan katta yo'l (trakt)lar va qishloq yo'llari mamlakati bo'lib qolaverdi. Avtomobil bu paytda obro'li tabaqalar uchun xashamat buyum xisoblanardi. Umuman olganda XX asrning boshi Rossiya tarixi uchun industriyalash va monopoliyalash jarayonlarining bir paytda kechgani harakterlidir.

XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi hududini vujudga kelishi tugallanib. U 22,2mln kv. Kmni takil etgan. U kattaligi jihatidan dunyoda Brityaniya imperiyasidan keyin 2-chi o'rinni egalladi. Aholisi XIX –asr oxiridan uch baravarga ko'paydi va 1913-yilga kelib 150 turli millatlardan iborat bo'lgan 160 mln.kishini tashqil etirdi.

Ijtimoiy tuzumning xususiyalariga nazar solib, unda eski va belgilarni qo'shib ketganlini ko'ramiz. Butun qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat podsho qo'lida jamlanib, u yakka o'zi ROssiyani boshqarib asosan dvoryandarga

tayangan. Mamlakatni boshqarishni ma'muriy politsiya tizimin hukmronlik qilardi. Ayrim ijtimoiy guruhlar – dvoryanlar, ruxoniylar, kazaklarni – imtiyozli holati saqlanib qolgan. Demokratik erkinliklar yuk bo'lib, 1905-yilga kadar siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalarning faoliyati taqiqlangan.

Iqtisodda va mamlakatdagi siyosiy kuchlarni doylashuvida yuzaga kelgan, uzgarishlar tufayli ijtimoiy tuzilishda yangi belgilar vujudga keldi. Modernizatsiya, kapitalistik jamiyatni asosiy guruhlarini – burjuaziya va proletariyatni yuzaga kelishni tezlashtirdi. 1906-yilda vakillik organi Davlat dumasini tashqil etildi, natijada Rossiyaning davlat tuzumi parlament monarxiyasiga uxshadi.

Ijtimoiy tuzilishda asosiy imtiyozli toifa xisoblangan dvoryanlar aholini 1,4 foizini tashqil etgan. Ularni kuprok mamlakatdagi siyosiy hayotni belgilashardi, markaziy va mahaliy boshqaruv organlarida muhim lavozimlarni egallashgan, katta yer fondiga egalik qilishgan va qishloq xo'jaligida sezilarli rol uynaganlar. Biroq kapitalizimni rivojlanishi ta'siri ostida dvoryanlik xonavayron bo'lgan, yoki burjuazlashib burjuaziya bilan siyosiy hamkorlikka tayyor bo'lgan.

Mamlakat aholisini 0,5 foizini tashqil etgan ruxoniylar yana bir imtiyozli tabaka edi. Cherkov: 2 mln. desyatina yer, uylar, kasalxonalar, bosmoxonalarga, ya'ni anchagina mulkka ega edi.

Mamlakat aholisini 2,5 foizini tashqil etgan kazaklar – harbiy xizmat kiluvchi harbiy toifa bo'lib, davlat chegaralarini quriqlashgan va podsho hokimiyatini ijtimoiy tayanchi xisoblangan. Xizmatdan bush paytlardan kazaklar har bir erkak jon boshiga 30 desyatina yerga ishlov berishgan. Ular bepul tibbiy xizmat va ta'limdan foydalanishgan.

Rossiya jamiyatini ijtimoiy tuzilishida kup sonli amaldor (xizmatchi)larga alohida rol tegishli bo'lgan. Davlat hayotida o'zining mulkiy holati bo'yicha ular bir xil mavkeada bo'lganlar.

Burjuaziya mamlakat iqtisodiyotida asta sekin yetakchi kuchga aylanib bordi. Yirik va o'rta burjuaziyaning umumiy soni (1,5 mln.) uncha kup bo'lmagan. Podsho pomehik Rossiyani siyosiy tizimida burjuaziya sezilarli rol uynamagan. Ular yagona

siyosiy talablarni ishlab chikmaganlar. Yirik burjuaziya podsho hokimiyatini kullasa o'rta, burjuaziya, mutadil tub uzgarishlar loyixalarini ilgari surishgan.

Dehqonlar aholini eng kup sonli (77 foizi) tabakasi bo'lgan. Ular asosiy solik tulovchilar va hammadan ko'ra huquqsiz tabaka edi. Qishloq xo'jalikni kapitalistik evolyutsiyasi ta'siri ostida dehqonlarni ijtimoiy tabakalanishi tezlashdi: ularni 3 foizi qishloq burjuaziyasiga (ularni kulaklar deb atashgan) aylanishdi, 15 foiziga yaqini esa o'ziga tuk, badavlat dehqonlarga aylanishdi. Shunga karamay barcha dehqonlar pomehik yer egaligiga qarshi kurashishgan.

Industrializatsiyalashni tez usish natijasida ko'paygan proletariat 1913-yilda aholini aholini 19 foizini tashqil etgan. Proletariat, turli tabakalarni kashshoklashgan katlamlaridan kelib chikkanlar xisobiga vujudga kelgan. Ishchilarni mehnat va turmush sharoiti garbiy Yevropadagiga karaganda ancha fark kilgan va o'ta og'ir bo'lgan: eng kam ish haqi (21 – 37 rubl), eng uzak davom etadigon ish kuni (11-14 soat), yamon yashash sharoiti edi. Ishchilarni iqtisodiy manfaatlarini amalda hech kim himoya kilmgan, 1906-yilgacha kasaba uyushmalari bo'lmagan.

XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy tanglik masalasida shuni takidlash lozimki, imperator Nikolay-II (1894-1917) taxtga 26 yoshda utirdi. U ajoib tarbiya va ta'lim oldi, uchta chet tilida gaplasha olgan, biroq keng davlat dunyokarashiga ega bo'lmagan va ulkan mamlakatni uning tarixidagi tinchlik davrida boshqarishga yetarlicha tayyor emas edi. Unga, onasi beva imperatritsa Mariya Fyodorovna, xotini imperatritsa Aleksadra Fyodorovna, konservatorlarni ideologi K.P.Pobedonossyev, uning hukumronligining oxirida esa – G.Ye.Rasputinlar katta ta'sir ko'rsatishgan. Bularning barchasi fakat uning oilasi uchungina emas, balki butun Rossiya uchun xaloqatli okibatlarga olib keldi.

Hukumat oldida mavjud tuzumni represiv usullar yoki uni modernizatsiyalash orqali saqlab qolish vazifasi turardi. Oliy hukumat doiralarida bu muammoni xal etishda birlik, yagona fikr yuk edi. Ba'zilar (moliya vaziri S.Yu.Vitte, ichki ishlar vaziri P.D.Svyatopolk-Mirskiy va boshqalar), Rossiyaning davlat tuzilishini rivojlanayotgan industrial jamiyat ehtiyojlari bilan mos keltirish uchun iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy isloxatlar o'tkazishni zarur deb xioblaganlar. Boshqalar (Sinod

ober prokurori K.P.Pobedonossyev, ministrlar kengashining raisi I.N.Duronov, ichki ishlar vazirlari D.S.Sipyagin va V.K.Pleve), mamlakatni iqtisodiy hayotida amalga oshirilgan uzgarishlarni tan olishmadi, revolyutsionerlar va oppozitsiyachilardan uch olishni talab qilishdi, jamoatchilik ongiga goyaviy tayzikni kuchaytirishga intilishdi.

Ishchilar harakatida 1900-1904-yillarda 1000 ga yaqin ish tashlash (stachka)lar kayd etilgan. Ularda 43- mingdan ortiq proletarlar ishtirok etishdi. Moskva, Peterburg, Donbass, Baku, Ural kabi yirik sanoat rayonlarini barchasi ish tashlash (zabastovkalar) bilan kamrab olingan. Ular fakatgina mehnat va turmush sharoitini yaxshilash haqidagi iqtisodiy talablarnigina emas, balki podsho hokimiyatini yukotish va demokratik erkinliklarni kiritishlik kabi, siyosi talablarni ilgari surushgan. Ishchilar siyosiy namoishlar va umumiy ish tashlashlar kabi kurashni yangi shakillaridan foydalana boshlaganlar.

Podsho hukumatini ichki siyosatidagi asosiy masalasi ishchilarga munosabat bo'lib qoldi. Hukumat uchta usul bilan masalani xal etishga harakat qildi. Birinchisi – repressiyalar. Ish tashlashlarda ishtirok etgani uchun ishchilar jinoiy javobgarlikka tortilishlari, kamokka olinishlari, yirik sanoat shaharlarida yashashligi taqiqlanib uzga yurtga badarga qilinishi mumkin edi. Biroq bu usul samarasiz chikdi, buning ustiga korxonalar yanada kuprok kasbiy tayyorgarlikka ega ishchilarga ehtiyoj sezilardi.

Ikkinchi usul – hukumat, XIX-asarning 80-yillarida belgilangan korxona egalari va ishchilarni munosabatlarini tartibga solishni davom ettirdi, 1897-yilda ish kunini 11,5 soatga kiskartirish haqida qonun qabul qilindi. Korxona egalari tomonidan qonunlarni buzilmasligini kuzatish lozim bo'lgan fabrika inspeksiyasining, yuz berishi mumkin bo'lgan ish tashlashlarni oldini olish bo'yicha huquqlari kengaytirildi. 1901-yilda, ishlab chiqarishda mehnat kobiliyatini yukotgan, davlat korxonalari ishchilarni uchun nafaka joriy etildi. 1903-yilda fabrika egalari tomonidan ish paytida jaroxatlangan ishchilarga kompensatsiya tulanishi haqidagi qonun qabul qilindi.

Uchunchi usul, politsiya nazorati ostidagi ochiq faoliyat ko'rsatadigan ishchi tashqilotlarini tuzilishi bo'ldi. Bundan kuzlangan maqsad, proletariatni hukumatga qarshi chikishlaridan chalgitish edi. 1900-1904-yillarda dehqonlarning galayonlari Rossiyaning yevropa qismidagi 42 ta guberniyalarda 600 martacha yaqin bo'lib utdi. Ammo bu-yillarda dehqonlar podshoga qarshi chikmadilar. Ular pomehik yerlarini bo'lib berilishini, soliklar va majburiyatlarni kiskartirilishini talab qildilar. Hukumat dehqonlar galayonlarini ommaviy jazo harakatlari orqali bostirishgan. 1903-1904-yillarda, ayrim dehqonlarga jamoa yerlaridan chikib, davlat yerlariga kuchib utishlariga imkon bergan bir qator qonunlar qabul qilingan, amo bu qisman yul berishlar agrar-dehqon masalasini xal etmagan.

Demokratik intelegensiya (ziyolilar) harakatida olimlar, vrachlar va boshqalarning ochiq jamiyatlari bilan bir qatorda studentlar ham ancha faol ishtirok etganlar. Moddiy va huquqiy holatni og'irligi, hukumatning oliy ta'lim sohasidagi antidemokratik siyosati-bularning barchasi oliy ukuv yurtlari negizida norozilikni usishi uchun negiz yaratdi. XX asr boshlarida radikal studentlarning bir qismi ochiq siyosiy kurashga utib, o'zining ishchilar sinfi bilan hamkorligini bildirdi. 1901-yil baxoridagi Moskvadagi studetlar va ishchilar namoishyishi hukumatni, studentlarni tartibsizliklarda katnashgani uchun askarlikka berish qonunini kullashdan voz kechishiga olib keldi.

Intelegensiya (ziyolilar)ning vakillari, XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan, sotsial-demokratlar va esserlar radikal siyosiy partiyalarining ijtimoiy negizi bo'lib qoldi.

XIX asrning 90-yillarini o'rtalarida Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarda sotsial-demokratik partiyalarning dastlabkisi «Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqlari» vujudga keldi. Ularni ish tashlagan ishchilar bilan o'rnatgan aloqalari politsiya tomonidan tugatildi. 1898-yildagi s'ezda Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasini tuzish harakati muvaffakiyatsiz chikdi. Dastur yoki ustav (nizom) qabul qilinmadi, s'ezd delegatlari kamokka olindi.

Yangi siyosiy tashqilotni tuzish harakati G.V.Plexanov, Yu.O.Sederbaum (L.Martov), V.I.Ulyanov (Lenin) va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi. 1900-

yilda ular chet elda nolegal «iskra» gazetasini nashr eta boshladilar. Ular tarkok tugarak va tashqilotlarni birlashtirdilar. 1903-yilda Londonda – bo‘lib utgan s‘ezdda dastur va nizom qabul qilinib, Rossiya sotsial-demokratik ishchi partiyasi tuzildi (RSDRP).

Dasturda revolyutsiyani 2 bosqichi ko‘zda tutilgan: 1-chisi burjua-demokratik talablarni amalga oshirish, 2-chisi sotsialistik revolyutsiyani amalga oshirish va proletariat diktaturasini o‘rnatishdan iborat bo‘lgan. 1902-yilda sotsialist-revolyutsionerlar (eserlar) partiyasi tashqil topdi. Ular kurash taktikasi etib - terorni tanlashdi.

Zemstva va shahar dumalari, liberal oppozitsiyani yuzaga kelishi markaziga aylandi. Liberal harakat ishtirokchilari o‘z dasturlarida mutadil siyosiy uzgarishlarni (konstitutsiyaviy monarxiya va demokratik erkinliklar) kuzda tutganlar.

1905-1907-yillardagi bo‘lib utgan revolyutsiyani sabablarini negizi Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy tuzumida edi.

1900-1903-yillardagi iqtisodiy tanglik tufayli mehnatkashlarni moddiy aholini yomonlashuvi va 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushda podsho hukumatini sharmadali maglubiyati, revolyutsiyani boshlanishini tezlatgan katalizator bo‘ldi.

Revolutsiyani vazifasi – podshoni agdarish, demokratik tuzumini o‘rnatishlik uchun ta’sis majlisini chakirish; toifaviy tengsizlikni tugatish; suz, yigilishlar, partiyalar va birlashmalar erkinligini kiritish; pomehik yer egaligini tugatish va dehqonlarga yerlarni taqsimlab berish; ish kunini davomiyligini 8 soatgacha kiskartirish; ishchilarni ish tashlashlar o‘tkazish va kasaba uyuhmalari tuzish huquqini e’tirof etish, Rossiya xalqlarini tengligiga erishishdan iborat edi.

Bu vazifalarni amalga oshirishda aholining keng tabakalari manfaatdor bo‘lgan. Revolyutsiya (inkilob)da ishchilar va dehqonlar, soldatlar va matrosalar, o‘rta va mayda burjuaziyaning katta qismi, ziyolilar va xizmatchilar katnashganlar. Shuning uchun maqsadi va katnashchilarni tarkibi jihatdan revolyutsiya umumxalq bo‘lib, burjua-demokratik harakterga ega bo‘lgan.

Revolyutsiya 2,5-yil (1905-yil 9-yanvardan 1907-yil 3-iyungacha) davom etgan. Birinchi bosqichi 1905-yil 9-yanvardan sentabrning oxirigacha – boshlanishi va rivojlanishi davri xisoblanadi. Ikkinchi bosqichi – 1905-yilning oktabr-dekabri revolyutsiyani eng yuksalgan davridagi asosiy vokea butunrossiya umumiy oktabr siyosiy ish tashlashi va natijada 17 oktabr manifestini e’lon qilinishi bo’ldi. Uchinchi bosqich – 1906-yil yanvaridan 1907-yil 3-iyunga kadar revolyutsiyani pasayishi va chekinishi davri bo’ldi.

1906-yil aprel iyunida birinchi Davlat Dumasi faoliyat ko’rsatib, Duma Rossiyaning demokratlashtirish dasto’rini taklif etdi, unda asosan dehqonlar masalasi bo’ldi. Ikkinchi Davlat Dumasi 1907-yil fevral iyun oylarida faoliyat ko’rsatgan.

Revolyutsiyaning ahamiyati haqida gap ketganda shuni takidlash mumkinki, asosiy okibat oliy hokimiyatni Rossiyaning ijtimoiy-siyosiy tizimida uzgarishlar o’tkazishga borishga majbur bo’lganligida edi, Rossiya fukarolarining ijtimoiy-siyosiy ahvoli uzgardi: demokratik uzgarishlar kiritildi, senzura taqiqlandi, kasaba uyushmalar tuzishga ruxsat etildi. Ishchilarning moddiy ahvoli yaxshilandi, bir qator sohalarda (sanoatdagi) ish haqi oshdi va ish kuni davomiyligi 9-10 soatgacha kiskardi. Dehqonlarni yerlarni sotib olish tulovlarini bekor qilinishiga erishdilar.

Dehqonlarni kuchib yurishlari (o’tishlari) erkinligi kengaytirildi va zemstvo boshliklarining xukulari cheklandi. Jamoalarni yemirgan va dehqonlarning yer egalari sifatidagi xukularini mustaxkamlagan agrar isloxat boshlanib, bu esa kelgusida qishloq xo’jaligida kapitalistik evolyutsiyaga olib keldi.

Revolyutsiyani tugashi Rossiyada vaktinchalik ichki siyosiy barqarorlikni o’rnatilishiga olib keldi.

3-iyun siyosiy tizimi (1907-1914). Revolyutsiyadan keyin Rossiyada, davlatining siyosiy tashqilotini yangi tizimi yuzaga kelib «3-iyun monarxiyasi» nomini oldi.

Hukumatning ichki siyosatini, bu davrdagi revolyutsiyadan keyingi ob’ektiv sharoitlar belgilagan. Bir tomondan bu hukumatga qarshi harakatni bostirish bulsa, boshqa tomondan oliy hokimiyatni ijtimoiy tayanchini kengaytirish uchun isloxatlar

o'tkazish zarurligidan guvovlik beruvchi revolyutsiya saboqlari bilan xisoblashmaslik mumkin emas edi.

Mahalliy hokimiyatlar har kandy tashqilot va muassasalarni binolarini tintuv qilish va ularni kamokka olish huquqini olishdi. Turmalar tulib toshgan. Ulim jazosi va katil etishlar kundalik holatga aylandi. Dehqonlar, studentlar, demokratik ziyolilarni ko'plab tashqilotlari tormor etildi, kasaba uyushmalarni bir qismi yopib kuyildi, qator demokratik gazeta va jurnallarni taqiqlandi.

III-Davlat Dumasi 1907-yil noyabiridan 1912-yil iyuniga kadar faoliyat ko'rsatdi. Hukumat oldida ilgaridek uch masala: ishchi, milliy va agrar masalalar turardi. Duma besh-yil davomida to'rta qonun loyixasi, ya'ni ish kunini davomiyligi, ishchilar uchun sugo'rtalar va nafakalar masalasini muhokama qildi. 1912-yilda qabul qilingan baxsiz xodisalar va kasallik bo'yicha davlat sugo'rtasi to'g'risidagi qonun ishchilarni fakat 15% tegishli bo'lib bu hukumatni ishchilar haqida kaygurayotganini nomigagina ko'rsatgan.

Milliy siyosat «Rossiya ruslar uchun» shiyori ostida olib borilib, ruslashtirish tadbirlari kuchaytirildi. Bular maxkam ayoqqa turgan milliy burjuaziya tomonidan kuvvatlanmadi.

Stolipin agrar isloxati. Ichki siyosatda markaziy o'rinni agrar masala egallagan. Dehqonlarning kurashi, hukumatni, sotib olish tulovlarini 1906-yilda yarimini, 1907-yildan esa tula bekor qilinishiga majbur etdi. Ammo, bu yetarli emasdi. Dehqonlar yer talab qilishgan. Hukumat jamoaviy foydalanishdan vos kechish goyasiga qaytishga va xususiy dehqon yer egaligiga utishga majbur bo'ldi.

Isloxat bir necha usulda amalga oshirildi: 1906-yil 9-noyabrdagi farmon dehqonga jamoadan chikishiga ruxsat etgan bulsa, 1910-yil 14-iyundagi qonun esa Jamoadan chikishni majburiy qilib kuydi. Hukumat dehqonlarni Ural ortiga kuchirilishini ragbatlantirildi. Kuchib boruvchilarga yangi joyda joylashib olish uchun qarz berilgan. Qishloq xo'jalik mashinalarining davlat omborlari barpo etildi, agranom maslaxatlari bilan ta'minlangan, tibbiy va veterinar yordam ko'rsatilgan. Isloxatining maqsadi, pomeshik yer egaligini sakalab qolish va bir vaktning uzida qishloq xo'jaligini burjua evolyutsiyasini jadallashtirish edi. Isloxat mamlakat

iqtisodini yuksalishiga imkon berdi. Aholining harid qilish imkoniyati oshdi bug'doyni chetga chiqarish bilan boglik valyuta tushumlari ko'paydi. Isloxat ijtimoiy katlamlarga bo'linishni tezlashtirdi – qishloq burjuaziyasi va proletariyasi vujudga keldi. 1911-yil sentabrda F.A.Stoliypin teroristik akt okibatida xalok bo'ldi.

1912-yil oxirida IV-Davlat Dumasiga saylovlar bo'lib utdi. Uning partiyaviy tarkibi uzgarmasdan qoldi. Ung-oktabristlar va oktabrist-kodetlar ikki asosiy ko'pchilikni tashqil etishgan. Yangi liberal progressiv partiyasi vujudga keldi. Unga yirik burjuaziyaning va-yillari boshchilik qilishgan. Ular o'z dasturlarida konstitutsiyaviy monarxiya tuzimi, Dumani huquqlarini kengaytirish va uning oldida vazirlarni javobgarligini kuchaytirishni vazifa qilib kuyishgan.

Nazorat uchun savollar

1. XX asr boshlarida Rossiyaning iqtisodiy-siyosiy rivojlanishi?
2. XX asr boshlarida ijtimoiy hayot va unga ta'sir etgan omillar?
3. Stolipin agrar islohoti va uning natijasi?
4. XX asr boshlarida ichki siyosiy vaziyat va jamoatchilik harakati?
5. Demokratik intelegensiya harakatining mazmun-mohiyati?

3.3. XX ASR BOSHLARIDA ROSSIYANING TASHQI SIYOSATI VA MADANIYATI.

Tayanch soʻz va iboralar: Kvjd; Lyaodun; Port-Artur; Chumulpo; «Varyag»; Mukden; Susima; Portsmut; anneksiya; Antanta; garant; mobilizatsiya; Versal shartnomasi;

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya uchun anʼanaviy boʻlgan tashqi siyosatini asosiy yoʻnalishlari saqlanib qolgan. Bosh masala yaqin sharq – Qora dengiz bugozlari va Bolqon boʻlib kolaverdi. Mustakillikga erishgan va Usmoniylar imperiyasi hokimiyati ostida kolayotgan Bolqon xalqlari, Rossiyani uzlarini xomiysi va ittifoqchisi deb karaganlar. Ammo ular bilan dustona munosabatlarni mustaxkamlanishi masalasi, Bolqondan muhim strategik va iqtisodiy tariqasida manfaatdor boʻlgan Yevropaning kupgina mamlakatlarini qarshiligiga uchradi. Bunda Avstro-Vengriya oʻta faollik koʻrsatdi.

Yevropa yoʻnalishidagi anʼanaviy ittifoqchilik munosabatlari markaziy Yevropa davlatlari, Germaniya va Avstro-Vengriya bilan uzaro ziddiyatlarini usishi tufayli yanada kuprok sovib bordi. Bunga rus va german imperatorlarining bir necha marta boʻlib utgan «karindoshlik» uchrashuvlari ham xalakit bera olmagan. Franko-german dushmanchiligi chukurlashgan va rus-german ziddiyatlarini kuchaygan sharoitda, Fransiya va Rossiya 1891-1893-yillarda tuzilgan oʻz ittifoqlarini mustaxkamlashgan va Angliya bilan yaqinlashishigaintilishgan. Bu esa Yevropadagi kuchlarni qaytadan taqsimlanishini anglatgan.

XIX-XX asrlar busagasida Rossiya oʻz tashqi siyosatida uzok sharq yoʻnalishini faolashtirdi.

1904-1905-yillardagi rus –yapon urishi urishning sabalari. XIX asrning oxirida Uzok Sharq barcha buyuk davlatlarining manfaatlarini oʻziga tortadigan joyga aylandi. Zaif va qoloq Xitoy kupgina mamlakatlarni imperialistik tajovuziga duchor boʻlgan edi. Angliya, Germaniya, Fransiya oʻz mustamlakalarini egallagan edi. AQSh «ochiq eshiklar va teng imkoniyatlar» doktirinasini eʼlon qildi, bu esa

amalda Xitoyni iqtisodiy buysundirishiga olib keldi. Yaponiya undan Koreyani, Tayvanni, Peskador orollarini tortib oldi. U Tinch okeani regionida, yetakchi rolga davogarlik qildi va «Buyuk osiyo»ni barpo etish shiori ostida Xitoyning shimoliy-sharqiy viloyati – Manchjuriyaga bostirib kirishni tayyorlay boshladi. Yaponiyaning Rossiyani chegaralarini yaqinida mustaxkamlanishi imperiyaning sharqiy rayonlarini xavfsizligiga taxdid solardi.

Rossiya, boshqa mamlakatlar kabi, Uzok sharqda o'z ta'sir doiralarini egallab olishini kuzlardi. 1895-yilda rus-xitoy banki ta'sis etildi, 1896-yilda Rossiya bilan Xitoy o'rtasida Yaponiyaga qarshi mudofaa ittifoqi tuzildi, Xitoyda sharqiy temir yuli (KVJD) ni kurilishi boshlandi. 1898-yilda Rossiya Xitoydan Lyaodun yarim orolini bir qismini Port-Artur qal'asi bilan ijaraga oldi. Sin Xuandao ko'rfazida Rossiyani harbiy dengiz kuchlarini turishi unga ham Xitoyda, ham Koreya yarim orolida faol tashqi siyosat yuritish imkonini berdi. 1900-yilda rus qo'shinlari Manchjuriyaga kiritildi. 1903-yildagi, Manchjuriya va Koreyani taqdiri haqidagi rus-yapon muzokaralari boshi berk kuchaga kirib qoldi. Yaponiyani Angliya ko'llab kuvvatladi, chunki bular 1902-yilda ittifoq tuzishgan edi.

1904-yilda rus-yapon urishi boshlandi. Rossiya hukumron doiralarining fikricha, bu urush xalq ommasini hukumatga qarshi chikishlardan chalgitishi lozim edi.

Kuchlar nisbati masalasiga kelsak, ulkan harbiy kudratga ega bo'lgan Rossiya tez orada galabaga erishishga umid boglagan edi. Biroq uning harbiy manbalari Uzok Sharqda yaponlarnikiga nisbatan ancha zaif bo'lib chikdi. Urushning borishida armiya kisimlarining saflarini tuldirish, harbiy harakatlar teatrini anchi uzokda ekanligi va Transsibir magistralini o'tkazish kobiliyatini susligi tufayli yetarlicha bo'lib chikmadi.

Rossiyaning Uzok Sharqdagi harbiy-dengiz floti mikdor va sifat jihatidan yaponlarnikidan zaif edi. Harbiy amaldorlarning davlat xazinasini sovurganligi tufayli harbiy strategig resurslarga ziyon yetkazilgan edi. Iqtisodiy tanglik va sanoat turgunligi tufayli xaloqatli tarzda mablag yetishmas edi.

Shuningdek, Rossiya xalqaro maydonda siyosiy jihatdan yakkalanib qoldi, chunki uning ittifoqchisi Fransiya betaraflik siyosatini olib bordi. Rossiyani Uzok Sharqda mustaxkamlanishiga qarshi kurashgan Buyuk Britaniya va AQSh faol ravishda Yaponiyaga yordam berishdi. Yaponiya 20 asr boshidagi jadallik bilan sanoat yuksalishi nigizida kudratli harbiy industriyani barpo etdi, armiyani modernizatsiya qilib qayta kurollantirdi, yangi zamonaviy harbiy dengiz flotini kurdi.

Harbiy harakatlarining borishi haqida soʻz borganda shuni takidlash lozimki, yapon floti urush eʼlon kilmasdan turib, kuchlar ustunligi va kurkisdan hujum qilish omilidan foydalanib, 1904-yil 27 yanvarga utar kechasi Port-Artur reydidagi rus esqadrasini ukka tutdi. Uhta rus kemalariga shikas yetkazildi, 27 yanvar kuni ertalab Chemulpo koreets portida oltita kreyser va sakkizta minonosetslardan iborat yapon esqadrasini ikki rus kemalariga: «Varyag» kreyseri va «Koreets» kanonir kemalariga hujum qildi. 45 dakikalik tengsiz jangda rus matroslari kaxramonlarcha kurashib dushmanga sezilarli shikast yetkazishdi, yaʼni 1 yapon kreyserini chuktirishdi. Kemadagi kuchlik yongin, rul boshqaruvini shikastlanganligi tufayli «Varyag» Port-Arturdan yoritib chikib keta olmadi. Rus matroslarini Angliya, Fransiya va AQSh harbiy kemalari oʻz bortlariga olishdi. «Koreets» portlatildi, «Varyag» esa dushman qoʻliga tushmasligi uchun chuktirildi. Bu rus Tinch okean esqadrasini birinchi yukotishi boʻldi.

1904-yil fevral-aprelida Lyaodun yarim oroli va Janubiy Manchjuriyaga yapon qoʻshinlari tushirildi. Ruslarning quruqlikdagi qoʻshinlari qoʻmondoni general A.N.Kuropatkin zarur qarshilik koʻrsatishni tashqil etmaganligi uchun, bir necha muovaffakiyatli operatsiyalardan keyin yaponlar may oyiga kelib Port-Artur kalasini asosiy rus qoʻshinlaridan ajratib kuyishdi.

Tinch okeani floti qoʻmondoni vitse-admiral S.O.Makarov dengizda va Port-Artur himoyasi boʻyicha faol operatsiyalarga tayyorlandi. 31-martda u esqadrasini tashqi reydgaga olib chikdi, u dushman bilan janga kirib, uning kemalarini kirgok batareyalarini ukiga aldab duchyor kilmokchi edi. Biroq jangning boshlashidayok uning flagman kemasi «Petrovavlovsk» minaga uchrab portlab ketdi va ikki minut

davomida g'ark bo'ldi. Komandaning ko'p qismi S.O.Makarovni butun shtabi, shuningdek bortda bo'lgan rassom-batalist V.V.Verehagin xalok bo'lishdi. Shundang so'ng rus floti mudofaaga o'tdi, chunki Uzok Sharqdagi kuchlar bosh qo'mondani admiral E.I.Alekseyev dengizdagi faol haraktlaridan voz kechdi.

Yozda yapon armiyasi ikki yo'nalishda - Port-Artur qal'asiga va rus armiyasining asosiy kuchlariga qarshi hujum harakatlarini olib bordi. 1904-yil avgustdagi Port-Artur birinchi qamali, kalani bitta zarba bilan olish mumkin emasligini ko'rsatdi. Qal'a oltita hujumni qaytardi va 1904-yilning dekabrda qal'a komendanti, general A.M.Stesselni sotqinligi tufayli qal'a dushmanga topshirildi. 1904-yilni avgustda Manchjuriyadagi Lyaoyan shahri yaqinida jang bo'lib utdi, biroq har ikki tomonga muvaffaqiyat keltirmadi. 1904-yil sentabrda Shaxedaryosidagi ruslarni qarshi hujumi natijasiz yakunlandi.

1905-yilda Rossiya ikkita yirik maglubiyatga uchradi: fevralda, quriqlikda Mukden ostida va dengizda, may oyida, Susima oroli yaqinida vitse-admiral Z.P.Rojestvenskiy qo'mondonligidagi 2-chi Tinch okeani esqadrasi yengildi. Iyulda yaponlar Saxalin orolini egallashdi.

Rossiya tinchlik muzokaralari olib borishga majbur bo'ldi, AQSh bunda o'rtada turishni taklif etdi.

1905-yil avgustda AQShning Portsmut shahrida tinchlik sulxi tuzildi. Rossiya delegatsiyasining raxbari S.Yu.Vittening sayharakatlari tufayli uning shartlari Rossiya uchun kamsitiladigan darajada bo'lmadi. Yaponiyaning kontributsiya haqidagi talabi rad etildi. Ammo, Rossiya Koreyaga Yaponiyaning ta'sir doirasini tan oldi, unga Port-Artur bilan Lyaodun yarim orolini va Saxalin orolini janubiy qismini arenda «ijara»ga berdi. Rossiyaning Uzok Sharqdagi ta'siri ancha susaydi. Bu urushda Rossiya va Yaponiya ulkan moliyaviy harajatlarni va odamlarni yukotilishiga duchor bo'ldilar.

Uchlar ittifoqini tashqil topishi. Rossiya va Bolqon krizisi (tanglik)lari.

Rus-yapon urushi natijasida Rossiyani kuchsizlanishi va ichki barqarorlikni zarurlig, rus diplomatlarini tashqi kiyinchiliklardan chetga chikib, ehtiyotkorona siyosat olib borishga majbur edi. Bular mamlakatning xalqaro ahvolini

mustaxkamlashga va Bolqon, Utra va Yaqin Sharqda markaziy Yevropa davlatlarining tajavuzziga qarshi karatilgan edi.

Dunyoning shu va boshqa regionlarida Germaniyaning ekspansiyaning kengayishi tufayli Buyuk Britaniya xalqaro ittifoqlardan voz kechish siyosatini uzgartirib, Fransiya bilan yaqinla boshladi. 1904-yilda bu davlatlar, Afrikadagi ziddiyatli masalalarni tartibga solishib, ularning siyosiy va harbiy hamkorligi uchun asos solgan bitimni imzoladilar. 1907-yilda Rossiya va Buyuk Britaniya, o'z ta'sir doiralariga Eron, Afgoniston va Tibetni bo'lib olish haqidagi bitimni imzoladi. Markaziy Osiyodagi territorial ziddiyatlarni tartibga solishga karaganda, bu xujjatning xalqaro ahamiyati ancha kengrok edi. Fransiya va Angliyaning tuzgan kelishuvidan so'ng tuzilgan rus-angliya bitimi amalda rus-frank-angliya ittifoqi Antantani vujudga kelishiga (rasman bu fakat birinchi jahon urishi boshlanishida rasmiylashdi). Yevropa batomom ikki dushman lagerga uchlar ittifoqi va uchlar kelishuviga bulindi.

1908-1913-yillardagi Bolqon krizisi haqida gap ketganda avvalo, 1908-1909-yillarda boshlangan Bolqon krezisini aytish lozim. Germaniyaning ko'llab kuvatlashiga tayanib, Usmoniylar imperiyasini zayflashganidan foydalanib, Avstro-Vengriya 1908-yilda Bosniya va Gersogoviniyani anneksiya qildi. Rossiya Germaniyaning tayziqi ostida Avstriya hukumatining bu harakatini tan olishga majbur boldi. Chunki harbiy vositalar bilan unga tuskinlik qilishga tayyor emas edi.

Bolgariya o'z mustakilligini e'lon qildi. 1912-yilda Rossiyaning vositachilariga Bolgariya bilan Serbiya Avstro-Vengriya hamda Turkiyaga qarshi ittifoq tuzishdi, ularga Gretsiya ham kushildi. Turkiyaga qarshi boshlangan urushda ular tezda muvaffakiyatlarga erishdi. Usmon imperiyasi o'z hududlarini butun Yevropa qismni yokotdi, fakat uning poytaxti Stanbulga tutushgan tor joyigina qoldi. Biroq, 1913-yilda Bolqon davlatlari – Bolgariya, Serbiya va Gretsiya o'rtasida territorial ziddiyatlar tufayli tuknashuv kelib chikdi. Buni Avstriya va German diplomatlarning igvo va fitnalari avj oldirgan. Rossiya, Bolqon ittifoqining kulashini va sobik ittifoqchilar o'rtasidagi urushni oldini ola olmadi. Bolqon urushini yakunlagan Buharestdagi tinchlik konferensiyasi, bu ziddiyatlarni olib tashlab

kolmasdan, balki ularni avj oldirdi. Bu ayniksa, Germaniya ko'llab kuvvlay boshlagan Bolgariya, va Rossiya tarafini olgan Serbiya o'rtasida kesginlashdi. Bolqon va Yevropaning «poroxli ombori»ga aylandi.

Rossiyaning 1914-1918-yillardagi birinchi jahon urushidagi ishtirokiga kelsak, birinchi jahon urushida 1,5 mlrd. ortiq aholisi bo'lgan 38 davlat katnashdi. Asosiy rakiblar: Angliya, Fransiya, Rossiya, Serbiya, Yaponiya, keyingrok Italiya, Ruminiya, va AQSh bir tomonda; Germaniya, Avstro-Vengriya, Turkiya va Bolgariya – boshqa tomonda: o'zining harakatlariga ko'ra bu urush har ikkila tomon uchun ham boskinchilik urush bo'lgan.

U dunyo xalqlariga son sanoksiz xonavayronliklar keltirgan: uldirilganlar va jaroxatlanib vafot etganlar 9,5 mln. kishini tashqil etgan, 20 mln. kishi yarador bo'lib, ulardan 3,5 mln. kishi mayib, nog'iron bo'lib qolgan. Kup sonli tinch aholi xalok bo'lgan. Kupgina mamlakatlarni iqtisodi vayron bo'ldi.

Urushning sabablariga kelsak, 1-chi jahon urushini Uchlar ittifoqi va Uchlar kelishuvi (Antanta) mamlakatlari o'rtasidagi ziddiyatlar keltirib chiqargan. Asosiysi Angliya va Germaniya o'rtasidagi iqtisodiy, harbiy-dengiz va mustamlakalar bo'yicha raqobatchilik bo'lgan. Germaniya, Afrika va Uzok sharqda mustaxkamlanib olgach Buyuk Britaniyadan uni mustamlakalarini tortib olishni orzu kilardi. Dengizda ustunlik uchun kurashib, muntazam ravishda o'z harbiy-dengiz kuchlarini ko'paytirib borganlar.

1870-1871-yillardagi Frank-Pruss urushidan keyin Fransiyadan tortib olingan Elzas va Lotaringiya uchun bo'lgan Frank-german ziddiyatlari chukurlashib bordi. Germaniya Afrikadagi Fransuz mustamlakalariga davogarlik kilgan.

Bolqon va Yaqin sharqda Yevropa davlatlarini ziddiyatlari o'ta keskinlashishga yetdi. Bu regionda ham Germaniya ta'sir doirasini kengaytirmokchi bo'ldi. Uning ittifoqchisi Avtro-Vengriya esa Bosniya va Gersegovinani anneksiya kilchag, Serbiyani bosib olishga tayyorlandi. Rossiya, Bolqondagi uzini siyosiy mavkeini saqlab qolishga intildi, Bugozlarni va Konstantinopolni bosib olishni orzu kilardi.

Rus armiyasining ahvoliga kelsak, Rossiya 1914-yilda urushga tayyor emas edi. Rus-yapon urushidan keyin boshlangan harbiy isloxat tuganlanmagan edi. Yangi harbiy-dengiz flotini qurish dasturi, moliyaviy mablaglarining yetishmasligi tufayli sekinlik bilan bajarilardi. Urushning boshlanishidayok temir yo'llarda tashish imkoniyati pasligi rus armiyasiga kushimcha kuchlar va uk-dorilarni tashib keltirish kiyinchiligini keltirib chiqardi. German artileriyasi ruslarnikidan sezilarli darajada ustun edi. Armiyani zamonaviy kurol aslaxa turlari bilan (avtomatik kurol, avtomobil partiya, aloqa vositalar va boshqalar) ta'minlashda ham ayrim ravishda orta qolishda kuzatilgan. Rus otliklarining soni oqlab bo'lmaydigan darajada edi. Harbiy doktirinalar ham eskirgandi. Oliy qo'mondonlikning tarkibi yetarlicha malakali va maxoratli emas edi. Urush davomida oliy bosh qo'mondon buyuk knyaz Nikolay Nikolaevich, bosh shtab boshligi N.N.Yanushkevich, va harbiy vazir V.A.Suxomlinlar lavozimidan chetlatildi. o'ziga oliy bosh qo'mondon vazifasini qabul qilgan Nikolay II, harbiy tajribaga ega bo'lmagan harbiy harkatlarni fakat nominal tarzdagina boshqargan. Urush davomida ko'plab front va armiyalar qo'mondonlari uzlarini layokatsizligini namoyish etdi. Urushning boshlanishiga kelsak 1914-yil iyunida Bosniyadagi Saraevo shahrida «Qora qo'l» (chyornaya ruka) nomli fitnachi serb tashqilotini a'zosi student G. Prinsip, Avstriya taxtining merosxo'ri Frans Ferdinandni to'pponchadan otib o'ldirdi. Bu esa xalqaro mojaroni boshlanishi uchun baxona bo'ldi. Iyulda, Germaniya bilan maslaxatlashgan keyin Avstriya-Vengriya Serbiyaga ultimatum kuydi. Uning barcha shartlarini bajarish Serbiyani taxkirlarni va uning suverenitetiga zarba berardi. Serbiyaning yon berishiga karamasdan 1914-yil 15 iyulda Avstriya-Vengriya unga urush e'lon qildi. Serbiyaning mustakilligining garanti ya'ni kafil bo'lgan Rossiya, unga javoban umumiy mobilizatsiya (safarbarlik)ni boshladi. Germaniya ultimativ tarzda mobilizatsiyani tuxtatishlikni Rossiyadan talab qildi va rad javobini olgach, 19-iyulda Rossiyaga urush e'lon qildi. Rossiyaning ittifoqchisi Fransiya urushga 21-iyulda kirdi, kelgusi kuni esa Angliya kushildi. 26-iyulda Rossiya va Avstriya-Vengriya o'rtasidagi urush holati e'lon qilindi.

Harbiy harakatlarning borishi haqida soʻz borganda shuni aytish lozimki, Yevropada ikki front – Garbiy (Fransiya va Belgiyada) va Sharqiy (Rossiyaga qarshi) yuzaga keldi. Rus fronti ham oʻz navbatida Shimoli-Garbiy (Sharqiy Prussiya, Boltiq boʻyi, Polsha) va Janubi-Garbiy (Garbiy Ukraina, Rossiyaning Avstro-Vengriya bilan cherasi buylab Karpatori yaʼni Zakarpate) frontlariga bulingan.

Germaniya yashin tezligida zarba berib Fransiyaning tor-mor etib, soʻngra qoʻshinglarini Rossiyaga qarshi tashlashni rejalashtirgandi, bu esa uni ikki frontda urush harakatlari olib borishdan xolos etardi. Biroq, ittifoqchilarining talabiga koʻra Rossiyaning zudlik bilan urushga kirishi german bosh shtabining strategik maqsadini barbod qildi. Sharqiy frontdagi harbiy harakatlarning borishida turtta kompaniya ajralib turadi.

1914-yilgi Sharqiy frontdagi harbiy harakatlar – Rossiyaning Sharqiy Prussiya va Germaniyadagi hujumlari boʻldi. Sharqiy Prussiya operatsiyasi avvaliga rus armiyasi uchun muvaffaqiyatli bordi. Natijada Germaniya Garbiy frontdagi qoʻshining bir qismini olib Sharqiy frontga tashlashga majbur boʻldi, bu esa frank-ingliz armiyasiga Marna daryosi yonidagi jangda galaba kozogʻtshga va Parijni kulashini oldini olish imkonini berdi. Sharqiy Prussiyadagi 1-chi va 2-chi rus armiyalarining harakatlaridagi ixtiloflardan foydalanib, kuchaytirilgan nemis qismlari, ularga ogʻir talofatlar yetkazdi. Janubi-Garbiy frontdagi vaziyat rus armiyasi uchun ancha muvaffaqiyatli kechdi. Avstro-Vengriya qoʻshinlari tor-mor etilib, butun Galitsiya egallandi. Germaniya Polshaga qoʻshimcha kuchlar joʻnatdi, ruslar mudofaaga oʻtishga majbur boʻldi, bu esa Avstro-Vengriyani butkul magʻlubiyatdan saqlab qoldi. 1914-yilga kompaniya urushayotgan tomonlarni hech biriga xal kiluvchi muvaffaqiyat keltirmadi.

1915-yilga urush harakatlariga eʼtibor karatsak, Garbiy front barqarorlashib, u yerda pozitsion kurash borganligini kuramiz. Yevropa maydonlarida tikanli simlar tarmoklari tuqilib, okoplar kazib tashlandi. Germaniya oʻz kuchlarini Rossiyaga qarshi tuplab, uni tor-mor etishni rejalashtirdi. Germaniyaning sharqiy frontdagi baxorgi-yozgi hujumlari Rossiyaning magʻlubiyati bilan tugadi, u ogʻir janglar

oqibatida Polsha, Boltiqbo'yini bir qismini, G'arbiy Belorussiya va Ukrainani qo'ldan boy berdi. Ammo, Germaniyaning Rossiyani butunlay urushdan chiqarish to'g'risidagi strategik maqsadi bajarilmadi.

1916-yildagi urush kampaniyasiga nazar soladigan bo'lsak, Germaniya yana o'zining asosiy zarbasini Fransiya qarshisiga kurashini kuramiz. Ittifoqchilariga yordam ko'rsatish uchun Rossiya Janubi-Garbiy frontda hujumga utishga o'rindi. General A.A.Brusilovning armiyasi frontni yorib utdi va Avstro-Vengriya qo'shinlarini tormor qildi. Avstro-Vengriyani qutqarish uchun, Germaniya, Garbiy frontdagi qo'shinlarining bir qismini yana Sharqiy frontga tashladi. Ruslarning hujumi Verden himoyachilariga yordam berdi va Ruminiyani Antanta tarafida urushga kirishiga turtki bo'ldi. Germaniyaning ittifoqchisi Turkiyaga qarshi 1915-yilda vujudga kelgan Kavkaz frontida rus qo'shinlari bir qator muvaffaqiyatli operatsiyalar o'tkazib, Trapezund va Erzerumni egalladilar. 1916-yilda Germaniya strategik tashabbusni yukotdi.

1917-yildagi urush harakatlariga e'tibor karatsak, mamlakatda bo'lib utgan fevral inkilobi, Rossiyani urushdan chikishiga olib kelmadi. Vaktli hukumat ittifoqchilik burchiga sodiq qolishini e'lon qildi. Iyun oyida Galitsiya va iyulda Belorussiyada amalga oshirilgan ikkita harbiy operatsiyalar barbod bulishi bilan yakunlandi. Nemis qo'shinlari Riga shahrini va Boltiq dengizidagi Moonzund arxipelagini bosib olishdi. Bu paytga kelib rus armiyasi tula tushkunlik uchradi. Frontda dushman bilan birodarlashish boshlandi. Butun mamlakat urushnidarhol tuxatilishini talab qildi. Shu tufayli bolsheviklar hokimyatni egallagach, tinchlik to'g'risidagi dekretni e'lon qilishdi va Germaniya bilan sulx muzokaralarini boshladi. Sovet Rossiyasi, 1918-yil mart oyida Germaniya va uning ittifoqchilari bilan Brest tinchlik sulxini imzolab, irinchi jahon urushidan chikdi.

1918-yil noyabridagi Kompen yarashidan keyin Garbiy frontdagi jangovor harakatlar tamom bo'ldi. Germaniya va uning ittifoqchilari maglubiyatga uchrashdi. 1919-yildagi Versal tinchlik shartnomasi bilan urushni yakunlari batamom, uzil-kesil xal etildi. Uning imzolanishida Sovet Rossiyasi ishtirok etmadi.

Maorif va ta'lim haqida so'z borganda aytish mumkinki, Garbiy Yevropa mamlakatlaridan farkli ravishda, Rossiyada umumiy majburiy boshlangich ta'lim to'g'risidagi qonun yo'q edi. Biroq ishlab chiqarish ehtiyojlari kasbiy malakali xizmatchilarni talab etardi. Shuning uchun hukumat maktablar tarmoklarini kengaytira boshladi. Bu esa aholining savodxonligini, XIX asrning 60--yillaridagi 0,7 foiz darajadan, XX asr boshlaridagi taxminan 30 foiz darajaga oshirish imkonini berdi. XIX asrning 2-yarimida yuzaga kelgan ta'lim tizimining asosiy belgilari 1917-yilgacha saqlanib qoldi.

Davlat, zemstvo va cherkov-prixod maktablari boshlangich ta'lim bergan. 2-3 mobaynida o'qish, yozish, xisoblash va din asoslarini urgatishgan. Ayniksa, zemstvo maktablari bilimni oshirishga imkon bergan. Hukumat va Sinodning sayi-harakatlariga karamasdan cherkov-prixod maktablarining ahamiyati asta-sekin pasayib borgan.

O'rta ta'lim tizimiga gimnaziya va real bilim yurtlari kirgan. Erkaklar va ayollar gimnaziylarida tabiiy va gumanitar fanlarga, chet tillarini urganishga katta e'tibor karatilgan. Real bilim yurtlarida kushimcha tabiiy-texnik fanlarga tayanilgan.

1887-yildagi «Oshpaz ayollarning farzandlari to'g'risidagi sirkulyar» ga binoan, gimnaziyalarga «izvoshchi, uy xizmatkori (karol), kir yuvuvchi, mayda dukondorlar va shu kabi shaxslarni» farzandlarini qabul qilish taqiqlangan. Gimnaziyani tamomlaganlik to'g'risidagi guvoxbomasiz universitetlarga o'qishga kirish mumkin bo'lmagan. Bu esa ta'limni toifali tizimini saklash va uni demokratlashtirishni sekinlatishni usuli edi.

Oliy ta'lim tizimida ham sezilarli tarzda oldinga siljishlar ruy berdi. XIX asrning ikkinchi yarimida Odessa va Tomskda, XX asr boshlarida esa Saratovda universitetlar tashqil etildi. Maxsus oliy o'quv yurtlarining soni tez sur'atlarda oshib bordi: Tog, Urmonchilik institutlari, Qishloq xo'jaligi Akademiyasi va boshqalar ochildi. Ayollarning universitetlarga o'qisha kirishlari kiyinchilik tugdirgani tufayli Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarda ayollarning Oliy kurslari ochildi. Birinchi jahon urushi arafasida Rossiyada 120 ta oliy ukuv yurtlari bo'lib, ularda 130 ming student ta'lim olgan.

Ma'rifatparvarlik faoliyati haqida so'z borganda ta'kidlash lozimki, islohotlardan keyingi Rossiyada va XX asr boshlarida ayniksa xalqning bilim olishga, ilmiy bilimlarga, adabiyot va san'atga intilishi kuchaydi. Buni amalga oshirishda ilgor rus ziyolilari katta rol o'ynadi, ular zemstvo va ilmiy jamiyatlar koshida turli ma'rifatparvarlik tashqilotlarini, shuningdek, maktabdan tashkari yangi ta'lim shakllarini tashqil etishdi. Kattalar uchun bepul yAQShanba maktablari ochildi. Ta'lim dasturida boshlangich, o'rta va oliy ta'lim kuzda tutilgan ishchi kurslari yuzaga keldi.

Oliy ta'limni demokratlashtirilishiga kechki xalq universitetlari imkon berib, ularga ijtimoiy mavkei, moddiy ahvoli va diniy e'tikodidan kat'iy nazar barcha xoxlagan shaxslar qabul qilingan.

Ilmiy bilimlarni ommalashuvida va xalqning badiiy ajabiyotni o'qishga yaqinlashuvida, kitob nashr qilish katta rol uynadi.

Zemstvolar, ukuv yurtlari va muzeylarda barcha kirib foydalanishi mumkin bo'lgan kutubxonalar va o'qish zallari ochildi.

Fanning rivojlanishiga nazar solsak, fundamental aniq va gumanitar fanlar sohasida katta ishlar amalga oshirildi.

Tabiiy fanlarda D.I.Mendeleyev tomonidan kimyoviy elementlarning Davriy qonunini ochilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. A.M.Butlerov organik jismlarning kimyoviy tuzilishini klassik nazariyasini tuzdi. N.D.Zelinskiy organik kataliz ta'limotiga asos soldi. A.I.Kablukov elektroximiya va fizik ximiya sohasiga asos soluvchi ishlarni amalga oshirdi.

Mamematiklar P.L.Chebo'shyev, A.M.Lyapunov va S.V.Kovalevskiylarning sonlar nazariyasi, ehtimollik nazariyasi va matematik fizikaning qator bulimlari bo'yicha olib borilgan izlanishlari katta fundamental ahamiyatga ega bo'ldi.

Fizika va mexanika sohasida ham ulkan kashfiyotlar amalga oshirildi. A.G.Stoletovning amalga oshirgan ishlari zamonaviy elektron texnikani barpo etish uchun shart-sharoitlar tayyorladi. P.N.Yablochkov (dugali lampa), A.N.Lodo'gin (lampani qizib cho'g' bo'lishi)larning kashfiyotlari elektr yoritishda tub uzgarishlarga olib keldi. A.S.Popov 1895-yilda simsiz elektr aloqasi (radio)ni kashf

etgani uchun 1901-yilda Parijda bo'lib utgan Butunjahon kurgazmasida katta oltin medalga sazovor bo'ldi. Zamonaviy gidroelektrodinamikani asoschisi bo'lgan N.Ye.Jukovskiyni «rus aviatsiyasini otasi» deb atashadi.

K.Ye.Siolkovskiy raketodinamika sohasidagi o'z ishlari bilan kosmik uchishlarni amalga oshishi mumkinligiga asos soldi.

Biologiya va meditsina sohasida ham katta ishlar amalga oshirildi. I.M.Sechenov fiziologiya maktabiga asos solib, psixologiyada qator kashfiyotlar qildi. Oliy nerv faoliyati va ovqat xazm bulish fiziologiyasi ta'limotini yaratib, I.P.Pavlov Obel mukofotini oldi.

Rus geograf va etnograflari yerning kam urganilgan regionlarini ilmiy jihatdan urganishda davom etdilar.Tyan-Shan, Tibet, Turkiston, Muguliston, Indoneziya, Filippin, Xabashiston (Efiopiya) va boshqa joylarni urgandilar. P.P.Semenov-Tyan-Shanskiy, N.M.Prjevalskiy, N.N.Mikloxu-Maklay, V.K.Kozlov va boshqalarning sayoxatlari davomida bu joylarni haritalari tuzildi, boy biologik va etnografik kolleksiyalar tuplandi. Okeanograf vitse-admiral S.O.Makarov ikki marta dunyoni aylanib suzib chikdi.

Badiiy adabiyot sohasida I.S.Turgenyev, N.A.Nekrasov, F.M.Dostoevsiy, I.A.Goncharov, M.Ye.Salto'kov-Shedrin, V.G.Korolenko, A.P.Chexov, I.A.Bunin, A.I.Kuprin va boshqalar bir qancha ajoyib badiiy asarlar yaratdilar.

Rus teatrining repertuari asosan milliy asosda, A.N.Ostrovskiy, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.M.Gorkiy kabi rus adabiyoti klassiklarining dramatik asarlari negizida shakllandi.

1896-yil may oyida Peterburg va Moskvada birinchi marta kinofilm namoyish etildi.1903-yilda statsionra «elektroteatr»lar ochila boshladi.1916-yilga kelib Rossiyada 4000 ga yaqin kinoteatrlar bo'lib, ularga kuniga 2 million tomoshabin kirgan. Dastlab xujjatli fiomlar, so'ngra esa badiiy filmlar suratga olingan.1908-yilda birinchi film «Stenka Razin i Knyajna», 1911-yilda esa «Sevastopl mudofaasi» tula metrajli filmlari suratga olingan.1911-1913-yillarda Rossiyada 30 ga yaqin kinofirmalar bo'lib, 600 dan ortiq kinokartinalarni namoyishga chiqarishgan.1911-1913-yillarda Rossiyada birinchi bo'lib kugirchok film yaratilgan.

M.A.Balakirov, S.A.Kyui, M.P.Musorgskiy, A.P.Borodin, N.A.Rimskiy-Korsakov, P.I.Chaykovskiy, A.K.Glazunov, S.V.Raxmaninov singari rus kompozitorlari ko‘plab opera, balet, kamerno-vokal va simfonik asarlar yaratganlar.

Badiiy rassomlik yo‘nalishida realizm muhim o‘rin egallab, ayniksa I.Ye.Repin, V.I.Surikov, V.M.Vesnetsov asarlari milliy an‘ana va xalq eposlariga tayangan tarixiy janrda yaratilgan.

V.V.Verehagin bataliya rassomchiligi, V.A.Serov portret, I.I.Levitan peyzaj yo‘nalishida rasmlar chizganlar.

Haykaltaroshlikda A.M.Opeqo‘shin Moskvada yaratgan A.S.Pushkinning haykalini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Arxitektura sohasida shaharlar qiyofasini aslzodalarning saroylari emas, balki fukaro ahamiyatidagi binolar – bank, magazin, vokzal, daromad keltiradigan binolar bo‘lgan. Bu paytda Tarix muzeyi binosi, Badiiy teatr, Metropol mexmonxonasi, shuningdek Yaroslavl, Kozon va Kiyev temir yo‘l vokzallari qurildi.

Nazorat uchun savollar

1. XX asr boshlarida rus maorif tizimidagi o‘zgarishlar?
2. XX asr boshlarida Rossiyaning tashqi siyosati va uning ustivor yo‘nalishlari?
3. XX asr boshlarida rus madaniyati?
4. Bolqon va Yaqin Sharq mojarosi va uning sabablari?
5. Birinchi jahon urushu va unda Rossiyaning ishtiroki?

GLOSSARIY

Absolyutizm – monarx cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan boshqaruv shakli. Rossiyada u 18-asr - 20-asr boshlarida mavjud edi.

Avtokefaliya – mustaqil, o‘zini o‘zi boshqaradigan (cherkov).

Anneksiya – zo‘rlik bilan qo‘shib olish, bir davlat tomonidan boshqa davlat yoki xalqqa tegishli hududni egallab olish.

Apogey – vysshaya stepen, rassvet chego-nibud.

Apologiya – (qadimgi grekcha ἀπολογία) biror bir davlat yoki jamiyatni eng oliy daraja, gullashi.

Barshchina– er rentasi shakli, qaramog‘idagi dehqonning yer egasi xo‘jaligida o‘z texnikasi bilan ishlaydigan tekin majburiy mehnati. 1882 yilda qonuniy ravishda bekor qilingan

Veche – X-XIV asrlarda qadimgi va o‘rta asr rusidagi milliy yig‘ilish.

Volyuntarizm – tarixiy jarayonning ob'ektiv qonuniyatlarini hisobga olmaydigan, real imkoniyatlarga ega bo‘lgan va sub'ektiv istaklar va o‘zboshimchalik bilan qarorlar qabul qiladigan shaxs faoliyatining o‘ziga xos xususiyati.

Votchina – Rossiyadagi yerga egalik qilishning eng qadimgi turi, meros orqali o‘tgan oilaviy mulk. 10-11-asrlarda paydo bo‘lgan. (knyazlik, boyar, monastir), XIII - XV asrlarda. yer egaligining hukmron shakli. 15-asr oxiridan boshlab. 16-17-asrlarda yaqin bo‘lgan mulkka qarshi chiqdi. va 18-asr boshlarida. bir turga birlashtirilgan - mulk.

Genealogiya – nasabnoma, oila tarixi, nasabnoma.

Demagogiya – faktlarni ataylab buzib ko‘rsatish asosida ommaning xabardor bo‘lmagan qismining his-tuyg‘ulari va instinktlariga ta'sir qilish; biror narsani qo‘pol bir tomonlama talqin qilishga asoslangan fikrlash yoki talablar.

Dissident – 1) hukmron dinga amal qilmaydigan shaxs; 2) hukmron mafkura, hukmron dunyoqarash, mavjud tuzumga rozi bo‘lmagan dissident.

Imtiyoz yorlig'i – rossiyadagi oliy hokimiyat organi (Buyuk knyaz, podshoh, imperator) tomonidan shaxslar va monastirlarga (12-asrdan) yoki aholi guruhlariga (17-asrdan) har qanday huquq yoki imtiyozlar beruvchi hujjat.

G'arbliklar – 19-asr o'rtalarida rus ijtimoiy tafakkurining yo'nalishi bo'lib, uning vakillari Rossiyaning G'arbiy Evropa yo'lida rivojlanishini yoqlab chiqdilar, rasmiy millat, krepostnoylik va avtokratiya nazariyasini tanqid qildilar va slavyanfillarga qarshi chiqdilar.

Sanoatlashtirish – xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida va birinchi navbatda sanoatda yirik mashina ishlab chiqarishni yaratish jarayoni.

Konvertatsiya – harbiy-sanoat korxonalarini fuqarolik mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tkazish.

Konsessiya – davlat mulki bo'lgan tabiiy resurslar, korxonalar va boshqa xo'jalik ob'ektlarini muayyan muddatga foydalanishga topshirish to'g'risidagi shartnoma; shunday shartnoma asosida tashkil etilgan korxona ham tushuniladi.

Krepostnoylik – dehqonlarning qaramligi shakli: ularning yerga bog'lanishi va feodalning ma'muriy va sud hokimiyatiga bo'ysunishi. 1861 yilgi islohot bilan bekor qilingan

Modernizatsiya – zamonaviy talablarga javob beradigan o'zgarish, takomillashtirish.

Monopoliya – maksimal foyda olish maqsadida moddiy va moliyaviy resurslarni, ilmiy-texnik salohiyatni jamlash orqali bozorlar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi xo'jalik birlashmalari.

Natural xo'jaligi – mehnat mahsuloti bozorda sotish uchun emas, balki ishlab chiqaruvchilarning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqariladigan iqtisodiyot turi.

Nomenklatura – Kommunistik partiya qo'mitalari tomonidan tavsiya etilgan va tasdiqlangan nomzodlar, shuningdek, ushbu lavozimlarni egallagan shaxslarning eng muhim lavozimlari ro'yxati. Qo'mita saviyasiga ko'ra raykom, viloyat komiteti, Ittifoq respublikasi Kompartiyasi MK, KPSS Markaziy Qo'mitasi va Siyosiy byurosining nomenklaturasi mavjud edi.

Normann nazariyasi – mahalliy va xorijiy tarixshunoslikdagi yo‘nalish, uning tarafdorlari normanlarni (Varangiyaliklar) Qadimgi Rusda davlatning asoschilari deb bilishadi. 18-asrning 2-choragida tuzilgan. G. Bayer va G. Miller.

Obrok – yer egalari tomonidan qaram dehqonlardan yillik pul va mahsulotlar undirilishi. 1861 yilda oziq-ovqat yig‘imlari bekor qilindi; pul yig‘imlari 1882 yilgacha vaqtincha majburiy dehqonlar uchun qoldi.

Paritet – tenglik, biror narsada tomonlarning teng huquqliligi.

Privatizatsiya – mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, uni turli shakllarda xususiy shaxslar, aktsiyadorlik jamiyatlari qo‘liga o‘tkazish va hokazo.

Reabilitatsiya – huquqlarni tiklash, yaxshi nomni tiklash.

Repatriatsiya – harbiy asirlar, qochqinlar, emigrantlar, majburiy ko‘chirilganlar o‘z vatanlariga qaytishlari.

Sekulyarizatsiya – 1) cherkov va monastir mulkini dunyoviy mulkka aylantirish; 2) biror narsani cherkov yurisdiksiyasidan olib tashlash va dunyoviylikka o‘tkazish; 3) cherkov ta'siridan xalos bo‘lish.

Slavyanofil – rus ijtimoiy tafakkuri yo‘nalishlaridan biri vakillari ser. XIX asrda ular Rossiyaning G‘arbiy Evropadan tubdan farq qiladigan rivojlanish yo‘lini, o‘ziga xosligidan kelib chiqib, g‘arbliklarga qarshi chiqdilar.

Stagnatsiya – ishlab chiqarish va savdodagi turg‘unlik bilan tavsiflangan iqtisodiy inqiroz.

Terror – qo‘rqitish siyosati, siyosiy raqiblarini zo‘ravonlik (quvg‘in, qotillik va boshqalar) bilan bostirish.

Totalitarizm – jamiyat hayotining barcha sohalarida mutlaq nazoratni amalga oshiradigan davlat tizimi.

Unifikatsiya – biror narsani yagona normaga, yagona shaklga, bir xillikka keltirish.

Favoritizm – hamma narsa sevimlilar, sevimlilar ta'siri bilan belgilanadigan vaziyat; nominatsiya, favoritlarni rag‘batlantirish.

Federatsiya – huquqiy jihatdan davlat tarkibiga kiruvchi federal birliklar (respublikalar, shtatlar, yerlar) muayyan mustaqillikka ega bo‘lgan, o‘z

konstitutsiyalariga, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega bo'lgan boshqaruv shakli; Shu bilan birga federal davlat organlari tuziladi, umumiy fuqarolik, pul tizimi va boshqalar o'rnatiladi.

Shovinizm – millatning eksklyuzivligini, uning boshqalardan ustunligini targ'ib qiluvchi millatchilikning ekstremal shakli.

Глоссарий

Абсолютизм – форма правления, при которой монарху принадлежит неограниченная власть. В России существовала в XVIII – начале XX в.

Автокефалия – независимая, самоуправляющаяся (церковь).

Аннексия – насильственное присоединение, захват одним государством территории, принадлежащей другому государству или народу.

Апогей – высшая степень, расцвет чего-нибудь.

Апология – неумеренное, чрезмерное восхваление, защита кого-нибудь.

Барщина – форма земельной ренты, даровой принудительный труд зависимого крестьянина, работающего собственным инвентарем в хозяйстве землевладельца. Юридически отменена в 1882 г.

Вече – народное собрание в древней и средневековой Руси в X – XIV вв.

Вольные хлебопашцы – в России крестьяне, освобожденные от крепостной зависимости с землей по Указу 1803 г. на основании добровольного соглашения с помещиками.

Волюнтаризм – характеристика деятельности человека, не считающегося с объективными законами исторического процесса, с реальными возможностями и руководствующегося субъективными желаниями и произвольными решениями.

Вотчина – древнейший вид земельной собственности в России, родовое имение, переходившее по наследству. Возникла в X – XI вв. (княжеская, боярская, монастырская), в XIII – XV вв. господствующая форма землевладения. С конца XV в. противостояла поместью, с которым сближалась в XVI – XVII вв. и в начале XVIII в. слилась в один вид – имение.

Генеалогия – родословие, история рода, родословная запись.

Демагогия – основанное на намеренном извращении фактов воздействие на чувства, инстинкты малосознательной части масс; рассуждения или требования, основанные на грубо одностороннем истолковании чего-нибудь.

Диссидент – 1) человек, не придерживающийся господствующего вероисповедания; 2) инакомыслящий человек, не согласный с господствующей идеологией, с господствующим мировоззрением, с существующим строем.

Западники – направление русской общественной мысли середины XIX в., представители которого выступали за развитие России по западноевропейскому пути, критиковали теорию официальной народности, крепостничество и самодержавие, противостояли славянофилам.

Индустриализация – процесс создания крупного машинного производства во всех отраслях народного хозяйства, и прежде всего в промышленности.

Конверсия – перевод военно-промышленных предприятий на выпуск мирной продукции.

Концессия – договор о передаче в эксплуатацию на определенный срок природных богатств, предприятий и других хозяйственных объектов, принадлежащих государству; также обозначает предприятие, организованное на основе такого договора.

Крепостное право – форма зависимости крестьян: прикрепление их к земле и подчинение административной и судебной власти феодала. Отменено реформой 1861 г.

Модернизация – изменение, усовершенствование, отвечающее современным требованиям.

Монополии – хозяйственные объединения, осуществляющие контроль над рынками посредством концентрации материальных и финансовых ресурсов, научно-технического потенциала с целью получения максимальной прибыли.

Натуральное хозяйство – тип хозяйства, при котором продукты труда производятся для удовлетворения потребностей самих производителей, а не для продажи на рынке.

Номенклатура – перечень наиболее важных должностей, кандидатуры на которые рекомендовались и утверждались комитетами компартии, а также лица, занимавшие эти должности. В зависимости от уровня комитета существовала номенклатура райкома, обкома, ЦК компартии союзной республики, ЦК и Политбюро КПСС.

Норманнская теория – направление в отечественной и зарубежной историографии, сторонники которого считают норманнов (варягов) основателями государства в Древней Руси. Сформулирована во 2-й четверти XVIII в. Г. Байером и Г. Миллером.

Оброк – ежегодный сбор денег и продуктов с зависимых крестьян землевладельцами. Продуктовый оброк отменен в 1861 г., денежный оброк сохранился для временнообязанных крестьян до 1882 г.

Паритет – равенство, равноправие сторон в чем-либо.

Приватизация – разгосударствление собственности, передача ее в разных формах в руки частных лиц, акционерных обществ и др.

Реабилитация – восстановление в правах, восстановление доброго имени.

Репатриация – возвращение на родину военнопленных, беженцев, эмигрантов, насильственно перемещенных лиц.

Секуляризация – 1) обращение церковной и монастырской собственности в собственность светскую; 2) изъятие чего-либо из церковного ведения и передача светскому; 3) освобождение от церковного влияния.

Славянофилы – представители одного из направлений русской общественной мысли сер. XIX в., выступали за принципиально отличный от западноевропейского путь развития России на основе ее самобытности, противостояли западникам.

Стагнация – экономический кризис, характеризующийся застоем в производстве и торговле.

Террор – политика устрашения, подавления политических противников насильственными мерами (преследованиями, убийствами и т.д.).

Тоталитаризм – государственный строй, осуществляющий абсолютный контроль над всеми областями общественной жизни.

Унификация – приведение чего-либо к единой норме, единой форме, единообразию.

Фаворитизм – положение, при котором все обуславливается влиянием любимцев, фаворитов; выдвижение, поощрение фаворитов.

Федерация – форма государственного устройства, при которой входящие в состав государства федеральные единицы (республики, штаты, земли) юридически обладают определенной самостоятельностью, имеют собственные конституции, законодательные, исполнительные, судебные органы; наряду с этим образуются федеральные органы государственной власти, устанавливаются общее гражданство, денежная система и т.д.

Шовинизм – крайняя форма национализма, проповедующая исключительность какой-либо нации, ее превосходство над другими.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. История России. Под редакцией А.Н. Сахарова. Москва, АСТ. Астрель «Транзиткнига», 2006. стр.5-20
2. Орлов А.С. и другие. История России. Учебник. Москва, 2001, стр. 3-22.
3. История России под. Ред. М.Н.Зуева и А.А.Чернобаева. Москва, «Вўсшая школа» 2001.
4. Вернадский Г.В. Русская история. М. 1997.
5. Зув М.Н. История России. М., 1999.
6. История России. С древнейших времен до 1861 года. Под ред. Н.И.Павленко. Москва, 2000.
7. Мунчаев Ш.М., Устинов В.М. История России. Москва 1997.
8. Платонов С.Ф. Учебник русской истории. СПб., 1994.
9. Скронников Р.П. История Российская IX-XVII вв. М., 1997
10. Фроянов И.Я. Древняя Русь. М., СПб., 1995.
11. Шапов Я.Н. Государство и церковь в древней Руси X- XIII вв. М., 1989.
12. Юшко А,А, Московская земля IX-XIV вв. М., 1991.
13. Всемирная история. В 10- ти томах, том-1.
14. Советская историческая энциклопедия, том 13, Москва,1971,стр.514-519

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BO‘LIM. QADIMGI RUS DAVLATINING SHAKLLANISHI. O‘RTA ASRLARDA FEODAL RUS KNYAZLIKLARI.....	4-20
1.1. Qadimgi rus davlatining vujudga kelishi.....	4-7
1.2. Feodal tarqoqlik davrida rus davlati.....	8-13
1.3. Markazlashgan rossiya davlatining tashqil topishi.....	14-20
II BO‘LIM. YANGI DAVRDA BUYUK RUS DAVLATI.....	21-84
2.1. Rossiya davlatining XVII asrdagi taraqqiyoti.....	21-30
2.2. XVIII asrning I yarmida rossiya davlati.....	31-40
2.3. Rossiyaning XVIII asrning II yarmidagi rivojlanishi.....	41-50
2.4. XIX asrning I yarmida Rossiyaning iqtisodiy va ijtimoiy tuzumi.....	51-63
2.5. XIX asrning I yarmidagi tashqi siyosat va madaniy taraqqiyot.....	64-84
III BO‘LIM. ENG YANGI DAVRDA ROSSIYANING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA SIYOSIY RIVOJLANISHI.....	85-128
3.1. Rossiyaning XIX asrning II yarmidagi iqtisodiy- ijtimoiy rivojlanishi.....	85-102
3.2. XX asrning boshlarida iqtisodiy-siyosiy ahvol.....	103-115
3.3. XX asr boshlarida rossiyaning tashqi siyosati va madaniyati.....	116-128
GLOSSARIY.....	129-136
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....	137

ОГЛАВЛЕНИЕ

Введение.....	3
РАЗДЕЛ I. ФОРМИРОВАНИЕ ДРЕВНЕРУССКОГО ГОСУДАРСТВА. ФЕОДАЛЬНЫЕ РУССКИЕ КНЯЖЕСТВА В СРЕДНЕВЕКОВЬЕ.....	4-20
1.1. Возникновение древнерусского государства.....	4-7
1.2. Русское государство в период феодальной раздробленности.....	8-13
1.3. Появление централизованного Русского государства.....	14-20
РАЗДЕЛ II. ВЕЛИКОЕ РУССКОЕ ГОСУДАРСТВО В НОВУЮ ЭРУ.....	21-84
2.1. Развитие Российского государства в XVII веке.....	21-30
2.2. Российское государство в первой половине XVIII века.....	31-40
2.3. Развитие России во второй половине XVIII века.....	41-50
2.4. Экономический и социальный строй России в первой половине XIX века.....	51-63
2.5. Внешняя политика и культурное развитие в первой половине XIX века.....	64-84
РАЗДЕЛ III. СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ И ПОЛИТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ РОССИИ В НОВЕЙШИЙ ПЕРИОД.....	85-128
3.1. Экономическое и социальное развитие России во второй половине XIX века.....	85-102
3.2. Экономическая и политическая ситуация в начале XX века.....	103-115
3.3. Внешняя политика и культура России в начале XX века.....	116-128
ГЛОССАРИЙ.....	129-136
ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ И ЛИТЕРАТУРИ.....	137

CONTENTS

Introduction.....	3
SECTION I. FORMATION OF THE ANCIENT RUSSIAN STATE. FEUDAL RUSSIAN PRINCIPALITIES IN THE MIDDLE AGES.....	4-20
1.1. The emergence of the ancient Russian state.....	4-7
1.2. The Russian state during the period of feudal fragmentation.....	8-13
1.3. The emergence of a centralized Russian state.....	14-20
SECTION II. THE GREAT RUSSIAN STATE IN THE NEW ERA.....	21-84
2.1. Development of the Russian state in the 17th century.....	21-30
2.2. The Russian state in the first half of the 18th century.....	31-40
2.3. Development of Russia in the second half of the 18th century.....	41-50
2.4. Economic and social system of Russia in the first half of the 19th century.....	51-63
2.5. Foreign policy and cultural development in the first half of the 19th century.....	64-84
SECTION III. SOCIO-ECONOMIC AND POLITICAL DEVELOPMENT OF RUSSIA IN THE RECENT PERIOD.....	85-128
3.1. Economic and social development of Russia in the second half of the 19th century.....	85-102
3.2. Economic and political situation at the beginning of the 20th century...	103-115
3.3. Foreign policy and culture of Russia at the beginning of the 20th century.....	116-128
GLOSSARY.....	129-136
SOURCES AND LITERATURES USED.....	137

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligining 20 24 yil "11" noyabrdagi
"429"-sonli buyrug'iga asosan

A. Mamajonov

(muallifning familiyasi, ismi-sharhi)

Tarix

(ta'lim yo'naltishi (mutaxassisligi))

ning

talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Rossiya tarixi nomli o'quv qo'llanmasi

(o'quv adabiyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

ga

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda
nashr etishga ruxsat berildi.



Vazir

(imzo)

K. Sharipov

Ro'yxatga olish raqami

429-355



ROSSIYA TARIXI

(o'quv qo'llanma)

Muharrir: O. Abdullaev

Dizayner: J. Kabulov

“OMADBEK PRINT NUMBER ONE” MChJ

Andijon shaxri, Boburshox ko'chasi, 39 a uy.

Nashriyot litsenziya raqami: № 156677.

2023-yil 7-noyabrda berilgan.

+99899 906 90 71

Bosmaxonaga 2024-yil 26-dekabrda berildi. Bosishga
2025-yil 18-yanvarda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
Hajmi 10,9 bosma taboq. Times New Roman garniturasida,
ofset qog'ozi, ofset usulida chop etildi.
Buyurtma 54 Adadi 50 dona.

“OMADBEK PRINT NUMBER ONE” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Andijon shahar Boburshox ko'chasi, 39 a uy.
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti adminstratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligining 12.07.2019 dagi 12-3971. raqamli guvohnomasi.

